

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING  
YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK  
JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA  
RIVOJLANISHI**

**2022**

**Inoyatov S.I.** tarix fanlari doktori,  
professor

**Jo'rayeva N.O.** katta o'qituvchi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**"O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI  
BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING  
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI"**

**MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Fuqarolik jamiyati**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** **S.I.Inoyatov** tarix fanlari doktori, professor.

**N.O.Jo‘rayeva** katta o‘qituvchi

**Taqrizchi:** **E.X.Zoirov** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2021 yil “30” dekbardagi 5-sonli bayonnomma)**

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI .....</b>	<b>13</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>17</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>89</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>136</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>141</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

**“O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi” moduli** O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni asosiy yo‘nalishlarini qamrab oladi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**“O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni innovasion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**“O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi” modulining vazifalari:**

- “Fuqarolik jamiyati” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- “Fuqarolik jamiyati” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integrasiyasini ta’minlash;
- O‘tmish, bugun va keljak voqealarini baholashda siyosiy-tarixiy tajribalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

**Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga  
qo‘yiladigan talablar**

**“O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi” modulini** o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oya va nazariyalarning shakllanishini,
- O‘rta Osiyoda fuqarolik jamiyatini shakllantirish to‘g‘risidagi g‘oyalar, qarashlar, konsepsiyalarni;
- Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish to‘g‘risidagi zamonaviy qarashlar;
- rivojlangan Sharq mamlakatlarining ilg‘or tajribasi. Singapur mo‘jizasi: nazariya va amaliyot. Janubiy Koreya modeling hayotiyligi. Yapon modeling o‘ziga xosligini **bilishi** kerak;
- fuqarolik jamiyatining ilmiy-nazariy metodologiyasi, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi qarashlari, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish amaliyoti bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi** zarur;
- fuqarolik jamiyatining ilmiy-nazariy metodologiyasi, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi qarashlari, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish amaliyoti paketlar fanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- Fuqarolik jamiyati fanlarini turli sohalarga tatbiq qilish;
- Fuqarolik jamiyati fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga ega bo‘lishi** lozim.

## **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyiligi**

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “Harakatlar strategiyasi - O‘zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”, “Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti”, “Ilmiy va innovation faoliyatni rivojlantirish” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagog kadrlarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar **O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishining profiliga mos zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.**

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>			
		<b>Hammasi</b>	<b>Jami</b>	<b>jumladan</b>	
				<b>Nazariy mashg‘ulot</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>
1.	O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining predmeti, maqsad va vazifalari	2	2	2	
2.	O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining g‘oyalari evolyusiyasi	4	4	2	2
3.	Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining - yuqori bosqichi.	2	2	2	
4.	Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlar	2	2		2
5.	O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish strategiyasi.	4	4	2	2

6.	Fuqarolik jamiyat qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi.	4	4	2	2
7.	Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.	4	4	2	2
8.	"Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga" konseptual g'oyasi.	4	4	2	2
	<b>Jami:</b>	<b>26</b>	<b>26</b>	<b>14</b>	<b>12</b>

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.**

**Reja:**

1. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi.
2. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining o'quv, ilmiy, amaliy, tarbiyaviy vazifalari.
3. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining funksiyalari va boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi hamda o'ziga xos xususiyatlari.

**2- mavzu: O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining g'oyalari evolyusiyasi.**

**Reja:**

1. Fuqarolik jamiyat tushunchasining tarixiy ildizlari va ularning turli tavsiflari.
2. Sharq va G'arb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyat tushunchasiga oid o'ziga xos yondashuvlar. Fuqarolik jamiyatining antik paradigmasi.
3. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyat haqidagi ilk qarashlar. O'rta asrlarda fuqarolik jamiyat g'oyalaring rivojlanishi.
4. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining paradigmalarini yaratilishi. G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyat paradigmasingin rivojlanish an'analari.

5. Sharq sivilizatsiyasida yangi davrda fuqarolik jamiyati paradigmasing o‘ziga xosligi.

### **3-mavzu. Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining - yuqori bosqichi.**

#### **Reja:**

1. G‘arb mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. XX asr oxiri – XXI asr boshida dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari chuqurlashishi, ma’naviy-axloqiy inqiroz kuchayishi sharoitida G‘arb mamlakatlari fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik siyosati.
3. Hozirgi davrda AQSh, Fransiya va Germaniyada NNTning faoliyati va ularni rasmiylashtirish tartiblari.
4. Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining o‘ziga xos jihatlari.

### **4-mavzu. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish strategiyasi.**

#### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.
2. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot modellari.
3. Taraqqiyotning O‘zbek modelini yaratilishining siyosiy-ijtimoiy, tarixiy asoslari. Asosiy tamoyillari, mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining asosiy yo‘nalishlari.

### **5-mavzu. Fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi.**

**Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlanirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.
4. Fuqarolarning o'zini -o'zi boshqarish organlarining o'rni.
5. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirilishi.

**6-mavzu. Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.****Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlanirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari kengashlaridagi faoliyatini takomillashtirish.

**7-mavzu.“Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasi.****Reja:**

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining mazmun va mohiyati.
2. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining ahamiyati.

**AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI****1- mavzu: O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining g‘oyalari evolyusiyasi.****Reja:**

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasining tarixiy ildizlari va ularning turli tavsiflari.
2. Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyati tushunchasiga oid o'ziga

xos yondashuvlar. Fuqarolik jamiyatining antik paradigmasi.

3. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining paradigmalarini yaratilishi. G‘arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati paradigmaсинing rivojlanish an’analari.

## **2-mavzu. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlar.**

### **Reja:**

1. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi ilk qarashlar. O‘rta asrlarda fuqarolik jamiyati g‘oyalarining rivojlanishi.
2. Sharq sivilizatsiyasida yangi davrda fuqarolik jamiyati paradigmaсинing o‘ziga xosligi.

## **3-mavzu. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish strategiyasi.**

### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.
2. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot modellari.
3. Taraqqiyotning O‘zbek modelini yaratilishining siyosiy-ijtimoiy, tarixiy asoslari. Asosiy tamoyillari, mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining asosiy yo‘nalishlari.

## **4-mavzu. Fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi.**

### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o‘rni.
2. Ko‘ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.

3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.
4. Fuqarolarning o'zini -o'zi boshqarish organlarining o'rni.
5. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirilishi.

**5-mavzu. Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.**

**Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institatlarning tutgan o'rni.
2. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlarikengashlaridagi faoliyatini takomillashtirish.

**6-mavzu.“Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g'oyasi.**

**Reja:**

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g'oyasining mazmun va mohiyati.
2. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g'oyasining ahamiyati.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI AQLIY HUJUM METODI**

**Aqliy hujum** - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy xujum» metodi biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildi - rilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy xujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga ta -labalarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talaba - lar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobjiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va no - standart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy xujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g'oyalarni shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**Vazifasi.** “Aqliy xujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilli - ligini yo'qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

**Ob'ekti.** Qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini

bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllanti - radi) asqotadi.

**Qo'llanish usuli.** “Aqliy xujum” ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qay - tadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilin - maydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jixatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

«Aqliy xujum» metodi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


#### **«Aqliy xujum» metodining afzallik tomonlari:**

1. natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr-g'oyalarning shakl - lanishiga olib keladi;
2. talabalarning barchasi ishtirok etadi;
3. fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
4. talabalarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
5. talabalarda mavzuga qiziqish uyg'otish mumkin.

#### **«Aqliy xujum» metodining kamchilik tomonlari:**

- o'qituvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- o'qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

## «Aqliy xujum» metodining tarkibiy tuzilmasi



### «Aqliy xujum» metodining bosqichlari:


1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Talabalar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Talabalarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalari ma'lum belgilari bo'yicha guruhlenadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

### «Aqliy xujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

- a) Bildirilgan fikr-g'oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- b) Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalari, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
- v) Bildirilgan fikr-g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

## Mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va iboralar

Zamonaviy ta’lim vositasi tushunchasi , ta’lim vositasi turlari, ta’lim vositasini qo‘llash usullari



## Guruxlarda ish olib borish qoidalari

- ✓ O‘zaro hurmat va iltifot ko‘rsatgan xolda har kim o‘z do‘stlarini tinglay olishi kerak;
- ✓ Berilgan topshiriqga nisbatan har kim aktiv, o‘zaro hamkorlikda va ma’suliyathi yondashishi kerak;
- ✓ Zarur paytda g‘ar kim yordam so‘rashi kerak;
- ✓ So‘ralgan paytda har kim yordam ko‘rsatishi kerak;
- ✓ Gurux ish natijalari baholanayotganda hamma qatnashishi kerak;
- ✓ Har kim aniq tushunishi kerakki:
- ✓ O‘zgalarga yordam berib, o‘zimiz o‘rganamiz!
- ✓ Biz bir qayiqda suzayapmiz: yo birga ko‘zlagan manzilga yetamiz, yoki birga cho‘kamiz!

### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu.** O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

**Reja:**

1. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining predmeti, ob’ekti, maqsadi.
2. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining o‘quv, ilmiy, amaliy, tarbiyaviy vazifalari.
3. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining funksiyalari va boshqa ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda o‘ziga xos xususiyatlari.

**Tayanch tushunchalar:** Fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, huquq va erkinlik, xalq hokimiyati, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g‘oyalar.

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tushunchasi birgalikda XIX asrda paydo bo‘lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvori davlatning xohish-irodasiga bo‘ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalar bilan ifodalandi.

Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g‘oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g‘oyalari bilan mushtarakdir.

Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o‘zini o‘zi yanada takomillashtirishi omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, ancha uzoq vaqt davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi. Har bir davlatda bo‘lganidek, huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning barcha fuqarolarga va ular tashkil etuvchi nodavlat tashkilotlariga

nisbatan ustunligida va undan tashqarida davlatning tashqi siyosatni yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishda va mustaqilligida namoyon bo'ladi. Yetuk fuqarolik jamiyatiziz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

Totalitar davlatda xavfsizlikni ta'minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvori davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta'minlash faoliyatidan iborat bo'ladi, davlat tadbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish muammosi yuzaga kelmaydi.

Fuqarolik jamiyatining xavfsizligi (jamoat xavfsizligi) quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin:

- ijtimoiyadolat;
- davlat bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolarning va umuman jamiyatning huquqlari;
- qonuniylik tartibi;
- fuqarolarning iqtisodiy farovonligi;
- demokratik plyuralizm;
- jamiyatning ochiqligi;
- fuqarolik jamiyatining milliy jihatdan muayyanligi.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi. Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini – davlat ta'minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to'g'risida so'z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash,

erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda – uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o'rta sidagi farq muayyan asoslarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) inson huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilgani va qonun yo'li bilan mustahkamlanganidan, ularning egasi - inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin. Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo'lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;
- 2) dunyoda hali anchagina odamlar umuman fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo'limgan shaxslar, apatriidlar). Binobarin, ular rasmiy darajada fuqaro huquqlariga emas, balki inson huquqlariga egadirlar. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Shu sababli, uning asosiy tarkibiy qismlarini vazifalari qatoriga bu jarayon normal kechishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi institutlar faoliyati tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasiga tariflarning turli-tumanligi fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining murakkab, ko'p qirrali jarayen ekanligi bilan xarakterlanadi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo qilishning ustuvor yo'nalishlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Buni biz qonunchilikning demokratik tamoyillari, fuqarolik institutlarining huquqiy kafolati rivojlanishi, milliy g'oya mafkurasining shakllanishi hayotimiz va yashash tarzimizda muhim ahamiyat kasb etishida ko'ramiz. Birinchi Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida (2010 yil 12 noyabr) ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda ravnaq topishiga alohida e'tibor qaratib, **Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari** tamoyilni amalda to'liq tatbiq etishning aniq va ravshan qirralarini belgilab berdi.<sup>1</sup>

Birinchi Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, faqatgina biz tanlagai bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga

<sup>1</sup>Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – T.: O'zbekiston, 2010

erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha qo'yidagi xulosalar chiqarish mumkin: fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq davom etib kelayotgan murakkab tarixiy jarayondir. Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari qadimgi Yunoniston va Rimda namoyon bo'lgan vaqtidan boshlab yangi davrda shakllanish elementlari va xozirgi kunda bir butun tizim sifatida paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati g'oyasi insoniyatning antik davrdan beri davom etib kelayotgan tafakkuri maxsulidir.

Har qanday fan o'z mohiyatiga ko'ra umumbashariydir. Dunyoning barcha xalqlari katta-kichikligidan qat'iy nazar uning rivojiga turli xil darajada hissalarni qo'shgan. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi g'oyalar qarashlarni bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish xato yondashuvdir.

**Fuqarolik jamiyati fanining ob'ekti** – bu rivojlangan mamlakatlarda va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllanish va rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalardagi tub o'zgarishlarni ifodalaydi va bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga olib, unda fuqarolik jamiyatining huquqiy davlat bilan o'zar uyg'unlikda rivojlanish bosqichlari nazariy va amaliy nuqtai nazarlardan o'r ganiladi.

**Fuqarolik jamiyati fanining predmeti** – bu uzoq va bosqichma-bosqich tarzdagi tarixiy rivojlanish natijasidan iborat bo'lib, fuqarolik jamiyati shakllangan va rivojlangan oraliq davr – bir necha avlodlarning yangi jamiyat qurishdagi ishtiroki, jamiyatshunos olimlarning bu jamiyatni rivojlantirishga doir nazariy ishlanmalari, mamlakatda fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayonidan iboratdir.

**Fanni o'qitishdan maqsad** - pedagog kadrlarni innovation yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini

rivojlantirishdan iborat. Fanning vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- “Fuqarolik jamiyati” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- “Fuqarolik jamiyati” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integrasiyasini ta’minlash;
- O‘tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda siyosiy-tarixiy tajribalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “Harakatlar strategiyasi - O‘zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”, “Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti”, “Ilmiy va innovation faoliyatni rivojlantirish” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagog kadrlarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. **“O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi” fani** O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovation kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni asosiy

yo'nalishlarini qamrab oladi.

Hozirgi kunda fuqarolik jamiyatiga barcha e'tirof etadigan umumiylar ta'rif berish ancha qiyin, chunki bu hodisa bir jihatdan murakkab, ikkinchi jihatdan esa, uning amaliyoti, hayotda ro'yobga chiqish jarayoni davom etmoqda. Demak, bu ijtimoiy hodisaning yangi-yangi qirralari namoyon bo'laveradi.

Professor X.Odilqorievning fuqarolik jamiyatiga ta'rifi ham e'tiborga molik: "Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhitini shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlardan chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat"<sup>2</sup>.

Demokratik jamiyat – bu eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni esa shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi.<sup>3</sup>

Huquqshunos olim V.D. Perevalovning ta'rificha, "Fuqarolik jamiyati – bu konkret insonga o'z faoliyatini qaratadigan, huquqiy an'ana va qonunlarga, umuminsoniy ideallarga hurmat muhitini yaratadigan, ijod va tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta'minlaydigan, farovonlikka erishish, inson va fuqarolarning huquqlarini amalgalash imkonini beradigan, davlat faoliyatini chegaralash va nazorat qilishning mexanizmini samarali ishlab chiqadigan erkin demokratik huquqiy davlat mavjud bo'lgan jamiyatdir"<sup>4</sup>.

Jamiyat juda murakkab ijtimoiy tuzilma bo'lib, kishilar o'zaro munosabatlarining mahsulidir.

Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz. Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'tmishda oliy adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga

<sup>2</sup> Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. -T.:Sharq, 2002. -B.172.

<sup>3</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T.: O'zbekiston 1995. -B.262.

<sup>4</sup> Perevalov V.D. Grajdanskoje ob'estvo i pravovoe gosudarstvo. // Teoriya gosudarstvo i pravo. -M.: Norma, 2002. -S.95.

qo'yiladigan talab va bahoning a'losi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan. Biz tariximizdagi ana shu jihatlarni hisobga olmasak, qudratli, erkin, demokratik, davlat, fuqarolik jamiyatini qura olmaymiz. Farb sivilizatsiyasining fuqarolik jamiyati sari rivojlanishi ma'lum ijtimoiy o'zgarishlar, inqiloblar orqali amalga oshirildi. Bu jarayon faqatgina iqtisodiy ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga emas balki madaniy, g'oyaviy va ma'naviy o'zgarishlarga ham olib keldi.

"Fuqarolik jamiyati bu – o'zini o'zi boshqarishdir. Uning birinchi va asosiy tamoyili shu", "...o'zini o'zi boshqarish organlari-bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyati qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo'ladi"<sup>5</sup>.

Fuqarolik jamiyati - bu shunday jamiyatki, unda kishilar o'zaro bog'liqdirlar, bir birlari bilan mustaqil ravishda munosabatda bo'ladilar. Bunday jamiyatda ijtimoiy ma'naviy va madaniy hayotni ta'minlash, uni rivojlantirib avloddan - avlodga yetkazish davlat bilan jamoat birlashmalarining, shaxs bilan jamoatning munosabatlarini ma'lum darajada mustaqil olib borish orqali amalga oshiriladi. Bunday jamiyatda shaxs ijtimoiy munosabatlarda, o'zining shaxsiy xususiyatlarini yo'qotmasdan ishtirok etadi, har bir shaxs o'zligini namoyon qilib, faoliyatining shakl va turlarini erkin tanlaydi.

### **Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga:**

- 1) ko'ppatiyaviylik;
- 2) siyosiy hayotning va siyosiy institutning, mafkura va fikrlarning xilma – xilligi;
- 3) o'zini o'zi boshqarish organlari mavqeining balandligi;
- 4) jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalarining rolining kattaligi kiradi.<sup>6</sup>

Bunday jamiyatdagi ma'naviy hayot umumbashariy qadriyatlar asosida amalga oshirilganligi, insonning muqaddasligi, erkinligi, qonun oldida tengligi, ijtimoiy adolatning to'liq qaror topganligi bilan belgilanadi.

<sup>5</sup> Karimov I.A. Vatan ravnaqи uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9.-T.: O'zbekiston, 2001. B.317-322.

<sup>6</sup> X.Odilqoriev. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati.-T.: Sharq, 2002. –B.172-173.

“Demak, fuqarolik jamiyati-bu teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar va jamoalar manfaatlarini amalga oshirishga ko‘maklashadigan jamoat institutlarining tizimidir”.<sup>7</sup>

### **Nazorat savollari**

1. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va ob’ekti deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik jamiyati fanini asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Fuqarolik jamiyati fanining asosiy tushunchalari mazmuni to‘g‘risida qanday tasavvurlarga egasiz?
4. Fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy bosqichlarini yoritib bering.
5. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?

**2-mavzu: O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining g‘oyalari evolyusiyasi.**

#### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasining tarixiy ildizlari va ularning turli tavsiflari.
2. Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyati tushunchasiga oid o‘ziga xos yondashuvlar.

**Tayanch tushunchalar:** Avesto, Hadisi Sharif, sivilizatsiya, fuqarolik jamiyati, Fuqarolik jamiyati tushunchasining tarixiy ildizlari.

Ma’lumki, fuqarolik jamiyatining birinchi asosiy belgisi va xususiyati insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi hisoblanadi. “Avesto”da talqin etilishicha, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini, farovonlikni ta’minalash uchun ezgu fikr, shirin so‘z, berilgan va’daga amal qilishlik, foydali mehnat bilan shug‘ullanish va ijtimoiy faollik har bir insonning burchi va hayotiy faoliyati mazmunini tashkil etmog‘i zarur: “Ilohiy qonunga bo‘ysunadigan yaxshi qishi yaqin odamiga mehribon bo‘lishi, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganida ko‘maklashishga shaylik, kishilar baxt-saodati uchun yovuzlikka qarshi faol

<sup>7</sup> R.Qayumov O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. -T.: Adolat, 1998. –B.199.

kurashishga tayyor bo'lish, hamma bilan ahil va totuvlikda, birodarlikda yashashga intilishda namoyon bo'ladi. Inson fikran ham, xayolan ham hasadgo'y bo'lmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi hech qachon darg'azab bo'lmaydi va jaholatga berilmaydi, chunki johillik holatida u yaxshi niyatni yo'qotadi, burch vaadolatni unutib, nojo'ya harakatlar qiladi. Yaxshilik ta'limini va sadoqatini amalgalashirib... yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradiganadolatli qonunlarni amalgalashirsinlar”<sup>8</sup>.

Demak, zardushtiylik ta'limoti jamiyat a'zolarini doim yaxshilik va ezbilik qilishga da'vat etish bilan cheklanib qolmay, munofiqlik bilan qabilalar orasiga nizo soladigan har bir riyokorni qattiq qoralaydi, shu bilan birga, kishilarni hayotda ijtimoiy faollikka, “bir kam dunyo”ni takomillashtirish uchun kurashga undaydi. Zotan, Zardushtning el-yurt osoyishtaligi, jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyatning barqarorligi, har bir fuqaro o'z manfaati haqida emas, avvalo, jamoa a'zolari xususida qayg'urishi, ularning taqdirini o'ylashi haqidagi dono pand-nasihatlarni hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan:

“Durust odamlarning eng yaxshi fazilati yangi jahonni qurishga intilmoqdir. Tangri shomu sahar o'zgalarga yordam qo'lini cho'zadigan bandalarini yoqtiradi. O'zgalarni yaxshilikka yo'llay olgan odamlarnigina yaxshi odam, deyish mumkin. Tangri rostgo'ylarning nigohbonidir. Menga hamisha g'ayrat va shijoat baxsh et. Meni hamisha g'aflat uyqusidan yiroq tut. Qaerda ikki tan bir-birini qo'llasa, o'sha yerda ish yurishadi. Biz istaymizki, bu yurtda zulm ustidan adolat hamisha g'alaba qilsin”<sup>9</sup>.

Barcha insonlarga g'amxo'r bo'lish lozimligi haqida “Avesto”da shunday deyiladi: “Ilohiy qonunga bo'ysunadigan yaxshi kishi, yaqin odamga mehribon bo'lish, muhtojlik va xavfxatar ostida qolganda ko'maklashishga shaylik, kishilar baxtsaodati uchun yovuzlikka qarshi faol kurashga tayyor bo'lish, hamma bilan ahil va totuvlikda, birodarlikda yashashga intilishda namoyon bo'ladi”<sup>10</sup>.

<sup>8</sup> Boyoyev H., Hasanov S. “Avesto”da adolatli jamiyat g'oyalari// Fuqarolik jamiyati, 2004 y., 1-son 47-50 betlar.

<sup>9</sup> O'sha joyda.

<sup>10</sup> Boyoyev H., Hasanov S. “Avesto”da adolatli jamiyat g'oyalari// Fuqarolik jamiyati, 2004 y., 1-son 75-bet.

Markaziy Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan ojizlariga mehr-muruvvat ko'rsatish, yetim-esirlarga g'amxo'rlik qilish yangicha falsafiy, huquqiy zaminga ega bo'ldi. Zeroki, islom dini ta'limotini markaziy masalalaridan biri savob ishlar qilish, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, nochorlarga moddiy va ruhiy madad berishga qaratilgandir.

Qur'oni Karimda beva-bechora va miskin muhtojlarga yordam ko'rsatish har bir muslimnonning eng asosiy burchi ekanligi ko'rsatib qo'yilgan.

Qur'onda ehsonli, qo'li ochiq, bag'ri keng, muruvvatli, keng fe'lli bo'lish yuksak ma'rifat belgisi, deb qaraladi. Kimdakim odamlardan himmati, muruvvatini ayamasa, saxovat eshigini bekitmasa, bundan, eng avvalo, uning o'zi katta naf ko'radi, ma'naviy qoniqish hosil qiladi. Qur'onning Hadid surasida: "Ey, mo'minlar, qachon sizlar payg'ambarlar bilan sirlashmoq, suhbatlashmojni istasangizlar, suhbatlaringiz oldidan (kambag'al-miskinlarga) biron xayri-sadaqa taqdim etinglar" deya ko'rsatilgan<sup>11</sup>.

Muhammad payg'ambarimizning ibratlari, yurishturishlari va pand o'gitlaridan iborat Hadisu Sharif ham bevabechoralarga rahmdillik, shafqat ko'rsatish kerakligi haqidagi g'oyalar bilan sug'orilgandir.

Hadisi Sharifdag'i "Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring" deb zikr etilgan hikmat ham musulmonlarni kambag'al, kam ta'minlangan kishilarni ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

Fuqarolik jamiyatining ikkinchi xususiyati – inson huquqlarining ustuvorligidir. "Avesto"da Axura Mazda yaratgan qonunlarga kishilar qat'iy amal qilsa, haqiqat (adolat) va ezgulik jaholat va yovuzlik ustidan g'alaba qozonib boraveradi, degan fikr quyidagicha bayon qilinadi: "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Axura Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman"<sup>2</sup>. Demak, "Yaxshi fikr", deganda zardushtiylik qonunida yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurash, baxt-saodat uchun harakat qilish, ahillik

<sup>11</sup> Qur'oni Karim. T., Cho'lpon., 1992 y., 248- bet.

va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish kabi niyatlar sofligi tushunilgan.

“Avesto”da kishilarning o‘zaro munosabatlarida berilgan va’daning ustidan chiqish, majburiyati va qasamiga sodiq qolish odatiy qonun hisoblangan.

Qonun yaratuvchilar va kohinlar juda katta ahamiyat bergan narsa – berilgan so‘zning muqaddasligi edi. So‘z – “asha” haqiqatning hayotiy ifodasi sifatida hurmatga sazovor. Ikki xil majburiyat tan olinadi. Birinchidan, tantanali ravishda qasam ichish (varuna – hind-eron so‘zi “ver” – bog‘lamoq so‘zining o‘zagidan), unga ko‘ra, kishi biron harakatning sodir etish yoki etmaslik majburiyatini olgan. Ikkinchidan, bu bitim yoki shartnoma hisoblanib, mitra Hind-oriyon so‘zi “mey” – (“almashish” mazmunida) deb atalgan, unga ko‘ra, tomonlar o‘zaro biron narsa to‘g‘risida kelishgan. Ikkala holda ham qabul qilingan qasamda yashirinchcha kuch bo‘lib, bu kuch ilohiy deb hisoblangan. U odamga hamkorlik qiladi, o‘z so‘zida qat’iy turgan kishini qo‘llab-quvvatlaydi, so‘zida turmagan kishini esa jazolaydi. Qasam ichib, ahd qilgan kishi o‘z ahdini bajarmagan yoki uni buzgan hollarda haqligini isbotlash uchun ordaliya o‘tkazib sinalgan. Uning juda ko‘p turlari mavjud edi. Ular: o‘t bilan sinash, ko‘kragiga qizigan temirni qo‘yish kabilar. Agar so‘z qasam to‘g‘risida bo‘lsa, odatda, suv bilan, agar shartnomaga oid bo‘lsa, o‘t bilan sinalib, aybdor yoki gumon qilinuvchining o‘zi haqligini isbotlashiga imkon berilgan. Unga binoan, ayblanuvchi o‘z yonida turgan kishining oyoqlarini ushlab turgan holda suvga sho‘ng‘igan. Sho‘ng‘ish vaqtida “Varuna haqiqatdan meni himoya qil” deb aytgan. Ana shu lahzada kamondan o‘q uzilgan, shu payt chopar kishi o‘q ketidan yugurgan, agar u o‘qni aybdor suv ostida o‘lgunga qadar keltirsa, qasam xudosi Varuna aybdorni afv etdi va oqladi, deb hisoblangan.

O‘t bilan sinashning shartlaridan biri shunday bo‘lganki, aybdor yoki gumon qilinuvchi yonayotgan ikki qator palyonlar orasidagi tor yo‘lakdan yugurib o‘tishi lozim bo‘lib, agar tirik qolsa, shartnoma xudosi Mitra uni aybsiz bildi yoki avf etdi, deb hisoblangan. O‘t bilan sinashda aybdorning yalang‘och ko‘kragiga eritilgan mis qo‘yish shakli ham qo‘llanilgan. Shuningdek, qaynab turgan suyuqlik (yog‘ yoki suv) bilan sinash, muz-suv bilan sinash, marosimlarni o‘tkazish uchun tayyorlangan o‘simgilik shirasini ichirib sinash, daryo suviga uloqtirib sinash kabi

usullar bo'lgan.

Zardushtiylik ta'lilotida inson huquqlarining poymol etilishiga qarshi kurashishga da'vat qilinadi: "Inson haqiqat va adolatga intilsin, odamzod baxtli-saodatlari yashashga haqli, insonni hayotdan, haq-huquqidan mahrum qilishga hech kimning haqqi yo'q!"<sup>12</sup>.

Shariatda ham so'z va qasamning qudrati kuchli hisoblangan. Hadisu Sharifda "Ollohga shirk keltirmoq, ota-onaga oqlik qilmoq, odam o'ldirmoq va yolg'on qasam ichmoq-gunohi azimlardandur"<sup>13</sup> – deb ko'rsatilgan va yana: "Ollohga va'da berdingizmi, unga vafo qilingizlar va Ollohni o'zingizga kafil qilib qat'iy qasam ichdingizmi, uni buzmangizlar"<sup>14</sup> deb uqtirilgan.

Shariatda qonun ustuvorligi, har bir jinoyatchining o'zi jinoiy qilmishiga yarasha jazolanishi yoki bir so'z bilan aytganda, payg'ambarlarimizning "Al qasosu minal haq" – "qasos haqdir", ya'ni har qanday jinoyat jazoga sazovor, degan hadislariga asosan ish tutish g'oyasi ilgari surilgan.

Shariatning turli mahzablari uchun umumiyligi bo'lgan ta'lilotlarga ko'ra, jiddiy hisoblangan har qanday gunohjinoyat jazoga loyiqlik xatti-harakatlar deb hisoblangan va belgilangan tartibda jazolangan. Bu holat o'z navbatida qonun ustuvorligidan, insonlarning haq-huquqlari shariat tomonidan himoya qilinganligidan dalolat beradi.

Fuqarolik jamiyatining uchunchi xususiyati – odamlarning xususiy mulkka ega bo'lishidir.

Qadimgi davrlarda odamlarning xususiy mulk-chorva, ishlab chiqarish vositalari, quroq-anjomlari, yashayotgan uylari, dehqonchilik yerlari, o'tloqlar va hokazolar hisoblangan. Mulkchilik huquqi amalda egalik va foydalanish huquqi bilan cheklanmagan. U boshqarish huquqini, ya'ni boshqa shaxs egaligiga topshirish va shartnoma asosida egalik qilishni o'z ichiga olgan. Boylik xususiy mulk ma'nosini anglatgan. Xususiy mulk – "vis" (urug' jamoasi)ga ziroatchilik

<sup>12</sup> Avesto. Asqar Mahkam tarjimasи. "Guliston", 1999 yil, 2-son 18-56 betlar.

<sup>13</sup> Hadis, 4-tom, T., - 1997 y., 527 bet.

<sup>14</sup> Hadis, 4-tom, T., - 1997 y., 261bet.

bilan mashg'ul va birbirlariga qarindosh bo'lgan kamida 15 ta oila kirgan. Jamoaning xususiy mulki, deyilganda esa hovli-joy, qal'aqo'rg'onlar, yaylovlar, ekin yerlari, kanallar va boshqa boyliklar nazarda tutilgan.

“Har kuni ikki marta suv oqib o'tadigan, sug'oriladigan bir bo'lak yeri, podasi, ayvonli hovlisi, 15 yoshli xotini bo'lgan... hovli-joyida olov yonib turadigan, xotini bo'lgan, ko'p farzandli, o'z mehnati bilan oilasini boqib yurgan, yerni yaxshi parvarish qiladigan, molga yaxshi qaraydigan odam begunohdir”<sup>15</sup>.

Islom dinida ham mulk huquqi abadiy va cheklanmagan bo'lib, shariat uni barcha choralar bilan qo'riqlagan. Mulk huquqi harbiy o'lja yo'li bilan, fuqarolik bitimini tuzish, merosga olish, xizmat evaziga hokimiyatni egallah, ish faoliyati bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan. Shariat huquqiga ko'ra, yer mulkining quyidagi shakllari: davlat yerlari, xususiy kishilarga tegishli yerlar, qishloq jamoa yerlari, diniy tashkilotlarga taalluqli yerlar (yoki vaqf yerlari) mavjud bo'lgan.

Shariatda mulk huquqi muqaddas hisoblangan va unga tajovuz qilganlar tan jazolari bilan ta'qib qilingan. Birinchi marta o'zgalar mulkiga daxl qilish – o'g'rilik qilganlik uchun o'ng qo'lining bosh barmog'i qoldirilib, to'rtta barmog'ini kesishga hukm qilingan. Ikkinci marta o'g'rilik uchun chap qo'lining tirsagi o'rtasidan qirqilishi talab etilgan. Uchinchi marta esa umrbod zindonga tashlash, to'rtinchi marta o'g'rilik uchun qatl etish jazosi nazarda tutilgan.

Fuqarolik jamiyatining to'rtinchi xususiyati odamlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishidir. Shaxsning fuqarolik faolligi uning davlat va jamiyat ishlariga ongli, manfaatdor va oqilon-a-tanqidiy munosabati, o'z manfaatlariga ham, jamiyat manfaatlariga ham daxldor bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishga ta'sir ko'rsatishga intilishdir.

“Avesto”da davlat va jamiyat boshqaruving hududiy va siyosiy-huquqiy tizimi haqida ma'lumotlar berilgan. “Varzanapati” diniy mafkura va davlat boshqaruvida jamoa a'zolarining faol ishtirok etishiga mas'ul bo'lib, u jamoa ijtimoiy-siyosiy faoliyati, diniy-huquqiy va xo'jalik ishlari bilan bog'liq

<sup>15</sup> Maxmudov T. “Avesto” haqida//Guliston, 1998 y., 5-son 21-26 betlar.

masalalarni hal etgan. “Nmanapati” oila jamoasi uchun diniy boshliq hisoblangan. “Vis” ham urug‘ jamoasi boshlig‘i sifatida ijtimoiy-huquqiy vazifalarni bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollar orasida saylanib, urug‘ jamoasi boshlig‘i sudya, kohin va jamoa rahnamosi hisoblangan. “Dahiyu sastar”lar bir necha qabilalar yashaydigan ma'muriy hududda, viloyatlarda boshliq vazifasini bajargan. Ular tomonidan chiqarilgan har qanday nizom va qonunlar jamoa a'zolari uchun majburiy kuchga ega bo'lib, jamoa ahli davlat boshqaruvida faol qatnashgan. Islomda ham kishilarning jamiyat va davlat hayotiga faol ishtirok etishi lozimligi g'oyasi ilgari surilib, barcha qonunga itoat etishiga chaqirilgan: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Kimki menga itoat qilsa, Olloh taologa itoat qilgan bo'lur, kimki menga osiylik qilsa, Olloh taolloga osiylik qilgan bo'lur, kimki amirimga itoat qilsa, menga itoat qilgan bo'lur va kimki amirimga osiylik qilgan bo'lsa, menga osiylik qilgan bo'lur”<sup>16</sup> deb da'vat qilganlar. Yana bir boshqa hadisda esa “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Musulmon odam gunoh bo'lmaydirgan amru farmonga, ul o'ziga yoqadirmi yo yo'qmi, qulqoq osib itoat qilmog'i lozimdur, agar gunoh ishga buyurilgan ersa, na qulqoq solmoq va na itoat etmoq lozimdur”<sup>17</sup> deb uqtiradilar.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ilk bor fozil jamoani vujudga keltirishga doir o'z ilmiy izlanishlari bilan fuqarolik jamiyatni nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Alloma “Fozil shahar odamlari qarashlari” asarida jamiyat (“inson jamoasi”)ning kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Har bir inson o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliv darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga eg bo'lish uchun kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, shu sabali yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiatini bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishmoq uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib

<sup>16</sup> Hadis, 4-tom, T., - 1997 y., 394 bet.

<sup>17</sup> Qur'oni Karim. T., Cho'lon., 1992 y., 544 bet.

beradi. Shuning uchun inson ko‘paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdi, natijada inson jamoasi vujudga keldi”. Fozil jamoalarni tasniflash va ularni barpo etish yo‘llarining Forobiy tomonidan ishlab chiqilishi oqibatida jahon siyosiy fikrlar tarixida fuqarolik jamiyatining asosiy unsurlarini tahlil etishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari markazida ham inson uning qadr qimmatini joyiga qo‘yish g‘oyasi turadi. ‘Men o‘z saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday voqeа va ishni tuzuk itoat qilish urf-odatga e’tibor berish men uchun katta ahamiyatga ega edi. Madomiki bir hukmdor butun umri davomida ot ustida o‘tirib o‘ziga tegishli bo‘lgan katta iqlimning har tomonda harakatda bo‘lib bir nuqtada turib qolmas ekan o‘zining keng qamrovi undan itoat qilishga amin bo‘lishi kerak. Bunday ishonchga faqat shariat qonunlari va urf-odat qoidalarini amalga oshirish orqali muyassar bo‘la oladi. Mening mamlakatim turli sohalarda qonunga qat’iy amal qilinadigan bo‘lsa, men o‘zimni o‘sha yerda hozir turganday sezardim shariat va urf qonunlarini nazarda tutgan holdagini odamlar sening ishlaringga ishonadilar va uni jonu dil bilan bajaradilar. Men hamisha askarlarimni qonunga itoat qilish ruhida tarbiya qildim, qonun buzuvchilarni jazosiz qoldirmadim”.

Amir Temur sultanatida 2 turdagи sud tizimi muhim o‘rin tutgan. Biri “rivoyat qoziligi” deb atalib u fuqarolarning xo‘jalik va maishiy turmush tarziga oid ishlarni tartibga solgan. Ikkinchisi “shariat ishlari qoziligi” deb nomlangan bo‘lib uni shayxul islomi boshqargan. Bu diniy ishlarning to‘g‘ri bajarilishi va fuqarolarning unga doir murojaatlarini tartibga solgan. Amir Temur davlatidagi 2-sud tizimi shaklan bizning ikki tuzilmaga bo‘linib faoliyat ko‘rsatayotgan bugungi sud tizimiga fuqarolik ishlari va jamiyat ishlari sudiga o‘xshab ketadi.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida fuqarolik jamiyatining o‘z davriga xos asoslari bayon qilinadi. Amir Temur davlatining ixtiyoriyli ko‘rilmasini fuqarolarning 12 tabaqasi tashkil qilgan va har bir tabaqa kishilarning o‘z kasb hunar mavqeи hamda vazifalarga ega bo‘lgan:

1. Sayyidlar, ulamo mashoyihlar, fozil kishilar

2. Ishbilarmon donishmand odamlar
3. Xuftuy, tarkidunyo qilgan kishilar
4. Nuyonlar, amirlar, mingboshilar ya'ni harbiy kishilar
5. Sipoh va raiyat
6. Maxsus ishonchli kishilar
7. Vazirlar, sarkotiblar
8. Hokimlar, tabiblar, munajjimlar, muhandislar
9. Tavsil va hadis omillari
10. Ahli hunar va san'atchilar
11. Sufiylar
12. Savdogar va sayyohlar tashkil etgan.

Uning taqdiri esa uch narsa: podsho, xazina va askar hal qiladi. “Temur tuzuklari” asarida ham inson uning qadr qimmatini joyiga qo'yish g'oyasi turadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, tom ma'nodagi oddiy odamlarning fuqarolik jamiyati belgilarini urug' va qabilaga birlashgan jamoa hayotida, umumiy ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishida, xususiy mulkka ega bo'lishida, qabilaning jamoaning umumiy manfaati bilan bog'liq bo'lган turli masalalarning Oqsoqollar Kengashida muhokama etilishida ko'rishimiz mumkin. Biz yuqorida tahlil qilishga uringan qadriyatlarning barchasi yurtimizda fuqarolik jamiyati belgilari qadim davrlardan shakllanganligidan dalolat berish bilan bir qatorda, ularning aksariyati, hozirda ham dolzarb bo'lib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish ishiga xizmat qilmoqda.

### **BBB jadvali**

	<b>Mavzu savollari</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni istayman</b>	<b>Bilib oldim</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1.	Fuqarolik jamiyati g'oyasining kelib chiqishi tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat edi?			

### Nazorat savollari:

1. Fuqarolik jamiyati g'oyasining kelib chiqishi tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat edi?
2. X–XII asrlarda Markaziy Osiè mutaffakirlarining ta'limotlaridagi adolatlilik jamiyati haqidagi qarashlarni izohlang?
3. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining yangi talqinlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting?
4. Jadidchilik xarakatining g'oyaviy me'rosida fuqarolik jamiyati haqidagi konseptual qarashlarni sharhlang?
5. Fuqarolik jamiyati haqidagi zamonaviy konseptual masalalarining g'oyaviy va mental xususiyatlarini ochib bering?

### 3-mavzu. Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining - yuqori bosqichi.

#### Reja:

1. G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Janubiy- Sharqiy Osiyo mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari.

**Tayanch so'zlar:** G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlari, dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari, ma'naviy-axloqiy inqiroz, hamkorlik siyosati, hozirgi davrda AQSh, Fransiya va Germaniyada NNTning faoliyati, Janubiy Sharqiy Osiyoda fuqarolik jamiyati institutlari.

**G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.** Fuqarolik jamiyati bir vaqtning o'zida muayyan g'oya va mafkura, aniq asosga ega bo'lgan voqelikni qamrab olmasada uning amaliy xarakteri bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki bunday o'z-o'zini institutsional boshqaruv shakli bir tomonidan, shaxsiy erkinlik, o'zaro munosabatning turi va predmetini erkin tanlashga imkon beruvchi ijtimoiy

munosabatlarning aniq sohasi va qizqishlarni sub'ektiv qondirish usuli sifatida talqin qilinsa, boshqa tomondan, yuzaga kelgan aniq voqeа-hodisaga o'ziga xos kuchli va mustaqil shaxs nuqtai nazaridan yondoshish imkonini beruvchi ijtimoiy tizim sifatida rivojlanib boradi. Masalan, AQShda fuqarolik jamiyatining dastlabki rasmiy institutlari diniy uyushmalar, maktablar va turar joyi bo'yicha havfsizlik va tartibni ta'minlovchi ijtimoiy guruhlar sifatida faoliyat olib borgan. G'arbiy Yevropada esa bundan farqli ravishda fuqarolik jamiyati institutlari iqtisodiy sohada o'z-o'zini namoyon qilib, bu yangi va eski tipdagi, oldingi uyushmalar va korporativ birlashmalar asosida tashkil topgan mustaqil bozor tashkilotlari sifatida faoliyat yuritgan. Germaniyada fuqarolik jamiyati institutlarining o'ziga xos faoliyati gildiyada o'z aksini topib, o'z vaqtida hunarmand va savdogarlarning o'z-o'zini himoya qilish va shaharlarni boshqarishga o'ziga xos ta'sir o'tkazishning dastlabki shakli sifatida qaror topgan. O'z navbatida Yevropaning Florensiya, Paduya va boshqa shaharlari o'zini gildiya shahar (townsmen) sifatida shakllantirgan<sup>18</sup>.

Hozirgi davrda rivojlangan G'arb davlatlarida faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari demokratik siyosiy faollikni nazarda tutgan holda davlat ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bunda siyosiy partiyalar ta'siri va o'z-o'zini boshqarish institutlari faolligi tobora ortib boraveradi. Ya'ni shaxs erkinligi oliy qadriyat sifatida baholanadi. Masalan, AQSh, Buyukbritaniya, Avstraliyada mazkur prinsip sabab davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

**Hozirgi davrda Germaniya va Buyuk Britaniyada NNTning faoliyati va ularni rasmiylashtirish tartiblari.** Kuchli davlat an'anasi Sharq davlatlari kabi ko'pgina G'arb mamlakatlariga ham xos, ayniqsa Germaniya davlat boshqaruvtizimida bu holatga bevosita guvoh bo'lishimiz mumkin. Ya'ni Germaniya ijtimoiy-siyosiy hayotida davlatning roli jamiyat hayotini barqarorlashtirishdagi ahamiyati kuchli hisoblanadi. Shu boisdan ham davlat tuzilishiga alohida e'tibor

18

.., 2001. – . 608.

qaratiladi. Bunda milliy birdamlik g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham shaxsiy erkinlik davlat qudratiga bog'lab talqin etiladi. Unga ko'ra davlat kuchli bo'lsagina, shaxs qiziqishlari va erkinligini himoya qila oladi. Ya'ni, davlat tartibi g'oyasi, milliy birdamlik shaxs erkinligidan ham ustun qo'yiladi. Bunday xokimiyat boshqaruvi tizimi Germaniyadan tashqari Fransiya va Yaponiyaga mamlakatlariga xosdir. Shuningdek, Germaniyada fuqarolik jamiyatni sohasida va uning faolligini oshirishda fuqaroga nodavlat sektorni rivojlantirishning muhim maqsadli ob'ekti sifatida e'tibor qaratiladi. Germaniyada muhim siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning hal etilishida hamda insonning qonuniy huquq va erkinliklari himoya qilinishidafuqarolik jamiyatni institutlari muhim rol o'ynaydi. Bunda davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining ta'minlanishi fuqarolik jamiyatni institutlarining muhim vazifasi deb qaraladi. Davlat tizimlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishida nohukumat tashkilotlarining rolini kuchaytirish davlatning jamiyat bilan samarali o'zaro aloqada bo'lishi mexanizmlarini mustahkamlaydi<sup>19</sup>.

Germaniyada fuqarolarning davlat organlari faoliyati to'g'risida erkin axborot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab jarayon sifatida baholanadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonlar axborot erkinligiga oid huquqiy mexanizmlar asosida tartibga solinadi. Chunki bugungi kunda ommaviy axborot vositalari xodimlarining zamonaviy axborot bozori sharoitida jamiyat oldidagi mas'uliyati hamda javobgarligini yanada chuqranglashiga xizmat qiluvchi zarur mexanizmlarni ishlab chiqish muhimdir. Shuning uchun ham 2003 yilning mayida Germaniyada oila, keksa fuqarolar, ayollar va yoshlar ishlari bo'yicha qo'mitaning kichik bo'limi (Fuqarolik faolligi bo'yicha kichik qo'mita) tashkil etilgan. Uning vazifasiga Germaniyaning fuqarolik jamiyatini tadqiq etish tavsiyalarini bajarishga ko'maklashish hamda o'z yo'nalishidagi qonun loyihalari va tashabbuslarini muhokama qilish kiradi.

Shuningdek bu mamlakatda aholining davlat, tijorat va jamoat tashkilotlariga

19

..... : ..... : ..... , 2001. – 416 .

bo'lgan ishonchi «uchinchi sektor»ni rivojlantirishning muhim mezonlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonidagi «birinchi» va «uchinchi» sektorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni institusionallashtirish har ikki tomon uchun foydali hisoblanadi. Bunday hamkorlik siyosatini belgilab beradigan hujjatlar davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishning muayyan bosqichi uchungina foydali bo'ladi. Ularda davlat hokimiyatining fuqarolik jamiyati roliga nisbatan yangicha nuqtanazari aks etadi va uchinchi sektor tashkilotlari bilan samarali o'zaro hamkorlik asoslari yaratiladi<sup>20</sup>.

Germaniyada «uchinchi sektor» fuqarolik jamiyati, faol fuqarolik va birdamlik hissi – yaqin yaqingacha faqat siyosatshunoslarni qiziqtirgan tushunchalar endilikda barcha ijtimoiy-gumanitar soha vakillari tomonidan muhokama qilinmoqda. Buning siri nimada? Nima sababdan bugun uning ahamiyati bunchalik oshgan? Birinchidan «uchinchi sektor» – fuqarolik jamiyatining tashkiliy infratuzilmasi – uzoq yillar davomida rivojlanuvchi iqtisodning muhim tarmog'iga aylandi. Masalan, birgina Germanianing o'zida 1990 yildan 1995 yilgacha u 30% o'sdi. Bundan ma'lum bo'ladiki, uchinchi sektor mehnat bozori uchun alohida ahamiyat kasb etadi. 90 yil o'rtalariga kelib Germaniya aholisining tahminan 2,1 mln. (ish bilan banlarning 5%) notijorat sektorda bo'lgan. Boshqa mamlakatlarga nisbatan Germanianing «uchinchi sektori» o'zining iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra o'rtacha hisoblanadi. Unchalik katta bo'limgan boshqa G'arb mamlakatlari - Niderlandiya, Irlandiya, Belgiya – bu jihat bo'yicha 10% gacha chiqqan xolos. Sababi davlat va uchinchi sektor o'rtasida bevosita va uzluksiz hamkorlik bu mamlakatlarda Germaniya darajasida rivojlantirilmagan. Germaniyada davlat va «uchinchi sektor» o'rtasidagi subsidarlik tamoyilining qo'llanilishi beg'araz yordam bilan chegaralanadi.

Iqtisodiy jihatdan Germaniyada «uchinchi sektor» davlat moliyaviy resurslariga bog'liq. Beg'araz fondlar va ularning davlat tomonidan

moliyalashtirilishi uchinchi sektorning davlatga bog'liqligini oshiradi. Va bu jihat ayniqsa boshqa davlatlar bilan solishtirilganda yaqqol namoyon bo'ladi. Katta moliyaviy yordam olishda ifodalanuvchi siyosiy partiyalar va davlatga yaqinlik «uchinchi sektor» elementlarini fuqarolik jamiyatidan tashqarida bo'lishiga va kvazidavlat sektoriga kirishiga olib keladi. Biroq «uchinchi sektor» ezgu ishlar homiyligidan iborat emas. Tashkilotlarda o'tgan vaqt uchun to'lanmaydigan pul miqdori to'liq bandlikdagi millionlab odamlarga to'lanadigan pulga teng bo'lgan. Jamoatchilik asosidagi faoliyatning manbai bo'lgan birdamlik hissi fuqarolik jamiyati mavjudligining muhim asosi hisoblanadi. Oxirgi tadqiqotlar ko'rsatishicha, Germaniyada 14 yoshdan katta bo'lganlarning 34% jamoatchilik asosida («uchinchi sektor» tashkilotlarida - 80%) faoliyat olib borib, bunga haftasiga o'rtacha 5 soat vaqtini sarflaydi.

Oxirgi uch o'n yillikda Germaniyada fondlar soni tobora oshib bormoqda. Ularning faoliyati qonuniy asos bilan mustahkamlanadi. Ular orasida yangi turdag'i fuqarolik yoki shahar fondlari bo'lib, bunda tashkilotlar va alohida jismoniy shaxslar hamkorlik asosida mahalliy miqyosda u yoki bu muammoni bartaraf qilish yo'lida birlashadi. Germanyaning yangi yerlarida ham ijobjiy o'zgarishlar kuzatilmoxda. 1990 y. Sharqiy Germaniyada haqiqiy «portlash» bo'lgan, bunda 80.000 to 100.000gacha jamiyatlar tashkil topgan. Germaniyada tuzilgan tashkilotlar o'ziga xos jihatni ijtimoiy-siyosiy jihatdan markaziy sohalar – atrof-muhitni saqlash va xalqaro faoliyat jabhasidagi dinamikasi bilan bog'liq. «Uchinchi sektor» tashkilotlari a'zolarining tobora oshib borishi uning odamlar hayotiga kirib borganligidan dalolat beradi. Qolaversa, «uchinchi sektor» ko'p jihatdan jamiyatning o'z-o'zini tashkillashtirish va innovatsiyalarga nisbiy layoqatidan dalolat beradi. Ya'ni bu faoliyatdagi yangilik asosan hukumat faollik ko'rsatmagan sohalarda yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan bu hodisani ijobjiy baholash mumkin. AQShda kuzatilayotgan "Bowling alone" – ijtimoiy faollik halokati fenomeni Germaniya jamiyatiga xos emas.

Qiziqishlarni ifodalash funksiyasi bunda qanday amal qiladi? degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Eng yangi jarayonlar shuni ko'rsatadiki,

«mavzu advokatlari» deb nomlanuvchi atrof-muhitni saqlash va xalqaro faoliyat tashkilotlariga pulni sarflash va ularda jamoatchilik asosida ishtirok etish modaga aylanyapti. «Mavzu advokatlari»ga o'xshashlarning mavjudligini, «uchinchi sektor»ning davlat funksiyalariga ta'sir qilishi yoki davlatning amal qilish chegarasini ko'rsatishga qodirmi? Germaniya misolida biz buning qarama-qarshi, ammo umuman olganda ijobiy natijalarini ko'ramiz. Aynan yangi va o'ziga mustahkam ishonchi bo'lgan, davlat otalig'idan tashqarida vujudga kelgan tashkilotlar o'ziga xos fuqarolik jamiyatidan dalolat beradi.

G'arb mamlakatlarida hamkorlik siyosati asosida notijorat sektorining jamiyatni rivojlantirishga hissasi e'tirof etiladi undan so'ng esa tomonlarning umumiy rejali hamda davlat va jamoat birlashmalari tomonidan hamkorlik prinsiplarini amaliy mexanizmlardan foydalangan holda amalga oshirish bo'yicha aniq chora tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Shuning uchun ham bunday hamkorlik siyosati odatda ikki tomonning birgalikdagi sa'y-harakatlari va muzokaralari natijasi mustahkamlanib boriladi. Ular turli shakllarda namoyon bo'ladi: ikki tomonlama rasmiy bitimlar masalan, Buyuk Britaniya davlati va fuqarolik jamiyatni o'rtaida tuzilgan shartnomalar, hukumat tomonidan davlat dasturlari sifatida qabul qilinadigan «de-fakto» bitimlari (Xorvatiya hamkorlik dasturi) yoki Parlament (Estoniya fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi) yoxud tomonlarning majburiyatları ifoda etilgan bir tomonlama bayonetlar (Vengriyaning fuqarolik jamiyatiga nisbatan davlat strategiyasi) shaklida qabul qilinishi mumkin.

Buyuk Britaniya davlati va fuqarolik jamiyatni o'rtaida tuzilgan shartnomalar va bayonetlar uchinchi sektor uchun ham, davlat sektorining o'zi uchun ham juda muhim sanaladi. Chunki ular, birinchidan, fuqarolik jamiyatni tashkilotlariga o'z faoliyatlarining jiddiy qo'llabquvvatlanishini, demak jamiyat manfaatlari yo'lida faoliyat sohalarini kengaytirish imkonini bersa, ikkinchidan, davlat o'z siyosatiga fuqarolik jamiyatni bilan muloqot qilish va sheriklikni qo'shib, bunday sheriklik yordamida o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishiga imkon beradi. Bunday muvaffaqiyatli hamkorlik siyosatining asosiy omili – o'zaro manfaatlarga rioya etish kafolatlari, «boshqa tomonning maqsad va vazifalariga» hurmat va ishonchga

asoslanadi. Biroq davlatning nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish to'g'risida muzokaralar olib borish va siyosiy hujjat qabul qilishida mashkur tashkilotlarning tashabbuskor bo'lishi tabiiy va ehtimollik darajasi ham yuqori hisoblanadi, lekin Xorvatiya va Vengriya misollari ushbu masalada davlat hokimiyyati ham manfaatdor bo'lib, o'zi mazkur jarayon tashabbuskori bo'lishi va uni muvaffaqiyatli yakuniga yetkazishi ham ko'zda tutilgan.

Shu ma'noda hamkorlik to'g'risida siyosiy hujjat qabul qilinishining o'zi yetarli emas. Shuning uchun mazkur shartnomaning 15-moddasida uni «yakunlash emas, balki ilk nuqta» deb ataladi. Shartnomada esa «jarayon» deb nomlanadi. Bu bilan agar kelishilgan matn qabul qilishga muvaffaq bo'linmasa ham muzokaralar jarayonidan har ikki tomon yutishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday sog'lom munosabatlar tez-tez o'tkaziladigan uchrashuvlar, konstruktiv munozaralar, faol hamkorlik, shuningdek o'zaro yon bosishlar va bir-birini tushunishga intilishlar asosida shakllanadi. Shunday bo'lsa-da, notijorat sektor uchun ham, hukumat uchun qonun kuchiga ega deb hisoblangan va majburiyatlar ijrosining aniq muddatlari ko'rsatilgan hujjatning qabul qilinishi eng maqbul variant bo'lardi. Biroq hatto uchrashuvlar, muhokamalar, muzokaralar jarayonining o'zi – agar uning natijasida davlat tuzilmalari bilan o'zaro anglashuvni yaxshilash asosida bo'lsa ham – ulardan kutilganidan ko'proq manfaat kelishi ham mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Buyuk Britaniyada muayyan toifaga taalluqli bo'lgan hamkorlikning institusional shakllaridan tashqari tasniflash oson bo'limgan alohida funksiyalarga ega institusional shakllar ham mavjud. Bunday ixtisoslashtirilgan tuzilmalarga misol sifatida, Buyuk Britaniyaning Xayriya ishlari bo'yicha komissiyasini ham keltirishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, mazkur xayriya ishlari bo'yicha komissiya qonun asosida Angliya va Uelsdag'i xayriya tashkilotlarining muvofiqlashtiruvchi va ro'yxatga oluvchi organi sifatida ta'sis etilgan. O'z nabatida bunday xayriya tashkilotlari Buyuk Britaniya ijtimoiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Lekin ularga qo'yiladigan qonuniy talablarga rioya etilishini ta'minlash uchun faoliyatlarini tartibga solish talab etiladi. Bu tashkilotlar sidqidildan va qonun doirasida ish ko'rishi, shaxsiy

manfaatni emas, balki ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlashlari, mustaqil bo'lishlari, vasiylik kengashlarining a'zolari tashqaridan biror noqonuniy ta'sirsiz qarorlar qabul qilishlari, xayriya tashkilotlarining o'zlari tomonidan boshqaruvdagagi hamma jiddiy holatlar yoki qasddan qilinadigan huquqbazarliklarga nisbatan tegishli choralar ko'riliishi talab etiladi. Komissiya o'z faoliyatini xayriya ishlari to'g'risidagi qonunchilik ijob etilishini ta'minlagan, xayriya tashkilotlari samarali huquqiy, buxgalteriya va boshqaruv tizimlari doirasida yaxshiroq faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini bergen holda amalga oshiradi. Bunda komissiya jamiyatda, iqtisodiyot va qonunchilikda ro'y berayotgan voqealarni kuzatib boradi, samarali boshqaruvni va jamiyatga hisob berishni ta'minlashga ko'maklashadi. U qonunchilik va amaliyot masalalari bo'yicha axborotni tarqatadi va maslahatlashuvlar o'tkazadi, xayriya tashkilotlarini ro'yxatga olish jarayoniga ko'maklashadi, qonun buzilishi holatlari bo'yicha o'z tekshirishlarini olib boradi, boshqa muvofiqlashtiruvchilar (prokuratura, polisiya) bilan hamkorlik qiladi, shuningdek xayriya tashkiloti mulki saqlanishi uchun uning faoliyatiga aralashishi ham mumkin. Xayriya ishlari bo'yicha komissiya har yili Parlament va Ichki ishlar vaziriga hisob beradi, o'zining yillik hisobotlarini e'lon qiladi. Shu bilan birga, komissiya butun jamiyat manfaatlari yo'lida faoliyat olib boradigan mustaqil organ hisoblanadi<sup>21</sup>.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, siyosiy hujjatni muhokama qilishning markazlashtirilgan tartibi uni qabul qilishga olib kelishi shart emas, lekin ushbu jarayondagi ko'p sonli oshkora munozaralar jamoatchilikning siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etishiga misol bo'la oladi. Masalan, Buyuk Britaniya amaliyoti bitimlarni amalga oshirish va unga rioya etish yo'lida ikki tomon uchun ham to'siqlardan biri – ijtimoiy sektor tomonidan bitimlar to'g'risida yetarlicha xabardorlikning yo'qligi yoki tushunmovchilik mavjudligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham hujjat matnini tayyorlashga ekspertlarni jalb etish hamda uni muhokama etish va kelishishda jamoatchilikning keng ishtirok etishini ko'zda

---

<sup>21</sup> Schmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns Hopkins U.P., - 1997. – P.239-262.

tutadi. Bundan tashqari, G'arbiy Yevropada «sektorni anglash», ya'ni juda ko'p notijorat va nohukumat tashkilotlarni yagona sektor sifatida (masalan, jamoatchilik yoki uchinchi sektor kabi) tasavvur etish – yangi hodisa bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda hali qaror topmagan. Hamkorlik institutlari ularga ehtiyoj bo'lgan ayrim sohalarda (odatda, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ekologiya yoki xalqaro yordam sohalarida) rivojlangan. Shunga qaramasdan ayrim sohalarda shakllangan ba'zi prinsiplar va amaliyot umume'tirof etilish darajasigacha ko'tarilgan hamda butun nodavlat notijorat tashkilotlari sektoriga va umuman hatto fuqarolik jamiyatiga tarqalgan. Ana shunday universal prinsiplarga, masalan subsidiarlik prinsipi, axborotdan foydalanish va manfaatdor guruhlar bilan maslahatlashuv (ijtimoiy muloqot) kiradi.

Fransiya va Germaniyada joylarda ijtimoiy sheriklik loyihibalarini rejaliashtirish, muvofiqlashtirish, amalga oshirish va moliyalashtirish uchun mas'uliyatning katta qismi hududiy, okrug va munisipal ta'lif (o'zini o'zi boshqarish organlari) zimmasiga yuklatilgan. Biroq, Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSh va qator boshqa rivojlangan mamlakatlarda davlat organlarining OAV bilan o'zaro hamkorligi alohida bazaviy qonunlarda tartibga solinmagan. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, aksariyat Yevropa mamlakatlaridagi ijtimoiy sheriklik instituti ijtimoiy-mehnat sohasida iqtisodiy manfaatlar kelishuvi va ijtimoiymehnat nizolarni tartibga solish bo'yicha davlatning vositachilik roli bilan ishga yollanuvchi va ish beruvchi o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar tizimi sifatida shakllangan<sup>22</sup>.

**Hozirgi davrda AQSh, Fransiya NNTning faoliyati va G'arb mamlakatlari fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik siyosati.** XX asr oxiri – XXI asr boshida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Yevropaning qator mamlakatlari nohukumat sektori bilan hamkorlikka oid yagona davlat siyosatini ishlab chiqish bo'yicha tegishli chora tadbirlarni amalga oshirdi. Bu esa davlat va nohukumat sektorining ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar

---

<sup>22</sup>Helmut K. Anheier, Stefan Toepler, International Encyclopedia of Civil Society, Springer-Verlag New York Inc., New York 2010.

rivojlanishga oid dolzarb masalalarini hal etishdagi sa'y-harakatlari va resurslarini birlashtirishga keng imkoniyat yaratib berdi. Oqibatda esa fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtirokini faollashtirish, davlatni aholiga ayrim xizmatlarni ko'rsatish yukidan qisman ozod qila oladigan hamkorlikning mexanizmlarini yaratishga erishildi. Yevropada davlat institutlarining NNTlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning muhimligi bir qator xalqaro hujatlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, BMTning 1968 yildagi Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi rezolyusiyasi (1297), «Yevropada davlat boshqaruvi masalalari bo'yicha oq kitob» (25 iyul, 2001 yil), «Yevropada nohukumat tashkilotlar mavqeining asosiy prinsiplari» (16 aprel, 2003 yil) va boshqa shu kabi halqaro xujjalarda NNTlarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi roliga alohida ahamiyat qaratiladi, muloqot va maslahatlashuv orqali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yilishi hamda muayyan davlat ko'magi shakllarini taqdim etish mexanizmlarini joriy etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Rivojlangan G'arb davlatlarida faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari zamonaviy fuqarolik jamiyati modelini yaratish, uning davlat boshqaruvidagi samarali ishtirokini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunday zamonaviy model asosida jamiyat va davlat boshqaruvida fuqarolik institutlarining o'rni hamda ahamiyatini mustahkamlash, jamoatchilik tuzilmalari va davlat organlarining ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorligini yanada rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, davlatning nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorligi ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga hamda fuqarolik jabhasida yuz berayotgan jarayonlarning chuqur tizimli tahlil qilib borishga keng imkon beradi. Masalan, Fransiyada davlat nohukumat tashkilotlarini hukumat siyosatini shakllantirishga faol jalb qiladi, vazirlik va idoralar huzurida tashkil etilgan kengashlar faoliyatning boshqa shakl va usullari orqali fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'yadi. Shuning bilan bir qatorda Fransiyada fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiyotini monitoring qilish usullarini muntazam ravishda yangilab borilishi, jamoat birlashmalarining mamlakat hayotida tobora ortib borayotgan o'rni masalalarini o'rganish hamda ularning davlat boshqaruvi organlari bilan hamkorligini tahlil qilish uchun qulay imkoniyatni yaratib

bermoqda. Bunda Yevropada istiqbolni belgilash va xavfsizlik instituti hamda Fransiya va Yevropa Ittifoqining fuqarolik jamiyati taraqqiyoti masalalari bilan shug'ullanuvchi boshqa tahliliy markazlarining samarali faoliyati e'tiborga molikdir<sup>23</sup>.

AQShda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi dolzarb masalalarni yechishda davlat organlari va NNTlarning o'zaro hamkorlik faoliyatini takomillashtirish shakl-tamoyillari va yo'nalishlariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga bu mamlakatda davlat hokimiyati organlari faoliyati, ular tomonidan qonunchilik aktlarining bajarilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini olib borish mexanizmi va tajribasi ham o'ziga xos ravishda takomillashtirilgan<sup>24</sup>. Shuningdek, AQShdagi davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro ijtimoiy hamkorligi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarining takomillashuvi davlat rivojlanishining dolzarb masalalari yechimidanafaqt aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshiradi, balki davlat organlari uchun umumdavlat miqyosidagi dolzarb masalalarni yechish imkoniyatlariga sharoit yaratadi. Bunday jiddiy strategik masalalarni ishlab chiqishda Xalqaro munosabatlar Milliy demokratik instituti, Djon Xopkins Universiteti qoshidagi fuqarolik jamiyatini o'rganish Markazi, Notijorat huquqlar Xalqaro markazi va boshqa shu kabi ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda nodavlat tashkilotlarining o'rni katta hisoblanadi. AQShda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish tizimi ancha rivojlangan.

**Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institatlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari.** Yaponiyada fuqarolik jamiyatini aniq belgilarini namoyon etuvchi qarashlar asosan XIX asrning oxirlaridan boshlab ilgari surilgan. Yaponiyada fuqarolik jamiyati institatlari faoliyati asosan 1960 yildan boshlab rivojlangan bo'lsada aynan 2006 yildan boshlab rivojlangan G'arb davlatlaridan farq qiladigan o'ziga xos fuqarolik jamiyati modelini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

---

<sup>23</sup>

<sup>24</sup>O'Connell, Brian. Civil Society: The Underpinnings of American Democracy. Medford, Mass:Tufts University Press, 1999.

Yaponiyada rivojlantirilayotgan fuqarolik jamiyati «ongli va mas'uliyatlari faoliyat yuritish tamoyili»ga asoslangan. Shuningdek, «davlatiqtisod (bozor)–fuqarolik jamiyati modeli» ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yaponiyada joylardagi davlat hokimiyati organlari NNTlar orasida ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan turli dastur va loyihalarni e'lon qilishni ko'zda tutuvchi tanlovlarni o'tkazish huquqiga ega.

Hozirgi davrda Yaponiyada fuqarolik jamiyati institutlari asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Ijtimoiy sarmoyalarni shakllantirish va ko'paytirish;
- Aholiga nisbatan qo'llanilayotgan ijtimoiy xizmatlarni kengaytirishni qo'llab quvvatlash;
- Jamiyatdagi turli maqsadli faoliyat bilan shug'ullanayotgan muayyan guruhlarni qo'llab quvvatlash va mehnat uyushmalari faoliyatini kengaytirish;
- Yaponiyada hududiy assotsiatsiyalar faoliyatini kuchaytirish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga erishish;
- Yaponiyada mavjud siyosiy tizim va partiylar faoliyatini takomillashtirish;
- Davlat va bozor munosabatlaridan mustaqil bo'lgan iste'molchilar jamiyatini rivojlantirishga erishish;
- Atrof-muhitni muxofaza qilish, axoli salomatligini yaxshilash va mavjud demografik muammolarni oqilona hal etish;
- Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va ekologik muammolarni tadqiq etuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirish va h.k.

Yaponiyadan farqli ravishda Xitoyda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning retrospektiv xususiyatlari va siyosiy islohotlar tadriji bu hududa yashovchi insonlarni fuqarolik madaniyatini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Bu yerda eng muhim narsa shuki Xitoyda fuqarolik jamiyati tizimida "bozor" va "ijtimoiy" sohani o'zaro aloqadorlikda bosqichma-bosqich rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoyda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish asosan 1949 yildan boshlab asosiy bosqichni bosib o'tgan bo'lsada, avvalo fuqarolik jamiyati institutlarining dastlabki tuzilmalari faoliyati asosida Xitoy ma'muriy

tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratilgan. 1989 yildan boshlab Xitoyda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati keng miqyosda tashkil etilgan.

Xitoyda fuqarolik jamiyatining rivojlanishida bir qancha to'siqlar mavjud, ulardan biri – xitoy madaniyatida fuqarolik jamiyati an'analarining oldin mavjud bo'limganligi. Buning yechimi, kaliti Xitoy «xalq jamiyatini» – «fuqarolik jamiyatiga» – «xalqni» – «fuqaroga» almashtirish kerak. Xitoyning siyosiy jihatdan rivojlanishi fuqarolarda fuqaroviylar ong va fuqarolik madaniyatini tarbiyalash, siyosiy tizimni isloh qilish va demokratiyani rivojlantirish bilan xarakterlanadi. Xitoy sotsiologlarining fuqarolik jamiyati tushunchasiga munosabati ham o'ziga xosdir. Chunki bu mamlakatda fuqarolik jamiyati nodavlat va davlatdan tashqari tashkilotlar sifatida jamoaviy o'z-o'zini boshqarish asosni tashkil qiladi. Ularning fikricha, fuqarolik jamiyati – asta-sekin qudratli davlatning bozor va ijtimoiy munosabatlar sohasidan chetlashtirilishi, fuqarolik jamiyatining muhim komponentlaridan biri fuqaroviylar-ijtimoiy tashkilotlar kabi shakllarinishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Xitoyda fuqarolik jamiyati shakllanishi tarixi – buyuk va qudratli davlatning iqtisod va ijtimoiy munosabatlar sohasidan chetlashishi, fuqarolik jamiyatining yana bir muhim komponenti, fuqaroviylar-ijtimoiy tashkilotlarning paydo bo'lishi va rivoji bilan bog'liq. Shu sababli, bugungi xitoy olimlari Xitoyda siyosat va ma'muriy boshqaruvida yangi tendensiyalarni shahar va qishloq joylariga tadbiq qilish orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirish mumkinligini alohida ta'kidlab o'tmoqdalar<sup>25</sup>.

Xitoyda mavjud bo'lgan barcha shahar va mikrorayonlarni jamoat tashkilotlari sayi-harakatlari bilan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham bu tashkilotlarning demokratik o'z-o'zini boshqarish asoslarining yaratishdagi o'rni beqiyos hisoblanadi. Oxirigi o'n yilliklarda Xitoy siyosiy boshqaruvida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususiy sektor va nodavlat tashkilotlarning xitoyliklar hayotida tobora ahamiyati oshib borayotganligi sababli davlat siyosiy boshqaruvi sohasida jiddiy o'zgarishlar sodir

---

<sup>25</sup> : . . . : . . . / . . . . - . ; , 2014. – 224 .  
 ( <sub>2</sub> . . . ) : . . . / . . . . - . ; , 2004. – 369 .

bo'lmoqda. Xususan, partiya va hukumat rahbarlarining demokratik asosda saylanishi tartibi XXR hududlarida samarali davlat boshqaruvini amalga oshirishga ko'maklashmoqda. O'z navbatida Xitoy davlati boshqaruvida qayta aloqa tamoyilini amalga oshirishga harakat qilinmoqda. Bunda alohida e'tibor har nima bo'lgan ham davlatning umumiy siyosiy barqarorligiga erishishga qaratilmoqda<sup>2</sup>.

Uzoq Sharqda konfusichilik ana'analarini saqlab qolgan va milliy qadariyatlar tizimiga qat'iy amal qiladigan davlat Janubiy Koreya hisoblanadi. Bu davlatda fuqarolik jamiyati jamoaviylik tamoyiliga asoslangan holda rivojlantirib borilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy-siyosiy barqaorlikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan bir qatorda davlat va jamiyat munosabatlarini modernizatsiya qilishda muhim o'rinni egallaydi. Janubiy Koreyada fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida liberal demokratik tamoyillarni ana'naviy jamiyat boshqaruvi me'yordi bilan uyg'un holda tadbiq qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning bilan bir qatorda bu mamlakatda rivojlanayotgan fuqarolik jamiyati institutlari "xukumat-fuqaro-huquq" modelidan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi.

Insoniyat tarixida katta hududlarni egallagan rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda kichik davlatlar ham mavjud. Singapur aynan shunday shahar-davlat hisoblanadi. Singapur qishloq xo'jaligi yoki biror tabiiy resurslariga ega emas, ammo suvni ham import qilishga majbur bo'lgan Singapur o'z mahsulotlarini Rossiyadan uch barobar ko'p miqdorda eksport qiladi. Siyosatshunos N. Gardele bu haqida shunday yozadi: «Ehtimol butun yer yuzida Singapurchalik tartiblilik, yuqori texnologiyalar, boy o'rtacha sinf, madaniyat va tolerantlik bilan XXI asrga qadam qo'yishga tayyor shahar-davlat bo'lmasa kerak. Hali 1965 yilda ham Singapur iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan Chili, Argentina va Meksika bilan bir darajada turgan edi, endilikda esa bu mamlakatda ishlab chiqarishi aholi jon boshiga yuqoridagi mamlakatlardan 5 barobar ko'p. Ichki yalpi mahsuloti — 136 milyard dollarni tashkil etadi. Daromadi bo'yicha aholi jon boshiga 45 ming dollardan ziyodni tashkil qilayotgan bu mamlakat jahonda yetakchilik qilmoqda. Xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan o'tkazilgan so'rovlar natijasida

Singapurda korrupsiya va jinoyatchilik ko‘rsatkichi jahonda eng quyi darajada ekanligi aniqlangan. Singapur respublikasi – qirq yillik milliy suverenitetidan keyin rivojlanayotgan emas, rivojlangan mamlakat maqomini olgan Janubiy Sharqiy Osiyoradagi yagona mamlakatlardan biri hisoblanadi<sup>26</sup>.

Hozirgi davrda Singapur – yuqori farovonlikdagi hayot tarziga ega yirik ishlab chiqarish markazidir. Bu yerda siyosiy jarayon uch ketma-ket bosqich bo‘yicha rivojlanib borgan. Birinchi bosqichda avtoritar rejim joriy etilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda esa iqtisodiy rivojlanishga urg‘u berilgan, shuningdek jiddiy siyosiy masalalar ayni shu bosqichda hal etilgan. Uchinchi bosqichda – ishlab chiqarish modernizatsiyasi amalga oshirilgan va siyosiy tizim yanada takomillashtirilgan.

Siyosiy jarayoning asosiy ishtirokchisi sifatida davlat, fuqarolik jamiyat, siyosiy partiya va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligi bu davlatda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Singapur davlatida ijro hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat ustidan nazorat o‘rnatgan. Chunki aynan davlat vazirliklar orqali muhim strategik qarorlarni qabul qilish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalar ustidan nazoratni amalga oshirish va monopoliya huquqlaridan foydalanadi. Hukumat va jamiyat bilan vositachi sifatida aynan siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi. Singapurda Yevropa namunasi asosida ko‘p partiyaviylik va xalq harakati ustunlik qiladi. Singapurda barcha partiyalar konstitusion-huquqiy rasmiylashtirilgan va qonuniy maqomga ega bo‘lib siyosiy jarayon va demokratiyaning ajralmas atributi hisoblanadi<sup>27</sup>.

Singapur davlatining keyingi rivoji jamiyatni demokratlashtirish bilan bog‘liq. Oxirgi yillarda bu yerda demokratiyani takomillashtirish davlat strategiyasi aniqlab olindi. Bular quyidagi islohotlarni amalga oshirishda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi:

- jamiyatning ijtimoiy yaxlitligini mustahkamlash;
  - yagona singapur millatini shakllantirish;
  - iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim tizimini modernizatsiyalash;

<sup>26</sup> : . . . ( , , , , ).

- korrupsiya bilan kurash.

Mazkur yo'nalishlar demokratik jamiyat qurishning asosiy sharti hisoblanadi. Davlat bilan birga siyosiy tuzilma tashqarisida shakllanuvchi fuqarolik jamiyati bu davlatda katta o'rinni tutadi. Singapur hukumati demokratik, biroq o'ta markazlashgan va qat'iy boshqariluvchi davlat doirasida xalq mandatini saylovlar orqali qo'lga *kiritib borgan*. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot esa demokratik qadriyatlarning shakllanishiga asos bo'lgan, hukumat tepasiga yangi siyosiy yetakchilar avlodining kelishi bu davlatda o'ziga xos fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga sharoit yaratib berishi mumkin<sup>28</sup>.

Singapurda samarador davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda quyidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilgan: **Birinchidan**, hukmron partiya hanuz yirik siyosiy partiyaligicha qolmoqda. Chunki u turli sohalarda davlat boshqaruvidagi noyob tajribasiga ega. **Ikkinchidan**, iqtisodida bozor tamoyillar amal qiladi, biroq davlat asosiy xalq xo'jaligi tarmoqlarini boshqaradi va nazorat qiladi. **Uchinchidan**, boshqaruv organlarining, davlat muassasalariga eng munosib kadrlarni to'g'ri tanlashi va taqsimlashi samarali natijalarni bermoqda. **To'rtinchidan**, puxta o'ylangan ta'lim tizimi ijtimoiy mobillikning muhim omili sifatida xizmat qilib qabul qilinan qarolarning yuqori professionallik darajasini ta'minlangan. **Beshinchidan**, milliylik masalasining hal etilgan va etnik diskriminatsiya yo'q, etnik teng huquqlilik jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida qaror topgan. **Oltinchidan**, ma'naviy-axloqiy asos sifatida, mamlakat siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi – insoniy munosabat, muomala, tartib-intizom va o'zarokelishuvga katta e'tibor qaratilgan. **Yettinchidan**, Singapurning iqtisodiy rivoji va boshqa ijtimoiy muammolarning hal etilishi omma siyosiy hayotini faolashtirgan va mahalliy o'z-o'zini boshqarish, zamonaviy parlamentarizmni rivojlanishiga asos bo'lgan. Siyosiy barqarorlik o'z navbatida samarali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan<sup>29</sup>.

Davlat iqtisodiyot sohalarini keng miqyosda qamrab olgan bo'lsada bu

<sup>28</sup>Toponymics: A Study of Singapore's Street Names. — Singapore: Eastern Universities Press, 2004.

<sup>29</sup>B. Desker and M. N. M. Osman. S Rajaratnam on Singapore: from ideas to reality. — Singapore: World Scientific Publishing, 2006.

mamlakat jahon hamjamiyatidan uzib qo'yilmagan. U boshqa mamlakatlar va umuman xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Bu mamlakat mana bir necha o'n yillardan beri o'z yo'lidan borish va bu yo'lidan qaytmaslik tamoyiliga qattiq amal qiladi. Bu yo'lning mazmunmohiyati – jamiyatning konkret-tarixiy sharoitini, milliy, diniy, madaniy xususiyatlarini hisobga olish; iqtisodiy taraqqiyotga an'anaviy axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda erishishdan iborat.

Singapur ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, yaqin orada uningijtimoiy-siyosiy hayotida biror bir jiddiy o'zgarish yuz berishi amri mahol. Chunki hukumat tuzilmalaridagi o'zgarishlar asta-sekin, shakllanib bo'lgan va bunday o'zgarishlar siyosiy tizimga dahl qilmagan holda amalga oshirilgan. Hukumat rahbarlarining hukumat tuzilmalaridagi o'zgarishlarni ko'pchilik aholining hurmat va e'tirofiga sazovor bo'lgan an'anaviy siyosiy institularni saqlab qolish bilan birgalikda amalga oshirishi, mavjud hukumat faoliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlanishiga sabab bo'lmoqda.

### **Nazorat savollari.**

1. G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining paydo bo'lishidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar.
2. AQShda fuqarolik jamiyati institutlarining o'ziga xos faoliyati.
3. Germaniyada davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro munosabati.
4. Fransiya, AQSh va qator boshqa rivojlangan mamlakatlarda davlat organlarining OAV bilan o'zaro hamkorligi.
5. Xitoyda davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro xamkorlik siyosati.

### **4-mavzu. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish strategiyasi.**

#### **Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.

2. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot modellari. Taraqqiyotning O'zbek modelini yaratilishining siyosiy-ijtimoiy, tarixiy asoslari. Asosiy tamoyillari, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari.

**Tayanch tushunchalari:** Strategiya, konsepsiya, konseptual,rivojlanish, taraqqiyot, rivojlanish, rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot modellari.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rinn egallaydi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylanmoqda.

Xo'sh, strategiya nima? U xalqning maqsadlarini qanday ta'minlaydi? Tanlagan maqsadlarning istiqbollari nimalarda namoyon bo'ladi?

Strategiya — bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika — strategik rahbarlik va boshqaruvi jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob'ektning mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat — bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko'rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu umidlari yo'g'rilgan g'oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo'limganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo'ladi. Aynan shu omillar ma'lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Strategiyani amalga oshirish eng mas'uliyatli jarayon. Agar u real vaziyatni to'liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo'lsa, uning muvaffaqiyati ta'minlanadi. Mabodo teskari bo'lsa, unda turg'unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto'g'ri tahliliy ma'lumotlar, xulosalar, kutilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalana olmaslikdir. Strategiyani baholash va nazorat qilish strategik rejelashtirishni mantiqiy yakunlovchi omili bo'lib hisoblanadi. U hodisalarining qayta aloqalanishini ta'minlash jarayonida strukturaviy bo'g'lnardagi bog'lanish imkoniyatlarini tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zaruratda strategik rejalarни o'zgartiradi.

Davlat strategik rejalarini aniq va o'zgarmas tamoyillarga bo'ysundirilishi muhim. Ular islohotlarning bir maromda, izchil yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, rahbar o'z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma'lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog'i, bundan tashqari, improvizatsiya qilmog'i, quyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ

yondashuvlarni tashkil etishi lozim. Mazkur tamoyillar oldin qabul qilingan qarorni o'zgartirish ehtimoli yoki o'zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, qayta ko'rib chiqish imkoniyatini berishi zarur.

Strategik dastur va rejaning uyg'unligi hamda turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog'liqligi muvaffaqiyatning kafolati. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bo'g'inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo'lim rejalarining kelishuvi bilan ta'minlanadi. Ayni paytda strategiyani amalga oshirish imkoniyatlarini tug'diradi. Strategik boshqaruva jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilishi lozim.

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past sur'atlariga, shaxsiy mas'uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan o'zgartirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, strategik yo'nalishlarni belgilashning mavhum va noma'lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga erishiladi.

Istiqlol maqsadlarni qo'ygan davlatlarning aksariyati milliy strategik muvaffaqiyatlarni YaIMning o'sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida, deb qaraydi. Yaqin o'tmishda davlatning birlamchi vazifalari hosildorlikni oshirish, oltin-neftni ko'paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Albatta, ushbu omillarni inkor etmagan holda bugun O'zbekistonda milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarolarning g'oyaviy e'tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligini ta'minlash asnosida amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Strategik maqsadlarning aynan inson kapitaliga va u orqali adolatlil qonunlarning, faol ijtimoiy institutlar harakati tashkil etilishiga qaratilayotganligi bejizga emas. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning tamal toshi mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa, xalqning davlatga bo'lgan munosabatini o'zgarayotganligida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi davlatning bosh maqsadi sifatida strategik yo'nalishlar belgilanmoqda. Ular avvalo, rivojlantirilayotgan ijtimoiy sohalarda o'z ifodasini topmoqda. Yoshlarga munosib ta'lim berish, zamonaviy kasb-hunarlar bilan qurollantirish, aholining salomatligini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida o'z tasdig'ini topdi.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o'zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokomotiv vazifasini ham bajaradi. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ob'ektiv tahlil qilish, o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishslash mexanizmlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilishni talab qiladi.

Davlatning harakatlar strategiyasi yetaklovchi lokomotiv kuchi — bu davlat va uning organlari. Islohotlarning garovi va kafolati hokimiyatning samarali faoliyati bilan bog'liq hodisa. U boshqaruva mahorati bilan uzoqqa mo'ljallangan maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qiladi, aholini safarbar etadi, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va uni odilona taqsimot qilish vazifalarini amalga oshiradi. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmsandan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo'lmaydi. Modernizatsiya o'z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruva usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko'tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib

keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezidentimiz parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalarini belgilaydi.

Boshqaruvsda adolatli davlat idora tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari — ikkinchi uzviy bog'lanuvchi muhim tamoyil ta'minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud — oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi-yomoni, foyda-ziyonini belgilab beruvchi ma'naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan ko'ra bunyodkorlik qilish afzal bo'ladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning izchil amaliyotini joriy etishga qaratilmoqda.

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi, shubhasiz, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini

modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovasion texnologiyalarining tatbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni amalga oshiradi. Natijada mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongingin in'ikosi. Fuqarolar qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. U, o'z navbatida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rirlarning paydo bo'lishiga, aholining real daromadi va shunga muvofiq turmush darajasining o'sib borishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» farmoyishi qabul qilindi. Hujjat Prezidentning rasmiy saytida e'lon **qilindi**.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sон Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o'rirlarda Harakatlar strategiyasi deb yuritiladi) mamlakatning davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlarni boshlab berdi.

Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining (keyingi o'rirlarda Davlat dasturi deb yuritiladi) tasdiqlanishi strategik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini amaliy ro'yobga chiqarishning boshlang'ich mexanizmi bo'ldi.

Dastlabki sarhisoblar davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlarining Davlat dasturini samarali amalga oshirishga qaratilgan kuchlari, shu jumladan, xorijiy mutaxassislar va xalqaro ekspertlarni faol jalgilgan holda chinakam jipslashganligini ko'rsatdi.

Hozirgi kunda Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 15 ta qonun va 700 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, **davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida** zamonaviy talablar hamda ustuvor yo'nalishlarni inobatga olgan holda 16 ta vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tuzilmasi, vazifa va funksiyalari qayta ko'rib chiqildi, 20 ta davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi.

**Sud-huquq tizimi tubdan qayta ko'rib chiqildi.** Sud hokimiyatining yagona oliv organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan ma'muriy sudlar tashkil etildi.

Ichki ishlar organlari tizimi isloh qilinib, ularning asosiy faoliyati fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga — «Xalq manfaatlariga xizmat qilish»ga yo'naltirildi.

**Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida** soliq tizimi isloh qilindi, halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq ta'tillari berilishi nazarda tutildi.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida 13.339 ta loyiha amalga oshirildi, 2,1 trln. so'm kredit o'zlashtirildi, 10 ta erkin iqtisodiy zona, 5 ta kichik sanoat zonasi tashkil etildi, «Peugeot» va «Citroyon» brendi bilan yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish bo'yicha zavod barpo etilmoqda.

**Ijtimoiy sohada** faqatgina joriy yilning birinchi yarmida 2,7 ming km. avtomobil yo'llari qurildi va ta'mirlandi, 84.300 ta ish o'rni yaratildi.

2017–2020 yillarda shaharlarda energiya jihatdan samarador arzon ko‘p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturi amalga oshirilmoqda, uning doirasida 50 286 ta xonadondan iborat 1 136 ta ko‘p qavatli uylarni, bundan tashqari, namunaviy loyiha asosida qishloq joylarida 75 ming turar joylarni qurish mo‘ljallangan.

**Millatlararo totuvlikni ta'minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish sohasida** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi.

Yevropa Ittifoqi va 21 ta xorijiy mamlakat bilan savdo-iqtisodiy, investisiya, texnologiya va moliyaviy-texnik sohalarda 22 ta «yo‘l xarita»lari tasdiqlandi.

«Taraqqiyot strategiyasi» markazi tomonidan boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning borishi haqida aholi, fuqarolik jamiyati institatlari va xalqaro jamoatchilikni keng xabardor qilish ishlari amalga oshirildi. Joylarda 6 mingga yaqin uchrashuvlar, ommaviy axborot vositalarida teleko‘rsatuv va chiqishlar tashkil etildi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Hozirgi kunda Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.
2. Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasiga qaratilgan qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.
3. Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan Millatlararo totuvlikni ta'minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish sohasiga qaratilgan qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

#### **5-mavzu. Fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi.**

##### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.

**Tayanch tushunchalar:** fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari, uchinchi sektor.

**Fuqarolik jamiyati** – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir. Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir. Kuchli fuqarolik jamiyati – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat. Uchinchi sektor - dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi). Demokratik institutlarni rivojlantirishdan bosh maqsad- ko'pchilikni mumkin qadar jamiyat qurilishiga jaib etish, ularni o'z taqdirlari, o'z kelajaklarining to'laqonli egalariga aylantirishdan

iboratdir.<sup>30</sup> Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar: xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; ijara asosida ishlovchi jamoalar; hissadorlik jamiyatlari; moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar; ishlab chiqarish korporatsiya, konsernlari va birlashmalari; tadbirkorlar uyushmalar (palatasi) va boshqalar.

Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar: oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta'lim-tarbiya muassasalari (maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari); jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; mustaqil OAV; diniy tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ixtiyoriy ko'ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshqalar.

Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar: siyosiy partiyalar; ijtimoiy-siyosiy harakatlar; inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar.

Fuqarolik jamiyati institutlari xuddi shu xususiyatlari bilan, bir tomonidan, kuchli davlatning shakllanishida yetakchi rol o'ynasa, ikkinchi tomonidan davlatning ko'pgina funksiyalarini o'z zimmasiga olish orqali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish jarayonining vujudga kelishida, yanada aniqrog'i, kuchli jamiyatning shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, kuchli davlat deganda, uning majburlov ishlatish usullari bilan jamiyatni boshqarishi haqida emas, balki davlatning mustahkam iqtisodiy asosga ega bo'lish, ichki va tashqi siyosatni olib borishda xalq manfaatlarini himoya qila olish, jamiyatda xavfsizlikni, barqarorlikni, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash hamda demokratianing umum e'tirof etgan prinsiplarini shakllantira olish kuch-qudratiga egaligi tushuniladi. Aholining nodavlat va jamoat tashkilotlari orqali hokimiyatni boshqarishda faol ishtirok etish imkoniyatining vujudga kelishi kuchli jamiyat

<sup>30</sup>

: . .

. - .: , 1998. - . 102.

mezoni hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining mohiyat va mazmunini ham xalq tomonidan boshqariladigan sharoit va uning reallikka aylanishi tashkil etadi. Kuchli jamiyat kuchli davlat negizida shakllanadi va hukumatning mamlakat ichkarisidagi ko'pgina faoliyati cheklanib, u fuqarolar qo'liga o'tadi va ularni davlat faoliyatini nazorat qilishi to'liq ta'minlanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- aholini turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etadi;
- fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;
- ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;
- milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkorি hisoblanadi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi.

Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslari

Fuqarolik jamiyatining mohiyatini nima tashkil qiladi, u qanday jamiyat? Eng umumiy tarzda lo'nda ta'rif beriladigan bo'lsa, fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan holi bo'lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Hozirgi davrda falsafiy, siyosiy va yuridik adabiyotlarda fuqarolik jamiyatini ta'rif va tavsif etishga faol harakat qilinmoqda. Bu ta'riflardan ba'zilarini talqin etaylik.

Fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil va undan holi munosabatlar va vositalar tizimi bo‘lib, u shaxs hamda jamoalarning ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi tarzida ta’riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko‘pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro‘yobga chiqariladi. Biroq bu shaxslarning ijtimoiy hayotdan ajralib qolganligini, begonalashtirilishini anglatmaydi.

Fuqarolik jamiyati xususiy mulkchilikka keng yo‘l beruvchi va unga asoslanuvchi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, erkin iqtisodiy faoliyatga zamin yaratuvchi shart-sharoitga tayanadi. Aynan xususiy mulkchilik muhiti va munosabatlari qaror topgan jamiyatda shaxsning mulkiy mustaqilligi, iqtisodiy faoliyat yuritishdagi erkinligi ta’milanadi. Xuddi shu asnoda shaxs davlat hokimiyatiga nisbatan mustaqil mavqeni egallaydi. Davlat xususiy hayot sohasiga, shaxs va tashkilotlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashmasligi lozim.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yaratishga katta hissa qo‘sghan nemis faylasufi Gegel, bu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan. U ikki asosiy prinsipni ajratib ko‘rsatgan: birinchidan, shaxslar o‘z xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar; ikkinchidan, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa kimsaga bog‘liq bo‘ladi.

Siyosiy nuqtai nazardan baholaganda fuqarolik jamiyatidagi siyosiy tizim va siyosiy boshqaruvning mazmun-mohiyatini huquqiy davlatchilik ifoda etadi. Boshqacha aytganda, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy mohiyatini, siyosiy shaklini tashkil etadi. Bu ikki hodisaning o‘zaro munosabati shakl bilan mazmunning o‘zaro aloqadorligini aks ettiradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, fuqarolik jamiyati to‘la ma’noda mavjud bo‘lishining shak-shubhasiz sharti huquqiy davlatning mavjudligidir. Va aksincha, huquqiy davlat

faqat fuqarolik jamiyatidek ijtimoiy makonda qaror topishi va faoliyat yuritishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati bilan huquqiy davlatning o'zaro nisbatini iqtisod bilan siyosatning nisbati tarzida izohlash o'rinni bo'ladi. Buni O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Zero, iqtisodiy islohotlar tegishli demokratik siyosiy tuzilmalar, institutlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zamiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya ulug'lanadi, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo'tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr-qimmati, mehr-oqibat, ahloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar odamlar o'rtaсидаги munosabatlarning belgilovchi mezoni sifatida maydonga chiqadi.

Demokratik islohotlar davrida ma'naviyatni yuksaltirishga asosiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, ma'naviyat – insoniyat ichki dunyosining ko'zgusi, tafakkuri, ongi va fikr yuritish tarzining mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi yuksak ijtimoiy qadriyatdir. Insoniyat hamisha ezgulikka, ma'naviy barkamollikka intilib yashaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning yaqin kelajakdagi istiqboli hamyurtlarimiz qanday mavqeni egallashiga, qanaqa madaniy-ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni shior qilib olishiga bog'liq bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, hamma fuqarolarning ijodiy salohiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi.

O'zbekistonda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro munosabatlari Davlat – har qanday jamiyatda siyosiy hokimiyatning eng muhim institutidir. Davlat jamiyatning umumiyl ishlarini boshqaruvchi alohida organ sifatida faoliyat yuritadi. Davlat – jamiyatning siyosiy tashkilotlari tizimida muhim, ammo yakka-yu yagona bo'g'in emas: ushbu tizimga partiyalar va boshqa tashkilotlar ham kiradi. Biroq, jamiyat miqyosida faqat davlat suveren hokimiyatga ega bo'ladi.

Davlat hokimiyatining ustunligi muayyan tarzda uning universalligi (davlat hokimiyatining yurisdiksiyasi mamlakatning butun hududi, barcha aholisi va jamoat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etiladi), vakolatlarida (davlat hokimiyati unga da'vo qiluvchi boshqa har qanday g'ayri konstitutsiyaviy va muvoziy tuzilmalarni bekor qilishi mumkin), shuningdek, boshqa ta'sir ko'rsatish vositalarining mavjudligida (masalan, qonunchilik, odil sudlov) ifodalanadi.

Fuqarolik jamiyatining izchil shakllanishi, shaxs va davlat o'zaro munosabatlarining madaniylashuvi jamiyatdagi munosabatlarni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Siyosiy munosabatlar sohasida davlat haqli ravishda yetakchi o'rin egallaydi, bunda u fuqarolik jamiyatiga bog'liq bo'ladi, ya'ni uning faoliyati jamiyat manfaatlariga taalluqli har qanday umumiy ishlarni bajarishi bilan belgilanadi.

Fuqarolik jamiyati odamlarning ijtimoiy va shaxsiy manfaat hamda huquqlarini ifodalash va himoya qilishga safarbar etilgan ixtiyoriy uyushmalari (jamoat birlashmalari, partiyalar, kasaba uyushmalari, shirkatlar, diniy tashkilotlar va hokazo) timsolida davlat bilan alohida siyosiy munosabatlarga kirishadi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, davlatning demokratik faoliyati uchun asoslar shuncha ko'p bo'ladi. Va aksincha, fuqarolik jamiyati yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, avtoritar va totalitar hokimiyat tuzumlari mavjudligi uchun asoslar ko'proq bo'ladi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi aholi qatlamlarining qamrab olinganlik darajasi bilan emas, balki bu jamiyatda tan olinadigan shaxs erkinligining ta'minlanishi holati bilan belgilanadi.

Fuqarolik jamiyatida davlat barcha mulkdorlarning huquqiy jihatdan teng himoya qilinishini ta'minlaydi, xususiy mulkni daxlsiz deb e'lon qiladi, ijtimoiy zarurat tufayli mulk olib qo'yilgan holda unga tovon to'lanishi kafolatlanadi.

Bunday jamiyatda mehnat erkin bo'lib, davlat tomonidan ham, jamiyat tomonidan ham rag'batlantiriladi, majburiy mehnat taqiqlanadi, individual va jamoaviy mehnat erkinligi kafolatlanadi. Davlat aholini ish bilan to'la ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi, kasb-hunar ta'limi va yangi ixtisos

olish dasturlarini joriy etadi mehnatga tayyorlash va ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lanishini amalga oshiradi.

Jamiyatni davlat ta'sirisiz o'zgartirish, isloh qilish mumkin emas. Uning inson huquqlarini himoya qilish sohasida bozor islohotlarining salbiy oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyati ayniqsa muhimdir. Davlatning ijtimoiy vazifasi daromadlarni jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida soliq tizimi, davlat byudjeti va maxsus ijtimoiy dasturlar yordamida qayta taqsimlashdan iborat.

Uzoq muddatli, istiqbolli maqsad sifatida davlat fuqarolarning moddiy holatini tenglashtirishga harakat qilishi lozim. Nafaqat yuridik, balki haqiqiy tenglikka erishish – tarixan qisqa fursatda erishib bo'lmaydigan vazifa. Biroq, bu ulkan ma'naviy imkoniyatni o'zida mujassamlashtirgan tenglik g'oyasi rad etilishini anglatmaydi. Jamiyatimizning rivojlanish yo'llarini aniqlash, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga davlatning aralashuvi chegaralarini, mulkni taqsimlashda uning tartibga soluvchi rolini, davlat ijtimoiy funksiyasining o'sishini va uning o'z fuqarolariga munosib turmush sharoitini yaratish uchun mas'ulligini kuchaytirish muhim vazifadir. O'zbekistonda tenglik,adolat va yuksak ma'naviyatga asta-sekin erishishni ta'minlovchi huquqiy davlatni shakllantirish yangi demokratik jamiyat modelining muhim jihatidir.

### **Nazariy savollar**

1. Fuqarolik jamiyatining belgilari va prinsiplarini yoritib bering. Fikringizni atroflicha izohlang.
2. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning tarkibiy qismlarini atroflicha muhokama qiling.
3. Fuqarolik jamiyati institutlarini turli mezonlar bo'yicha yoritib bering. Misollar keltiring.

### **6-mavzu. Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.**

**Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari kengashlaridagi faoliyatini takomillashtirish.

**Tayanch tushunchalar:** ko'ppartiyaviylik, fuqarolik jamiyati, siyosiy partiya, Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari.

Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy prinsiplaridan eng muhimi davlat hokimiyati organlarining umumxalq saylovleri asosida shakllantirilishi hamda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida bevosita, yoki o'zлari tomonidan saylab qo'yilgan vakillari orqali ishtiroy etishi hisoblanadi. Bunda eng avvalo, jamiyat bilan davlat o'rtasida o'ziga xos "ko'pri" vazifasini o'tovchi va fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lgan – siyosiy partiyalar asosiy rol o'ynaydi.

Siyosiy partiya – bu qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi fuqarolarning ko'ngilli birlashmasidir. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtiroy etadilar.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, siyosiy partiya – bu siyosiy ambisiyaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tuzilgan va boshqariladigan hamda umumiy mafkura asosida birlashgan tarmoqdir (networks). Siyosiy partiyalar eng avvalo, o'z elektorati manfaatlaridan, siyosiy mafkurasi va pozisiyasidan kelib chiqib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga yetarlichcha ta'sir o'tkazishlari hamda o'zining vakillari orqali davlatning markaziy va mahalliy ijroiya organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda qatnashishlari lozim.

## Siyosiy partiyalarning g'arb va sharq talqini

Dunyo siyosiy tarixidan ayonki, zamonaviy tipdagi siyosiy partiylar aynan g'arbda, demokratik boshqaruv tizimiga o'tgan mamlakatlarda shakllangan. Ularning asosiy vazifalari sifatida davlat boshqaruvida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlash; o'z elektorati hamda butun jamiyat manfaatlarini ilgari surish; davlat va jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan muqobil loyiha (dastur)lar ishlab chiqish kabi ko'plab funksiyalarni bajarib keladi.

Nemis siyosatshunosi Klaus fon Beyme siyosiy partiyalarning ustuvor funksiyalari sifatida quyidagilarni e'tirof etadi: o'z maqsadini aniqlash, mafkurasini ishlab chiqish, harakat dasturi va yo'nalishini belgilash; jamoatchilik manfaatlarini birlashtirish va ilgari surish; fuqarolarni sotsializatsiya va mobilizatsiyasini tashkillashtirish; mamlakat boshqaruv elitasi va hukumat tarkibini shakllantirish. Aynan shuning uchun ham siyosiy partiylar ijtimoiy taraqqiyotning turli yo'llari va strategiyalarini ishlab chiqish orqali sotsiumning integratsiyalashuvini ta'minlab beradi.

Agarda g'arb va sharq davlatlarida siyosiy partiyalarning shakllanishi, rivoji va umuman jamiyat siyosiy tafakkurini qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, bir qancha farqli jihatlarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu eng avvalo, o'sha jamiyat turmush-tarzi, demokratik qadriyatlarga munosabati, mentaliteti, borin-ki, siyosiy tafakkuriga bog'liqdir. Mazkur jarayon eng avvalo saylov jarayonlarida ko'zga yoqqol tashlanadi.

**Rasm 1. G'arb va Sharq mamlakatlari saylovoldi kompaniyalarining qiyosiy tahlili asosida tuzilgan.**



Yuqoridagi jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, rivojlangan g‘arb mamlakatlari siyosiy tizimi va saylovoldi kampaniyalarida eng avvalo siyosiy mafkura ustuvorlik qiladi. Ya’ni, partyaning g‘oyasi, mafkurasi, jamiyat va davlatni yangilash bo‘yicha o‘ziga xos dasturiga katta ahamiyat beriladi. Elektorat ham eng avvalo muqobil dasturlar uchun ovoz beradi. Shuning uchun ko‘pchilik g‘arb davlatlarida proporsional saylov tizimi amal qiladi. Keyingi pozisiyalarda esa, siyosiy partiya va nomzodning shaxsiy jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Aksariyat sharq davlatlari saylov jarayonida esa shaxsning o‘rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Nomzodning kimligi, uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, mavqeい, kerak bo‘lsa xarizmasi saylovchilarni qiziqtiradigan eng birlamchi omillardandir. Mazkur holatda esa, siyosiy mafkura oxirgi pog‘onadan joy oladi. Buni eng avvalo sharq jamiyatlarida paternalistik tafakkurning utuvorligi bilan izohlashimiz mumkin.

Aynan saylovoldi jarayonlari, siyosiy partiyalarning parlamentdagи ishtiroki va ularning doimiy faoliyatidagi raqobati shu indikatorlarga asoslanadi. Siyosiy jarayonlar sub’ekti hisoblangan elektorat, siyosiy partiyalar, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari ham mazkur tizim asosida shakllangan va faoliyat olib boradi. Mazkur qiyosiy tahlildan ko‘rinib turibdiki, g‘arb bilan sharq jamiyatlari siyosiy

tafakkurida, ijtimoiy-siyosiy tizimida tafovutlar juda ham ko'p. Bularni ilmiy jihatdan o'rghanish va tahlil qilib borish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda, rivojlangan demokratik mamlakatlarda keng tarqalgan muhim institut – siyosiy diskursga ham e'tibor qaratib o'tish lozim. Aynan jamiyatda bugungi kun uchun dolzarb bo'lib turgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy muammolarni (masalalarni) muhokama qilishda partiyalar o'rtasida doimiy ravishda olib boriladigan siyosiy diskurslarning ahamiyati katta. Siyosiy diskurs – bu eng avvalo siyosiy partiyalar (shu jumladan fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari) o'rtasida kommunikativ muloqotni tashkil qilib beradigan siyosiy jarayondir. Diskurslar o'z navbatida siyosiy yetakchilar orqali boshqariladigan va tegishli auditoriya uchun qo'llaniladigan hamda o'zining maxsus tiliga ega bo'lgan siyosiy vositadir. Siyosiy diskurs saylov kampaniyasi davrida partiyalar tomonidan mamlakat ichki va tashqi siyosatini muhokama qilishda, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli muhim masalalar yuzasidan bahs-munozaraga kirishuvida hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy partiyalarning o'zaro siyosiy diskussiyaga kirishishida ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining o'rni katta. Rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasida nafaqat saylovoldi kampaniyasi davrida, balki muntazam ravishda dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan tele-debatlar, briefing va press-konferensiyalar o'tkazib kelinadi.

*Rasm 2. "Siyosiy diskurs" shakllari: siyosiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish asosida shakllantirilgan.*



Siyosiy diskursning asosiy maqsadi – mavjud holatni oddiygina tasniflash emas balki, bu o‘z g‘oya va fikrlariga elektoratni ishontirish, ijobiy imidj yaratish va auditoriyada motivatsiyani uyg‘otishga qaratiladi. Shuning asnosida siyosiy diskussiyalar prezentativ: o‘z g‘oya va dasturlarini taqdimot qilish, konstruktiv: amaldagi hukumatga (yoki hokimiyatdagi partiyaga) nisbatan o‘z pozisiyasini bildirishi, ya’ni muqobil g‘oya va dasturlarni ilgari surish, konfrontativ: amaldagi hukumatga (yoki hokimiyatdagi partiyaga) nisbatan muxolifat shaklida faoliyat olib borish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, davlat boshqaruvini demokratlashtirish, jamiyatda qonun ustivorligiga erishish va mamlakatda inson huquq va erkinliklarini samarali ta’minlashda siyosiy partiyalarning o‘z nuqtai nazari shakllanishi, davlat va jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan muqobil darsturlarni ilgari sura olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, saylovlar davomida o‘z siyosiy raqiblari (boshqa siyosiy partiylar) bilan mazmunli munozaraga kirisha olishi, bir so‘z bilan aytganda, mamlakat

siyosiy tizimida ko‘ppartiyaviylik va partiyalararo raqobatni shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

### **O'zbekistonda siyosiy partiyalar**

Bugungi kunda, O'zbekistonda 5 siyosiy partiya rasman ruyxatdan o'tgan holda faoliyat olib bormoqda, bular: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi; “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston ekologik partiyasi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP) – 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng tashkil qilingan bиринчи siyosiy partiya. Mazkur partiyani ko‘p jihatdan sobiq kommunistik partyaning merosxo‘ri sifatida ham e’tirof etadilar. O'zXDP 1991 yil 1 noyabrda rasman ro‘yxatga olingan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda partyaning a’zolari soni 425 minga yaqin. Joylarda partyaning 11 mingdan ortiq boshlang‘ich partiya tashkilotlari faoliyat olib boradi. O'zXDP markaziy kengashi raisi – Xotamjon Ketmonov. Partiya ustavida uning asosiy maqsadi – davlat hokimiyatining vakillik organlarida davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Partyaning matbuot organi – “O'zbekiston ovozi” va “Golos Uzbekistana” gazetalari.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi – 1995 yil 18 fevralda tashkil topgan. Bugungi kunda 135 ming a’zosi bor. Respublika hududlarida 3 minga yaqin boshlang‘ich partiya tashkilotlariga ega. Partiya siyosiy kengashining raisi – Narimon Umarov. Matbuot organi – “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiya ustavida belgilangan asosiy maqsadi – huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta’minlangan ma’naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish deya belgilangan.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 2008 yil 20 iyunda Milliy tiklanish va Fidokorlar partiyalarining birlashuvi asosida shakllangan. Partiyaning a’zolari soni 190 minga yaqin. “Milliy tiklanish” partiyasi markaziy kengashi raisi – Sarvar Otamuradov. Partiya ustaviga muvofiq asosiy maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi, milliy g‘urur, vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish ekanligi ta’kidlanadi. Siyosiy partiyaning matbuot organi – “Milliy tiklanish” gazetasi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLidep) – 2003 yilning 15 noyabrida tuzilgan. Partiya o‘zining asosiy maqsadi sifatida – tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta’minlash ekani qayd etiladi. O‘zLidepning a’zolari soni 252 ming nafarni tashkil etadi. Partiya siyosiy kengashi raisi – Aktam Xaitov. Matbuot organi – “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

Bugungi kunda, mazkur siyosiy partiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda viloyat, tuman va shahar vakillik organlarida o‘z deputatlik mandantlariga ega. Quyidagi jadvallarda ularning taqsimotini ko‘rish mumkin.

So‘ngi yillarda, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimini shakllantirish va faoliyati samaradorligini oshirish borasida yetarlicha huquqiy asoslar yaratildi deyishimiz mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risidagi”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi”, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risidagi”, “Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish to‘g‘risidagi”, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risidagi” qonunlarini alohida takidlash lozim.

Bundan tashqari, 2018 yilning 4 oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada Saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini shakllantirish hamda barcha darajadagi saylovlar tizimiga Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini ishlab chiqish va joriy qilish vazifalari belgilab berildi.

Shuningdek, amaldagi siyosiy partiyalarning 1994 y, 1999 y, 2004 y, 2009 y. va 2014, 2019 yillardagi Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlarda ishtiroki va saylovlar jarayonida orttirilgan o'ziga xos tajribasi ham O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining rivojiga ijobjiy ta'sir etadi, albatta.

Lekin, shuning bilan birga, bugungi kunda, mamlakatda siyosiy partiyalar faoliyati va ularning tom ma'nodagi fuqarolik jamiyati institutiga aylanishi borasida bir qancha fundamental muammolar mavjud. Bular sirasiga:

Birinchidan, amaldagi siyosiy partiyalar o'z harakati va faoliyati jihatidan jamiyatdan, elektoratdan uzilib qolgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Siyosiy partiyalar dasturlarida individuallik va raqobatni ko'ra olmaymiz. Mazkur partiyalar rasmiy hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatga nisbatan muqobil dastur va modellarni ilgari surish qobiliyatiga ega emas. Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib, uning o'tkir talablariga javob bergen taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi;

Ikkinchidan, eng asosiy muammolardan yana biri bu haligacha siyosiy partiyalarning ijtimoiy asosi – elektorati to'liqligicha shakllantirilmagani hisoblanadi. Shuningdek, amalda siyosiy partiyalar bilan, ular o'z elektorati deya e'lon qilgan, ijtimoiy guruhi o'rtaida "qayta aloqa" tizimi mavjud emas. Ijtimoiy hayotimizda shunday omil ko'zga tashlanadi-ki, bugungi kunda, go'yoki siyosiy partiyalar o'z hayotida, elektorat esa o'z hayoti bilan yashamoqda;

Uchinchidan, hozirgi kunda, siyosiy partiyalar tashkilotlarida kadrlar muammosi juda dolzarbligicha qolmoqda. Partiya tizimida hali-xamon yoshi o'tgan va eskicha fikrlaydigan parttashkilotchilar faoliyat olib bormoqda. Oylik

maoshining pastligi, partiya tashkilotlari tizimida o'rnatilgan byurokratik tizim va boshqa faktorlar sababli yosh, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar siyosiy partiyalar tizimiga kelishmayapdi;

To'rtinchidan, eng asosiy muammolardan yana biri bu – siyosiy partiyalarning o'zida demokratiyaning sustligidir. Bular, partiya boshqaruvi organlari saylovida, siyosiy partiyadan deputatlikka nomzodlarning ko'rsatilishida, partiya tizimida o'rnatilgan chuqur vertikal munosabatlarda yaqqol ko'rindi. Mazkur holatlar esa, aslida jamiyatda demokratiyani mustahkamlashga qaratilgan fuqarolik jamiyati instituti hisoblanmish – siyosiy partiyalarning xalq oldidagi imidjini tushishiga olib kelishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, Mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan saylov qonunchiligi bir qator qonun va qonunosti hujjatlaridan iborat bo'lsada, afsuski, hanuzgacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmaganligini ta'kidlab, xalqaro norma va standartlarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish

**Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси  
депутатлигига аввал сайланган номзодлар таркиби бўйича  
ТАҲДИЛИЙ ЖАДВАЛ**



vazifasini qo'ygan edilar.

Markaziy saylov komissiyasining 2019 yil 25 dekabrdagi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazuvchi **25 ta** saylov okruglarida birinchi turda g'oliblar aniqlanmaganligi uchun, ya'ni ushbu saylov okruglaridan nomzodlari ko'rsatilgan beshta siyosiy partiya nomzodlarining birortasi ham ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning **50 foizidan** ko'p ovozini olaolmaganligi sababli ushbu saylov okruglarida ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning eng ko'p ovozlarini olgan ikki nafardan nomzodlar o'rtaida takroriy ovoz berishni o'tkazish 2020 yil 5 yanvar kuniga belgilandi.

5 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazuvchi **25 ta** saylov okruglaridagi **1 730 ta** saylov uchastkasida takroriy ovoz berish bo'lib o'tdi.



**Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчиллик палатаси  
депутатлигига сайланган номзодлар соҳа таркиби бўйича  
ТАҲЛИЛИЙ ЖАДВАЛ**

№	Соҳалар	Сони	Фоизи
1.	Фан, таълим соҳаси вакиллари	32	21,3%
2.	Молия, иқтисодий ва банк соҳаси вакиллари	23	15,3%
3.	Хукукшunoslar, хукуқ-тартibot ва назорat органдари вакиллари	21	14,0%
4.	Жамоатчилик ва июдавлат нотижорат ташкилотлар вакиллари	21	14,0%
5.	Қишлоқ хўжалиги соҳаси вакиллари	12	8,0%
6.	Тиббийёт соҳаси вакиллари	9	6,0%
7.	Қурилиш, коммуникация, транспорт ва алоқа соҳаси вакиллари	9	6,0%
8.	Тадбиркорлар вакиллари	7	5,0%
9.	Оммавий ахборот воситалари вакиллари	6	4,0%
10.	Бошқа соҳа вакиллари	10	6,7%

### Nazorat savollari

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlanirishda demokratik institutlarning tutgan o‘rnini?
2. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari kengashlaridagi faoliyatini takomillashtirish?

### 7-mavzu.“Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasi.

#### Reja:

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining mazmun va mohiyati
2. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** konseptual g‘oya, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasi, milliy taraqqiyoti, xalqimizning farovonligi, fuqarolik jamiyati institutlari

O‘zbekiston bugungi kunda mustahkam siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimga ega zamonaviy davlat sifatida dadil rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Istiqlol

yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda keng miqyosda islohotlar amalga oshirildi. Xalqimiz qalbi, ongu tafakkurida fuqarolik hissi va mas'uliyati hamda yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi kuchayib bormoqda. Fuqarolik jamiyatni institutlari ta'siri oshib, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari jamiyat va davlat qurilishi jarayonida faol ishtirok etishlari uchun qulay tashkiliy, huquqiy va boshqa zarur sharoitlar yaratildi.

Xalqaro miqyosda e'tirof etilib, bugungi taraqqiyotimizning hayotiy dasturiga aylangan besh tamoyil asosida islohotlar bardavomligini ta'minlash, boshlangan ulug'vor ishlarga jo'shqin sur'at baxsh etish uchun mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizga erishishda to'plangan tajribalar, ulkan tarixiy, madaniy, boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va an'analar asosida jamiyatda yuksak huquqiy va siyosiy madaniyatni mustahkamlash hamda ma'naviy yuksalishga erishish zarur deb hisoblaymiz. Bizning maqsadimiz — milliy tiklanishdan milliy yuksalishga erishish g'oyasini amalga oshirish, ichki siyosatda iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga, xalqimizning farovonligi oshishiga erishish, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, tashqi siyosatda milliy manfaatlarni himoyalash va maqsadli ilgari surish, O'zbekiston xalqining milliy-madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatları, urf-odatlarini saqlash va boyitishdir. Xalqimizga xos muhim fazilatlardan eng muhimi - qadriyat sifati ardoqlanib kelinayotgani – Erkin, Ozod va mustaqil hayot kechirishga intilishdir. Unga erishish mashaqqatli kurash, mehnat qilishni talab etadi. Bu ezgu yo'lida tarixiy o'tmishda ajdodlarimiz boshidan ne-ne og'ir kunlarni kechirmadi. Tinchlik va farovonlik yo'lida jon olib jon berdi. Kurashdi. Qon to'kdi. Sabr – matonat ko'rsatdi. Kezi kelganda sukul saqladi. Bosiqlik, vazminlik bilan yetti ulchab bir kesib, munosabat belgiladi. Maqsad yagona – Insoniy hayot kechirish, erkin mehnat qilish, bugun va kelajakni tinchligini ta'minlab, farovon hayotga erishib, uni kelgusi avlodga meros qilib qoldirish. Bu kabi ezgu maqsad yo'lida Xalqimizning donishmand – fuzolalari, mutafakkirlari o'z diniy-axloqiy ta'limotlarini yaratdi.

Bejizga xalqimizning eng qadimgi diniy – axloqiy ta'limoti bo'lmish Zardushtiylik, uning Avesto muqaddas kitobida "Ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu

amal”, aynan bizning yurtimizda paydo bo‘limgan. Ana shu uchta oltin qoidaga amal qilish, Insonning erkin va farovon hayot kechirishini ta’minlashi uqtiriladi. Keyinchalik Islom dini hozir bo‘lgach, diniy hayot kechirish orqali ma’naviy komillikka erishish, shu bilan birga hurfikrlilik, erkinlik, ozodlik va farovonlikka tadbir bilan, donishmandlik ila erishish mumkinligini ham ko‘rsatib berdi. Umuman xalqimiz tarixida barcha diniy, axloqiy, falsafiy qadriyatlar insonga munosib hayot kechirishga da’vat qilish, ma’naviy yuksalishi orqali farovonlikka erishish mumkinligini uqtirib turadi.

Taraqqiyotimizning keyingi tarixiy bosqichlarida arablar istilosи, mug‘ullar bosqini kabi qator bosqinchiliklari oqibatida xalqimiz og‘ir tushkun holatda yashashga mahkum etildi. Ozodlik yo‘lidagi Muqanna harakati, Jaloliddin Mangu Berdining buyuk jasorati xalqimizning hurriyat yo‘lidagi kurashida o‘chmas iz qoldirdi. Amir Temurning buyuk davlatchilik barpo etish yo‘lidagi adolatli siyosati, Turon davlatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan, Renessans davrini boshlab bergenligi xalqimizni munosib hayot kechirishini ta’minladi. Temuriylar davridan so‘nggi vaziyat xonliklar, amirliklar o‘rtasidagi taxt talashish, mansab uchun kurash avj olganligi milliy taraqqiyotimizni anchayin orqaga surib yubordi. Milliy tarqoqlikni avj oldirdi. Bundan keyinchalik o‘zga siyosiy kuchlar ustamonlik bilan foydalandilar.

Ulug‘ mutafakkirlarimiz yaratib ketgan beqiyos ma’naviy - madaniy va ilmiy meroslarimizni ham soxtalishtirish, diniy qadriyatlarimizni buzub talqin etish, “din - bu afyundir”, “sen buyuruqni bajaruvchi, sen uchun o‘ylovchilar bor,” “qo‘lda berganga qush to‘ymas” qabilidagi siyosat va mafkura vositasida jamiyatni ham insonni ham tutqinlikda ushlab turishga, mustamlakachilikda yashashga mahkum etildi. Maqsad - xalqimizning azaliy orzusi – erkinlik, ozodlik, mustaqillikka yo‘l bermaslik, buning uchun yot mafkurani tiqishtirish lozim edi. Sal kam yuz yildan ortiq davom etgan mustamlakachilik siyosati oqibatida, xalqimizga xos bo‘lgan ziyyolilik, donishmandlik, yaratuvchilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar bug‘ildi. Har qanday milliylik o‘tmish qoldig‘i deb talqin etildi. Bu kabi qadriyatlarga jamiyat rivojiga to‘sinq bo‘luvchi, eskilik sarqiti sifatida, siyosiy – mafkuraviy tus

berildi.

Yigirmanchi asr boshlaridagi milliy ozodlik harakati, jadidchilarning ma'rifatchilik faoliyati milliy rivojlanishimizni bir qadar ta'minlagan bo'lsada, milliy tarqoqlik, xalqimizning ham iqtisodiy ham ma'naviy og'ir hayot kechirishi tufayli milliy ziyorolarimizga, jamiyatga nisbatan Stalinchilik qatog'onlik siyosati avj oldirildi. Ammo millatimiz, xalqimizga xos bo'lgan munosib insoniy hayot kechirish istagi, mustaqillik, erkinlik va farovonlikni yuksak qadriyat sifatida ulug'lashi, ardoqlashi kabi fazilatlari so'nmadi. Yo'q bo'lib ketmadi.

(Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi matnidan.) O'tgan istiqlol yillari davomida mustaqillikni mustahkamlash, uni avaylab asrash, tinchlik va farovonlikni qadamba-qadam ta'minlab borish asosiy yo'limiz bo'lib keldi. Istiqlol arafasida milliy tilimiz – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi belgilandi. Milliy davlatchilik asoslari tiklandi, mustahkamlandi. Ramozon va Qurbon hayiti nishonlanib kelinmoqda. Yuzlab yurtdoshlarimiz Haj safariga ziyorat qilish imkoniga ega bo'ldi. Yurtimizda o'nlab machitlar, madrasalar barpo etildi.

"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" g'oyasi asosida milliy tariximizning uch ming yillik zarvaraqlarini tiklash va o'rganish asnosida, xalqimiz, yoshlarimiz ongi va qalbida milliy g'urur va faxr tuyg'usini qaror toptirish ziyorolarimiz, tarixchi olimlarimiz oldiga vazifa etib qo'yildi. Milliy tariximizning g'oyaviy ,mafkuraviy asoslari tiklandi. Milliy g'oyamiz: "Ozod va obod, erkin va farovon hayot qurish" barcha fuqarolarimizni milliy tiklanish sari birlashtirdi.

Barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarishga qaratilgan – Ta'limni yangicha asosda tashkil etishning bir qator huquqiy asoslar yaratildi. Ta'lim to'g'risidagi qonun qabul qilindi.Iqtisodiy sohada mulkchilikning o'zini oqlaydigan shakliga yo'l ochildi. Xususiy mulk "kishini kishiga bo'ri" qilib qo'ymaydi, balkim, boy va farovon,chiroyli hayot kechirish vositasi ekanligi, bu esa, inson ruhiyatiga xos qadriyat ekanligi ayon bo'ldi. Istiqlolga erishish arafasida, og'ir moddiy – iqtisodiy nochor ahvoldan chiqish uchun xalqimizga, aholiga 300 ming gектар yer shaxsiy

tomorqa qilib berilgani tafsinga sazovor bo'ldi. Bu Milliy tiklanish yo'lidagi dastlabki moddiy – iqtisodiy chora – tadbir edi. Bu Xalqimizning kelajakka ishonchi ortishida muhim rol o'ynadi. Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesga yo'l ochildi.

**Jamiyatimizning 60 % dan** ortig'ini Yoshlar bo'lganligi bois, Yoshlarga doir davlat siyosatini amalga oshirish yo'lida qonun qabul qilindi. Ularni har tomonlama barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlariga qaratilgan ta'lim- tarbiya, musiqa muassalari, sport va sog'lomlashtirish maskanlari barpo etildi. Yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida har yili yuzlab yangi ish o'rirlari yaratildi.

Hududlarimiz xavfsizligini har tomonlama ta'minlanishida barcha chora tadbirlar ko'rildi. 1992 yil 14-yanvarda Milliy armiyamizga asos solindi. Istiqlolning ilk kunlaridan Milliy xavfsizlik tizimi tashkil etildi. Tashqi siyosatda, xalqaro munosabatlarda barcha davlatlar bilan har tomonlama, o'zaro manfaatli munosabatlar yo'lga qo'yildi. Juhon hamjamiyati sari integratsiyalashib borishimizda, xalqaro talablarga va tamoyillarga so'zsiz amal qilindi. Tinchlikparvar tashqi siyosat olib borildi. Yurtimiz yadro poligonlaridan holi hudud deb e'lon qilindi.

Mustaqillik milliy tiklanishning asosi, azaliy qadriyati sifatida, mana 28 yillardiki xalqimizning ezgu istaklarini, orzu – umidlarini, munosib hayot kechirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarib kelmoqda. "Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari dadil qadam qo'ymoqdamiz."

**(Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi matnidan.)**

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev rahnomaligida, mexnatsevar xalqimizning fidokorona mexnati bilan, dunyo ahliga "cho'lida ham giyoh undira olishi mumkin ekanligini" yana bir bor isbotlab bermoqda. Hukumatimiz tomonidan o'zlikni anglashga, milliy manfaatlarimizga javob beradigan xalqchil adolatli islohatlar davom ettirilmoqda. Tarixan qisqa 28 yil davomida xalqimiz milliy o'zligini

anglash mashaqqatlarini yengib, yuksalish sari dadil qadam tashlab kelmoqda. O'zbekiston tom ma'noda dunyo hamjamiyatida o'z o'rniغا ega bo'lish uchun intilib keldi.

Milliy tiklanish yo'lida boshlangan barcha islohatlar jarayonida gohida oldinga intilish, gohida murakkab holatlarga duch keldik. Xalqimizning ongi va dunyoqarashi bilan jamiyat taqoza etayotgan yangicha ishslash va munosabat ko'rsatish talablari o'rtasida nomuvofiqlik holatlari ham ko'zga tashlandi. Bu tabiiy ijtimoiy holat hamdir. Zero mustaqillikning yangicha talablari ham bo'ladi. Uni anglash, ongi, tafakkuridan o'tkazish ham o'zoq vaqt talab etadigan hodisadir. Bu esa, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini qurish talablaridan kelib chiquvchi, bir qator murakkab vazifalarning amalga oshuvi bilan bog'liqdir.

**2017 yil**, 7-fevralda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiya – bu islohatlarni amalga oshirishning aniq mo'ljallangan yangi harakat dasturidir. Harakatlar strategiyasi jamiyatning barcha sohasida boshlangan islohatlarni tezlashtirmoqda, uni jo'nbushta keltirmoqda. Odamlarda keljakka nisbatan ishonchni yanada kuchaytirdi. Ular turmush tarziga ko'tarinki ro'h olib kirmoqda. Buyuk keljakni yaratish bugundan boshlanadi. Bu uchun kishilar bugun yaxshi yashashlari zarur. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar aynan ana shunday zaruratni yuzaga chiqarishga qaratilgani bilan ham qadrlidir.

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini, rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi – Harakatlar strategiyasi reallikka aylantiradi. Chunki, shu asosdagi islohatlar odamlarni ochiqlik, oshkorlik, shaffoflik muhitida yashash va ishslashga ham da'vat etmoqda. Bunday halqchil muhitda yashashga intilish esa, xalqimizni har tomonlama mukammal, farovon turmush kechirishni ta'minlaydi. Darhaqiqat, Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish yo'lini har tomonlama asoslab beradigan, davlatimizni dunyoda rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishini ta'minlab beradigan noyob xujjat hisoblanadi.

2019 yil nashrdan chiqqan Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari kitobida Harakatlar strategiyasi asosida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun ana shu ulkan ahamiyatga molik o'zgarishlar jarayonining mazmun mohiyati, jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyati Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning purma'no fikrlari orqali yorqin ifoda etilgan. Unda Prezident Sh.M.Mirziyoevning asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar joy olgan.

**Kitobdan** joy olgan o'ttizdan ortiq masalalarga – jamiyatimizning ijtimoiy, moliyaviy va iqtisodiy, ekologik, huquqiy va qonunchilik, ma'naviy – madaniy, tashqi siyosat, tarbiyaviy kabi sohalariga, shu bilan birga Yoshlar, xotin-qizlar, nuroniy keksalar hayoti va manfaatlariga qaratilgan purma'no fikr-mulohazalari, bugungi xalqimizni islohatlarning ijodkori va ijrochisi sifatida, milliy rivojlanish sari yetaklovchi ilmiy, g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy va mafkuraviy mayoq bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti jonajon Vatanimizni yanada obod, xalqimizni baxtli – saodatli qilishdek muqaddas va zalvorli keng vazifalarni bajarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga va jadal taraqqiyotga erishish imkoniyatini beruvchi islohatlarni amalga oshirishda mamlakatimizning jonkuyar lideri sifatida jonbozlik ko'rsatmoqda. Milliy yuksalishga erishmoq uchun Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa, taraqqiyotning kafolatidir."

(Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari kitobidan olindi. 5-bet) Darhaqiqat, qisqa davr ichida yurtimiz o'zgarib ketdi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, shuningdek, "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" davlat dasturi, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh muhim tashabbus" kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan tub islohotlarning ma'no-mazmuni va ruhi mujassam etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, Vatanimizni har tomonlama

taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin o‘tgan har bir kunimiz xalqimizning fidokorona mehnati, bunyodkorlik salohiyatining yana bir amaliy namoyoni, erkin, ozod va farovon hayotimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli sifatida yangi tariximiz solnomasiga tom ma’noda yorqin sahifa bo‘lib kirmoqda.

Bugungi shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tubdan o‘zgarmoqda. “Obod qishloq”, “Obod mahalla” loyihalari asosida olib borilayotgan ishlar “Inson manfaatlari barcha narsadan ustun” tamoyiliga amal qilingan holda aholiga yanada qulaylik yaratish, turmush sharoitini yaxshilash maqsadida olib borilayotgani tahsinga loyiq. Bu dastur yo‘lida 4 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan. Hatto, eng chekka qishloqlarda ham bunyod etilayotgan zamonaviy uy-joylar, ishlab chiqarish korxonalari, maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalar, ta’lim muassasalari, sport inshootlari, mahalla guzarlari kishiga zavqu shavq ulashadi. Butun mamlakatimizni qamrab olgan mazkur dasturlar doirasida 416 ta qishloq va 105 ta mahallada qurilish va obodonlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Bularning barchasi jonajon O‘zbekistonimizning yangi, obod qiyofasini yaratish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Aholimizning zamonaviy uy-joyga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini ta’minalash maqsadida joriy yilda 13 ming 900 dan ziyod oilaga mo‘ljallangan 335 ta ko‘p qavatli turar joy foydalananishga topshirildi.

Ana shu yo‘nalishdagi ishlar qishloq joylarda ham yangilangan loyihalar asosida olib borilmoqda. Hozirgi kunga qadar qishloqlarda 40 mingta oila yangi xonadonlarga ko‘chib kirdi. Bu borada biz ilgari yetarlicha e’tibor bermagan muhim masala – ya’ni, kam ta’minalangan, nogironligi bo‘lgan insonlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Buning tasdig‘ini o‘tgan 2 yilda 1000 nafardan ortiq shu toifaga mansub insonlar uy-joy bilan ta’minalangani misolida ko‘rish mumkin.

**Aholi bandligini ta’minalash, har bir oilada tadbirkorlik muhitini yaratish** bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoxda. Keyingi ikki yilda mamlakatimiz bo‘yicha 700 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz ish bilan ta’minalangani, tijorat

banklari tomonidan tadbirkorlarga 25 trillion so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgani ana shunday sa'y – harakatlar natijasidir. So'nggi oxirgi yillarda bu ko'rsatgich yanada yuksaldi.

Mamlakatimizda oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tibbiyot muassasalari qurilib, eng so'nggi jihozlar bilan jihozlanayapti. Shifokorlarimiz eng rivojlangan davlatlarda malaka oshirib qaytishmoqda.

Yurt taqdirini bilimli, har jabhada yetuk farzandlar belgilab berishi har birimizga sir emas. Ularga ta'lim tarbiya beruvchi insonlar mehnati esa qadrlanmoqda, e'zozlanmoqda. Biz mamlakatimizda qanday dastur va rejalar qabul qilsak, ularning barchasida umidimiz, kelajagimiz bo'lgan **yoshlarimiz manfaatlarni** alohida hisobga olmoqdamiz.

Bu haqda so'z yuritganda, mamlakatimizda yangi oliy o'quv yurtlari, xorijdagi nufuzli universitetlarning filiallari tashkil etilayotgani, qabul kvotalari oshirilgani, ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha sirtqi bo'limlar ochilganini alohida qayd etish lozim.

Ayni vaqtida buyuk allomalarimiz nomidagi maxsus maktablar, hududlarimizda atoqli adiblarimiz nomidagi ijod maktablari ish boshlagani, yoshlarimiz o'rtasida turli tanlov va festivallar, sport musobaqalari muntazam o'tkazib kelinayotgani ularning ilmiy va ijodiy kamolotida katta rol o'ynamoqda.

Jamiyatimizda "**Qonun vaadolat – ustuvor**", "**Jinoyatga jazo muqarrar**" degan muhim prinsiplarni ta'minlash, sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, advokatura tizimi faoliyatini takomillashtirish, ularni tom ma'noda inson huquq va manfaatlari himoyachisiga aylantirish bo'yicha ham salmoqli ishlar qilinmoqda.

Ana shunday o'zgarishlar tufayli biz yillar davomida deyarli unutib qo'ygan tartib-intizom, qonun-qoida, odamlarning haqli talablari bilan hisoblashish kabi eng muhim tamoyillar hayotimizda tobora chuqur o'rin egallamoqda.

"Bugun bir fikrni to'la ishonch bilan aytish mumkin: butun jamiyatimizni qamrab olayotgan ana shunday ezgu ishlarimiz tufayli hayotimizda fayzu baraka, millatlararo do'stlik va mehr - oqibat tuyg'ulari kuchayib bormoqda. Eng muhimi,

mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish yo'lida olib borayotgan ichki va tashqi siyosatimiz el-yurtimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqimizning roziligi – bizning, birinchi navbatda, Prezident sifatida mening, barcha bo'g'indagi rahbar va mutasaddilar, deputat va senatorlar, butun davlat idoralarining faoliyatiga berilgan eng oliy va eng adolatli bahodir. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham albatta rozi bo'ladi. Bu haqiqatni hech kim hech qachon unutmasligi zarur”. degan edi Sh.Mirziyoev. Jonajon diyorimiz O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi.

Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investision siyosat — barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim.“Renessans” lug'aviy fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rtaschlardan mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909 yilda “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII —

VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosini tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi.

XV asrdan Renessans Yevropaga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300 — 350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg'oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o'girib, chuqr o'zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg'onishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatganlardan biri Ibn Rushddir. Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurida XVI asr o'rtalarigacha averroizm (Ibn Rushd ta'limotiga asoslangan oqim) mavqeini saqlab turdi.

Afsuski, XVI asrning 30 — 40 yillarda bizda an'anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Ilmiy, badiiy izlanishlarga ijtimoiy ehtiyoj pasayib ketdi. O'tmish yutuqlari oldida qulluq qilish, ularni ideallashtirish va faqat takrorlashga urinish, yangiliklarga salbiy munosabat shakllandi. Asta-sekin chuqr turg'unlik va inqiroz boshlandi. Ular noxush ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy, regional nizolar va ayirmachilik kabi sabablar bilan qo'shilib qoloq bo'lib qolishimizga, XIX asr ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizni yo'qotishga olib keldi. O'tmishdan birinchi bo'lib teran tarixiy xulosa chiqargan — jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg'otish, taraqqiyot tomon burishni ko'zлади. Ammo mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo'g'ib qo'ydi.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, uchinchisi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX — XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi — XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy

kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchı Renessansda — Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur.

Milliy g‘oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so‘zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o‘sha maqsad yo‘lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa’y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo‘lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta’lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo‘ljallarini umumiylar tarzda aniqlaydi. Milliy g‘oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat’i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo‘ljalni ko‘rsatishi shart.

Istiqlolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda “O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat” shiori olg‘a surildi. U amalda milliy g‘oya vazifasini o‘tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o‘ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg‘u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g‘oya shaklan takomillashtirilganda “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” iborasi olg‘a surildi. Unda urg‘u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat’i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo‘lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo‘yildi. Milliy g‘oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini olib berishga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo'naliishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta-sekin susaya boshladi.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatayotirmi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog'i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi, deb e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g'oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliv maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda Uchinchi Renessans g'oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g'oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog'da o'tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog'lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo'lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko'rinishlariga chalg'imasiligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo'q. Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi.

Endi hammamiz, butun jamiyatimiz, ularni amalga oshirishga kirishmog'imiz lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Inson — Yangi Renessans ijodkorining mazmun va mohiyati?
2. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga" konseptual g'oyasining mazmun va mohiyati.

3. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining ahamiyati.

#### **IV. AMALIY MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI**

**1-mashg'ulot: O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi fanining g'oyalari evolyusiyasi.**

**Reja:**

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasining tarixiy ildizlari va ularning turli tavsiflari.
2. Sharq va G'arb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyati tushunchasiga oid o'ziga xos yondashuvlar. Fuqarolik jamiyatining antik paradigmasi.
3. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining paradigmalarini yaratilishi. G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati paradigmasingin rivojlanish an'analari.

«Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko'p-ko'p davlatlar asrlar davomida to'plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib yetib kelgan, - deb ta'kidlaydi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov. – Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz»<sup>31</sup>. Darhaqiqat,fuqarolik jamiyati masalalarini o'rganishda klassik yondashuvlar barobarida, albatta zamonaviy yondashuvlarni ham o'rganish zarur. Zero, bu hodisa asrlar osha o'zining klassik mohiyatini saqlab qolgan bo'lsada, uning ta'rifi va tuzilmasi davr o'tishi mobaynida o'zgacha tus olmoqda. Fuqarolik jamiyatiga nisbatan bildirilayotgan ilmiy munosabat uning o'zi singari murakkablashayotgani tufayli fuqarolik jamiyati ilmiy doiralarda ham davr, ham mohiyat nuqtai nazaridan qayta-qayta tafakkur chig'irig'idan o'tkazilmoqda.

Davr nuqtai nazaridan yondashilganda fuqarolik jamiyati post- sotsialistik mamlakatlarda nisbatan yangi hodisa ekanligi qayd etilganiga qaramay, aslida sharqiylar o'tgan asrning so'nggi choragi arafasida kommunistik tizimga qarshi g'oya sifatida alohida qiziqish uyg'otgan.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining Yevropacha an'anasi antik ildizlarga ega. Mazkur an'anining mazmun-mohiyati nafaqat siyosiy, balki shaxsni ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan baholash bilan bog'liq edi. Bunga Aflatun, Arastu, Siseron kabi mutafakkirlarning qarashlarini misol keltirish mumkin. G'arbiy

<sup>31</sup>Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 1999, 7-jild. 304-b.

Yevropada esa fuqarolik jamiyatiga nisbatan qiziqish vaqtı-vaqtı bilan susayib turgan bo'lsada, aslida bu masala munozarali bo'lganligi tufayli hamisha jiddiy tadqiqotlarga yo'l ochgan. Agar klassik olimlar bu muammoni davlat hokimiyati bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishgan bo'lsa, fuqarolik jamiyatiga davlat qanchalik daxl qilishi mumkinligi zamonaviy tadqiqotchilarni qiziqtirgan masalalardan biridir.<sup>32</sup> Dj.Koen, E.Arato, D.Grin, M.Uolser, L.Yakobson, E.Gellner singari olimlar fuqarolik jamiyatni hodisasiga kompleks yondashishgan bo'lsa, R.Dvorkin, A.Seligman, M.Plattner singari olimlar fuqarolik jamiyatini liberalizm hamda demokratiya munosabati nuqtai nazaridan talqin etishgan. Fuqarolik jamiyatni muammolari D.Bell, S.Uayt, S.Benhabib, N.Freyzer va hokazo olimlarning liberalizmga qarshi bo'lgan ta'limotlarida ham namoyon bo'ldi. Fuqarolik jamiyatni "barcha balolarning davosi" ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham g'arbda yaratilgan tadqiqotlardan o'rin olgan bo'lib, A.Seligman, M.Uolser, Ch.Teylor kabilarni ular qatoriga qo'shish mumkin. D.Grinning guvohlik berishicha fuqarolik jamiyatining tabiatini, uning liberalizm bilan munosabati F.Xayek va M.Novaklar tadqiqotlaridan keng o'rin olgan.

Fuqarolik jamiyatiga bo'lgan qiziqish o'tgan asrning ikkinchi yarmida g'arbda, ayniqla, kuchli bo'lganligiga sabab Ikkinchi jahon urushidan oldin davlatning fuqarolarning hayotiga aralashuvi nafaqat totalitar tizimdagiga kabi keng tarqalganligiga borib taqaladi. Urushdan keyingi davrdagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor fuqaroviylar huquqlarni qayta tafakkur qilishga qaratildi. Fuqaroviylar ijtimoiy mazmun bilan boyigan holda davlatdan ma'lum bir xizmatlarni olish fuqaro uchun yuridik jihatdan mustahkamlangan huquqqa aylangan edi. Bunday o'zgarishlar o'z navbatida boqimandalik kayfiyatini kuchaytirgan holda, mehnat va raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu tufayli bir qator liberalizm nazariyotchilari bozorning ta'sirini oshirishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surgan holda fuqarolik jamiyatni tadqiqotlarga qaytadan turki berdilar. XX asr davomida fuqarolik jamiyatining quyidagi transformatsiyasi ro'y berdi: asr boshida u inqilob

tajovuz qilayotgan davlat uchun qalqon vazifasini o'tagan bo'lsa, asr yakuniga kelib u shaxs erkinligini davlatning o'ta qattiq nazoratidan asrash omiliga aylandi.

Tadqiqotlar orasida fuqarolik jamiyati hodisasining mohiyatiga, aniqrog'i, uning ta'rifiga takror-takror murojaat etilganligini qayd etish mumkin. Zero, bu hodisa o'ta murakkab bo'lganligi tufayli unga nisbatan bir yoqlama yondashuv bilan uning tub mohiyatini to'liq qamrab olish mumkin emas. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi ilmiy munozara yangi g'oya va tushunchalarini qamrab olish bilan yangidan-yangi mualliflarni bu mavzuga jalb etdi. Tadqiqotchilar qarashlarning turlichaligi nuqtai nazaridan bir-birlaridan keskin farqlanishsada, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, uning tuzilishi, fuqarolik hissini tarbiyalash muammolariga nisbatan qiziqishlarida umumiylilik mavjud. Fuqarolik jamiyati tushunchasining g'arbda o'ta ommalashib ketish sabablaridan yana biri unga berilgan ta'rif borasida kelishuvning yo'qligiga borib taqaladi. Bu hodisa qariyb uch asrdan beri o'rganilayotgan bo'lishiga qaramasdan, uning yagona konsepsiysi, boshqacha aytganda "yurisprudensiyada aksioma sifatida qabul qilinadigan darajadagi metanazariyasi" hanuzga qadar shakllantirilganicha yo'q. Faqatgina liberalizm bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi aloqadorlikni tan olish bu boradagi tadqiqotlarning umumiy jihatini ifoda etgan yagona nuqta hisoblanadi. Ba'zi olimlar bu muammo allaqachon eskirib ketganligini ta'kidlashadi. Shuning uchun bo'lsa kerak bu hodisa dastlab yuzaga kelgan va o'zining eng oliy nuqtasiga yetgan Buyuk Britaniyada fuqarolik jamiyati tadqiqotlari universitetlar e'tiboridan chetda qolmoqda.

O'tgan asrning 70-yillarida g'arbda fuqarolik jamiyati kommunistik tizimga muqobil sifatida talqin etilgan bo'lsa, bu hodisa keyinchalik so'l tadqiqotchilar tomonidan erkin bozor munosabatlariga qarshi qo'yilgan. Buning birinchi sababi, olimlar fuqarolik jamiyatini kommunistik mamlakatlarda kuzatilgan totalitarizmga qarshi eng maqbul vosita sifatida ko'rishgan. Ikkinchi sababi esa, fuqarolik jamiyati dastavval vujudga kelgan paytda erkin mulkdorlar yetakchilik qilgan shahar aholisining tashhabbusi bilan vujudga kelganligiga borib taqaladi. Bu hodisa o'ta murakkab ekanligi u liberalizm va erkin bozor munosabatlarini taqozo

qilishidan ham ko'rinish turibdi. Fuqarolik jamiyati tadrijiga e'tibor qaratilsa, u mulkdor huquqini kafolatlash, erkin bozor munsabatlari rivoji uchun qulay makon ekanligi namoyon bo'ladi. Bu yerda fuqaro erkinligining chegarasi tadqiqotchilarni qiziqtirgan masalalardan biridir.

Individualizm bilan jamoaviylik dilemmasi fuqarolik jamiyatida navbatdagi diqqat talab etadigan masalalardan biridir. Ijtimoiy tafakkurning kommunitarizm deb nomlangan, asosan AQShda rivoj topgan yo'nalishi bu jumboqni yechishga, ya'ni bu ikkilikdan qay biri birlamchi ekanligiga javob topishga harakat qiladi.

Fuqarolik jamiyati borasida xorijda yaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda yondashuv nuqtai nazaridan umumlashtirish mumkin. Boshqacha aytganda, tadqiqotlar

- \*fuqarolik jamiyatining ilmiy ta'rifi;
- \*fuqarolik jamiyati va liberalizm munosabatlari;
- \*fuqarolik jamiyati va demokratiya;
- \*fuqarolik jamiyatida individ erkinligi, ixtiyoriylik va ko'ngillilik;
- \*fuqarolik jamiyati bilan davlat munosabatlari;
- \*fuqarolik jamiyati bilan bozor munosabatlari;
- \*fuqarolik jamiyati NNTlar hamjamiyati;
- \* fuqarolik jamiyatida omma manfaati va shaxs manfaati kabi jihatlarda tahlil etilgan.

Fuqarolik jamiyati borasidagi xorijiy ta'limotlar tadrijiga nazar tashlansa, dastlabki paytlarda asosiy yo'nalish hukmdorning vakolatlarini qisqartirish yoki jamiyat bilan hukmdor manfaatlari o'rtasidagi chegarani belgilashga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik inson huquqlari, ya'ni davlat va jamiyat munosabatlarida insonning mavqeい masalalariga qaratilgan. Insonning ozodligi, uning erkin faoliyat yuritishi, unga oid huquq va erkinliklar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi borasidagi tadqiqotlar asosiy o'rin egalladi. Bunga AQShda liberalizm negizida o'rnatilgan fuqarolik jamiyati misol keltiriladi. Liberalizmdagi ozodlik (Liberty), tenglik (Equality), mustaqillik (Freedom) va adolat (Justice) kabi tushunchalar

amerikaliklarning asosiy qadriyatiga aylandi. Tenglik deganda barcha insonlarning siyosiy jihatdan tengligi va imkoniyatlarning tengligi tushunilgan. Buning ma'nosi shuki, "yaxshi" jamiyatda hukumat fuqarolarning o'z orzulari va qobiliyatları asosida o'z farovonliklarini yuksaltirish uchun kurashishlari uchun sharoit yaratish ekan, ayni vaqtda boshqa shaxslarning ham hayoti hamda mulkini qadriyat sifatida hurmat qilishlari uchun qonunlar tizimini ishlab chiqadi. Erkinlik deganda har kimda istaganini qilish emas, balki qonun doirasidagi erkinlik tushunilgan.

Garchi liberalizm AQShda, aniqrog'i, umuman, g'arbda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, uning asosiy tamoyili bo'lmish "tenglik" olimlar orasida hamisha munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Zero, fuqarolik jamiyatini tadqiq qilgan olimlar muntazam ravishda demokratik deb hisoblangan.

Garchi fuqarolik jamiyati birinchi navbatda g'arb tamaddunining mahsuli bo'lsada, bu mintaqada ham ziddiyatli misollar uchraydi. Bu hodisani atroflicha o'rgangan amerikalik sotsiolog R.Patnem Italiyada ijtimoiy hayat tarzining fuqaroviylilik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ikki turi mavjudligini ta'kidlaydi. Masalan, Italiya shimolida o'zini o'zi boshqarishga asoslangan fuqarolik jamiyati mavjud bo'lsa, janubda demokratik tamoyillarga munosabat ijobiy emas. Janubda fuqaroviylilik ongi past darajada bo'lganligi tufayli vakillik hokimiysi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.<sup>46</sup> Ayni vaqtda Osiyoning bir qator mamlakatlarida fuqarolik jamiyati milliy an'analar bilan hamohang ravishda rivojlanmoqda. Liberal qadriyatlar sharq jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayatiga jadallik bilan kirib bormoqda va mahalliy aholining hokimiyatga ko'r-ko'rona bo'ysunishidan ularning ijtimoiy faolligiga, fuqaroviylar ongining o'sishiga xizmat qilmoqda.

Ko'rinish turganidek, fuqarolik jamiyatiga nisbatan ilmiy yondashuvlar bu hodisaning imkon qadar barcha qirralarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotchilar fuqarolik jamiyatini avvaldan rejalashtirishdan qochish kerakligini uqtirar ekan, fuqarolik jamiyati rivojiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish zarurligini ta'kidlashadi. Zero, fuqarolik jamiyati o'zini o'zi boshqaruvchi

ko'ngilli tuzilmalar rivoji bilan ma'lum davr mobaynida "pishib" yetiladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat»<sup>33</sup> deb ta'kidlagan edi.

Fuqarolik jamiyati fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi. Zamonaviy usullar:


- \*“Pinbord texnikasi”
- \*“Venn diagrammasi”
- \* “Aqliy hujum”
- \* “Loyiha” usuli
- \* “Klaster”
- \* “FSMU” texnologiyasi”
- \*“Keys texnologiyasi”

<sup>33</sup>


.- -331.

## Pinbord texnikasi


(inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska) muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozisiyani shakllantirishga imkon beradi.



O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy xujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi).



Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'limgan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.



Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va raqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;
- 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozisiyalari ishlab chiqiladi.

**"FSMU" metodi.** Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi. Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

**F**

(Fikringizni bayon eting).

**S**

(Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).

**M**

(Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).


**U**

(Fikringizni umumlashtiring).


**Venn diagrammasi.** Venn diagrammasi- 2 va 3 jihatlarni hamda umumiyl tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tinglovchilar:

- 1) kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida rivojlangan davlatlar ta'lif tizimiga oid fikrlarini oydinlashtirib olib, to'ldiradilar.
- 2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar.
- 3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiyl bo'lgan fikrlar ro'yxatini tuzadi.

#### 4) ish natijalarining taqdimoti.



#### Venn diagrammasi




#### KLASTER USULI

(Klaster – tutam, bog'lam) – axborot xaritasini tuzish yo'li – barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.Bilimlarni faollshatirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalg qilishga yordam beradi.Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar «yo'ldoshlar» yozib qo'shiladi. Ularni «asosiy» so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu «yo'ldoshlara» «kichik yo'ldoshlar» bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalalar tugaguncha davom etishi mumkin. Muhokama uchun

klasterlar bilan almashinadilar

### Klaster



### **“A Q L I Y H U J U M” USULI**

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to‘zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirish

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo‘l qo‘ymay uni hal etishning ko‘proq shaxsiy g‘oyalarini yuzaga keltiradilar, so‘ngra ko‘proq oqilona samarali maqbul va boshqa g‘oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi- ta’lim oluvchilarni o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va yechishga qiziqtirish va ularda muomala mada-niyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta’sir ostida fikrlashdan ozod bo‘lish va ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yo‘l fikrlarini yengib o‘tishni tarbiyalaydi.

An’anaviy ta’limda vazifani yechish vaqtida ko‘pgina ta’lim oluvchilari o‘zlarini g‘oyalarni aytishga botina olmaydilar. O‘z takliflarining xatoligi va

ta'lif beruvchining salbiy munosabatidan, boshqa ishtirokchi-larning yo'q qilib yuboruvchi tanqidi va kulgisidan asosli qo'rqedilar.

### «Aqliy hujum»ning asosiy qoidalari:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- «hujum»ni o'tkazish vaqt aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

### **«ЛОЙИХА» методи-**

таълим олувчиларнинг индивидуал ёки гурӯҳларда белгиланган вақт давомида, белгиланган мавзу бўйича ахборот йиғиш, тадқиқот ўтказиш ва амалга ошириш ишларини олиб боришидир.



### Keys texnologiyasi

Keys-stadi inglizcha sase - to‘plam, aniq vaziyat, stadi –ta’limdir. Keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslaniladi.

Keys-stadi - ta’lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir. Keys ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo‘llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o‘qituvchilari yuristlarning o‘qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagи aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta’limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o‘qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

**Xulosa qilib aytganda,** bugun ta’lim tizimidagi kadrlar salohiyatini

oshirishda fuqarolik jamiyati fanini yanada takomillashtirish yo'lidagi muammolardan biri – bu ushbu sohada faoliyat yuritayotgan ayrim pedagog kadrlarimizning darsni tashkil etishdagi an'anaviy usullar bilan cheklanib qolayotganligidadir. Bu esa, ushbu fanlardan o'quvchilarni Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib qo'yilayotgan bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishida yetarli natijalarga olib kelmaydi. Muammoni yechimi sifatida shuni taklif etish mumkinki barcha ta'lim muassasalarida « Fuqarolik jamiyati » fanidan o'quvchilarga saboq berayotgan pedagog-kadrlarimizni malakasini oshirish va qayta tayyorlashda innovasion texnologiyalardan, noan'anaviy dars usullaridan o'rinni foydalanishlariga ko'proq e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

## **2-mashg'ulot. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlar.**

### **Reja:**

1. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi ilk qarashlar. O'rta asrlarda fuqarolik jamiyati g'oyalarining rivojlanishi.
2. Sharq sivilizatsiyasida Yangi davrda fuqarolik jamiyati paradigmasing o'ziga xosligi.

O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarining chuqurlashib borishi milliy merosimizni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni yanada kuchaytirmoqda. Buning sababi shundaki, biz qurmoqchi bo'lgan fuqarolik jamiyati boshqa mamlakatlar tajribasidan andoza sifatida ko'r-ko'rona ko'chirib olinmay, balki, bir necha ming yillik milliy meros va tarixiy tajribalarimizdan oziqlanadi. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasining ildizlari Aristotel va Siseron singari ko'hna dunyo faylasuflarining izlanishlariga borib taqaladi. Bu jamiyatni Aristotel "politike koinonia", ya'ni "siyosiy birlik - hamjamiyat", deb atagan edi. Mazkur tushunchaning lotin tilidagi ifodasi "sosietas civilis" fuqarolik jamiyati qabilada qabul qilindi. U polisni aniqlash uchun xizmat qildi, uning zamirida zoon politikon – "siyosiy mavjudot" sifatida inson "telo'si"

(maqsad)ning muqobili (sinonimi) sifatida ishlataligan. Zero, qadim yunon o‘lkasida oila, e’tiqod, ma’rifat, madaniyat, san’at, umuman hayotning barcha qirralari siyosatlashtirilgan edi. Uning ustiga alohida olingan shaxs o‘zini jamiyatdan ayri holda his qila olmasdi.<sup>34</sup>

Fuqarolik jamiyatiga doir ilk qarashlar uzoq vaqt yashab keldi. Shaxs erkinligi g‘oyasini timmay targ‘ib qilgan J.Lokk, I.Kant singari faylasuflar ham “fuqarolik jamiyati” deganda, avvalo, “davlat”ni tushunishga moyil bo‘ldilar. Ammo bora-bora fuqarolik jamiyati bilan mutlaq davlat mahkamalari (institutlari) o‘rtasidagi tavofut ko‘zga yaqqolroq tashlanaverdi. G.Gobbs, Sh.L.Montesk’e kabi olimlar himoya qilgan individualizm konsepsiysi esa ku tartibiga jamiyat fuqarosi bo‘lgan shaxs erkinligi masalasini qo‘ydi.

Yevropada fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi dastlabki g‘oyalar XVII asr o‘rtalarida Tomas Gobssning “Tabiiy va siyosiy qonuniar unsurlari”, “Fuqaro haqida”, shuningdek, boshqa davlat va hokimiyat haqidagi (“Leviafan”) asarlarida o‘z ifodasini topganidan keyin paydo bo‘ldi. Shu davrdan boshlab fuqarolik jamiyati dolzarb ijtimoiy-siyosiy tasavvur va tushuncha sifatida takomillashib bormoqda. Shubhasiz, fuqarolik jamiyati va davlat munosabatlarini juda mukammal ishlab chiqqan mutafakkirlardan ko‘zga ko‘rinarlisi Gegeldir. Uning qarashicha, fuqarolik jamiyati qonun bilan boshqariladigan shaxslar, sinflar, guruqlar va boshqa institutlarning majmuasi hisoblanib, bu majmua to‘g‘ridan – to‘g‘ri siyosiy davlat boshqaruviga bog‘liq emas. Shuningdek, Gegel bu haqda quyidagicha fikrni bildiradi: “Fuqarolik jamiyatining tabiat shundayki, unda har bir alohida insonning huquqi davlatning shaxsiy huquqiga aylanishga ulgurgan bo‘lib, unda davlat o‘zining zimmasiga mening huquqlarimni xuddi o‘zining huquqlaridek himoya qilish va qaror toptirish majburiyatini oladi”.<sup>35</sup>

### **Fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari**

- Jamiyat xayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘rni va axamiyatni kuchaytirish orqali kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o‘tish jarayonini

<sup>34</sup>

<sup>35</sup>

rivojlantirish;

- Davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklab borishga erishish;
- Davlatning iqtisodiy rivojlanishi borasidagi ustivor yo'nalişlarini aniqlashga, qabul qilingan qonunlar va xususiy normalarni so'zsiz bajarilishini ta'minlash xo'jalik sub'ektlari o'rtasida raqobat muxitini yaratish;
- Qonunlar ijrosini ta'minlash, joriy xujjatlarni joriy qilishda davlat xokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, "adolat qonun ustivorligida" tamoyilini xaqiqatga aylantirish;
- Davlatning nazoratchilik funksiyasini cheklash va ayni paytda davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratni ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish;
- Boshqaruv tizimi va iqtisodiy hayotni erkinlashtirishni chuqurlashtirish maqsadida markaziy va yuqori boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tizimlariga o'tkazib borish;
- Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lgan maxalla instituti, turli jamoat birlashmalari xamda tashkilotlar faolligini izchil rivojlantrib borish.

Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o'ziga bo'ysundira olmaydi, shuningdek, erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviyligi, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu g'oya XX asrning 80-yillarida avj olgan demokratiyalashtirish jarayonlari natijasida alohida mazmun kasb etadi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy andaza sifatida talqin qilina boshlandi. Mashhur siyosatshunos olim Flipp Shmitter fuqarolik jamiyatining quyidagi muhim sifatlarini ajratib ko'rsatgan edi: shaxsning aholining alohida guruhlari va davlatdan mustaqilligi; tashkiliy yaxlitlik; davlat tomonidan himoya qilinadigan huquqlarga asoslangan korporativlik; liberallashish bilan bog'liq jarayon yoki hodisa: avtokratiyaning despotik kuch sifatida (demokratik natijalar asosida) xavflashuvi.


G'arbda XVI-XVII asrlarda, dunyoning boshqa mamlakatlarida esa fuqarolik

jamiyati genezisi XIX-XX asrlarda yuzaga kelgan degan qarashlar mavjud.

Tarixiy nuqtai-nazardan yondashadigan bo'lsak, fuqarolik jamiyatining mohiyati va shakllanishiga mos keluvchi ko'plab g'oyalar bizda ham qadimgi davrlardan mavjud bo'lganligining guvohi bo'lamiz.

Fikrimizning isboti uchun ming yilliklar mobaynida mamlakatimizda jamiyat va davlatni boshqarishning ham g'oyaviy, ham huquqiy asosi bo'lib xizmat qilgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ga va Islom dining muqaddas kitoblari "Qur'oni Karim" va "Hadisi Sharif"ga murojaat qilsak.

### **Kichik guruhlarda ishlash qoidasi**



**1-guruh.** Fuqarolik jamiyatining tarixiy ildizlari haqida «Avesto» (e.o. VII-VI), Beruniy, Xorazmiy, «Siyosatnoma» (XI asr) «Qobusnama», «Xidoya», «Qutadg'u bilig», manbalardan foydalanib o'z fikringizni asoslang.

**2-guruh.** Fuqarolik jamiyatining tarixiy ildizlari haqida "Temur tuzuklari", «Shayboniynoma», «Xorazm shajarasi», A. Navoiy asarlari, M.Ulug'bek, «To'rt ulus tarixi»dan va h.k. manbalardan foydalanib o'z fikringizni asoslang.

### Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

**1. Mamlakat boshqaruvida to'rt qoidaga amal qilish kerak: mashvarat, muhokama, qat'iy qaror, tadbirkorlik, ogohlik va ehtiyyotkorlikka degan fikrni qaysi alloma ilgari surgan?**

- A. Amir Temur
- V. Abu Ali ibn Sino
- S. Abu Rayxon Beruniy
- D. Abu Nasr Farobiy

**2. Hukumat boshlig'ining asosiy vazifasi etib aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o'rtasida siyosiy va huquqiy adolat mezonini o'rnatish deb kim ta'kidlaydi?**

- A. Amir Temur
- V. Abu Ali ibn Sino
- S. Abu Rayxon Beruniy
- D. Abu Nasr Farobiy

**3. Qaysi davrdan boshlab fuqarolik jamiyati g'oyasi demokratiya rivojlanishi bilan chambarchas bog'lanib kelmoqda?**

- A. antik davrda
- V. o'rta asrlarda
- S. yangi davrda
- D. XX asr boshlarida

**4. Yangi davrda Yevropadagi fuqarolik jamiyati konsepsiysi shaklanish necha an'anaridan iborat?**

- A. ikki
- V. uch
- S. to'rt
- D. besh

**5. Davlat – fuqarolik jamiyat dixotomiyasi kuzatiluvchi konsepsiylar qaysi davrda shakllangan?**

- A. antik davrda

- V. o'rta asrlarda
- S. yangi davrda
- D. XX asr boshlarida

**6. Oxirgi vaqtarda paydo bo'layotgan, jamiyatning, erkin ixtiyoriy assotsiatsiyalari, shuningdek, huquqiy va ommaviy institutlari doirasida amalga oshiriluvchi jamoaviylikning nomumtoz shakllari, nafaqat davlat doirasidan, balki kapitalistik bozor iqtisodiyoti chegarasidan ham chiqib ketmoqda degan fikrni qaysi zamonaviy yondoshuv ilgari surmoqda?**

- A. liberal an'ana konsepsiysi
- V. amerikancha kommunitariz konsepsiysi
- S. yevropacha neokonservativmi konsepsiysi
- D. post-marksistcha konsepsiya

**7. Fuqarolik jamiyati faqat mustaqil mamlakat doirasida amalga oshishi, haqidagi xulosasini ilgari surgan g'oyaviy oqim – bu ...**

- A. jaddidchilik
- V. marksizm
- S. konservativizm
- D. liberalizm

**8. Fuqarolik jamiyati zamonaviy konseptual diskursining normativ yondoshuvi vakillarini aniqlang.**

- A. Aleksis de Tokvil
- V. Endryu Arato
- S. Karl Marks
- D. Nikolo Makiavelli

**9. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiylarining qaysi yondoshuvi fuqarolik jamiyati a'anaviy jamiyat urnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos bo'lgan belgilarni shakllantiradigan jamiyati sifatida tushuniladi?**

- A. formasion
- V. sivilizasion

S. modernizatsiya

D. taraqqiyot

**10. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining qaysi yondoshuvi fuqarolik jamiyati kapitalistik tizimga bog‘lanadi va keng va torma’nolarda tushuniladi?**

A. formasion

V. sivilizasion

S. modernizatsiya

D. taraqqiyot

**3-mashg‘ulot. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish strategiyasi.**

**Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.
2. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot modellari.

**IQTISODIY TARAQQIYOT MODELI** (frans. modele — o‘lchov, namuna) — mamlakat iqtisodiyotini tashkil etish va rivojlantirishning strategiyasi, maqsadlari, umumiy tamoyillari ifodalangan nazariy qarashlar majmui. Iqtisodiy taraqqiyot modeli tushunchasi 20-asrning 50-yillarida paydo bo‘ldi. Bu davrga kelib ko‘pchilik sobiq mustamlaka mamlakatlar o‘z mustaqilligiga erishib, milliy davlat qurish yo‘liga o‘tgan edilar. Bu vaqtda asosiy 3 yirik taraqqiyot yo‘li bo‘lishi mumkinligi haqidagi qarashlar bor edi [(kapitalistik, so-sialistik va sotsialistik yo‘nalish (orientatsiya)]. 20-asr oxirlariga kelib biron-bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini qat’iy qabul qilingan qoidalar doirasi bilan cheklab turish mumkin emasligi, taraqqiyot yo‘llari (modellar) ancha keng ko‘lam va maq-sadga egaligi, ulardan birini tanlashda xar bir mamlakat o‘z ichki shartsharoitlaridan kelib chiqmog‘i zarurligi ma’lum bo‘ldi. Iqtisodiyot nazariyasida ayrim olimlar Iqtisodiy taraqqiyot modelini davlat tuzumi desa, boshqalar ijtimoiy iqtisodiy

formatsiya, uchinchilari esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning aniq belgilangan yo'li deb hisoblaydi. Iqtisodiy taraqqiyot modeli iqtisodiy munosabatlarning keng miqyosli tizimi, huquqiy, ma'-muriy hamda xo'jalik mexanizmlari orqali boshqariladi. Bunday munosabatlarning sub'ekti mulk egalari, xo'jalik faoliyati ishtirokchilari, uyushmalar, davlat va xususiy sektor, mamlakat doirasidagi mintaqa va tarmoklar hisoblanadi. Albatta, Iqtisodiy taraqqiyot modeliga axloq va dunyoqarash, mentalitet, turmush tarzi, madaniyat kabi ijtimoiy me'yorlar o'z ta'sirini ma'lum darajada o'tkazadi.

**Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy sivilizatsiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichi muammolarsiz, iqtisodiy tebranishlarsiz yuz bermagan. Shu ma'noda xorij mamlakatlari tajribasini o'rghanish, tahlil qilish va mintaqamiz qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ilg'or tajribalardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga egadir.**

«Bloomberg» nashriyoti tomonidan har yillik tadqiqotlar natijalari aks ettiriladigan «Global innovation indeksi» reytingida olti kategoriya bo'yicha mamlakatlar reytingi aniqlangan edi. Ushbu reytingda ilmiy-tadqiqot faoliyati, ishlab chiqarish, oliy ta'lim, ilmiy kadrlar, yuqori texnologik kompaniyalar hamda ishlab chiqarish va patentlar bo'yicha mavjud ko'rsatkichlar hisoblab chiqilgan (jadval).

Iqtisodiyotning innovasion taraqqiyoti – bu intellektual salohiyat, ishchi va xizmatchilarning kreativ imkoniyatlari, bilimi, tovar yaratishdan tortib, u iste'molchiga yetib borguniga qadar barcha bosqichlar demakdir. Ushbu yo'nalishlardagi innovatsiyalar korxona strategik rivojlanishining asosiy resursi vazifasini o'taydi. Zero, bugungi sharoitda innovasion, intellektual bilimlarga asoslangan, malakali ishchi kuchini mujassam etgan yuqori fan sig'imiga ega texnologik iqtisodiyot raqobatbardoshdir.

Xorijiy mamlakatlarda davlatning innovasion siyosatini rag'batlantiruvchi turli xil strategiyalar, tashkiliy-iqtisodiy tamoyillar shakllangan va bugun ularga amalga qilinmoqda.

Hozirgi kunda ilmiy-tadqiqot hamda tajriba konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish mexanizmlari, shuningdek, intellektual mulkchilikka huquq shakllarini qo'llashga asoslangan davlat siyosatini yuritish keng tarqagan<sup>1</sup>. Davlat tomonidan fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash – qishloq xo'jaligini byudjet tomonidan moliyalashtirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaga kiritilgan investisiyalar istiqbolli va o'z-o'zini yuqori darajada qoplash imkoniyatiga ega (70 foizgacha)dir.

Turli mamlakatlar hukumati ilmiy-tadqiqot va innovation faoliyatni moliyalashtirish uchun katta hajmda investisiya sarflamoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari uchun o'rtacha YaIMga nisbatan 1,97%, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga kiruvchi mamlakatlar – YaIMning 2,4%ini yo'naltiradi. Bu borada lider mamlakatlar – Finlyandiya, Isroil, Koreya bo'lib, mos ravishda innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar o'rtacha YaIMga nisbatan 3,55%, 4,2% va 4,36%ni tashkil etadi.

AQShda agrar sohadagi fan va innovatsiyalarni rivojlantirish maqsadida davlat katta sarmoya sarflaydi: bu ko'rsatkich yiliga qariyb 1 mlrd.AQSh dollarini tashkil etadi. Ushbu mablag'lar federal byudjet (yarmidan kami) va shtat mablag'lari (qolgan qismi) hisobidan moliyalashtiriladi. Qonunga asosan, federal mablag'lar shtatlarga davlat tomonidan ajratilgan mablag'dan kam bo'limgan hajmda, shtat mablag'idan pul ajratilgan taqdirdagina ajratiladi. Ayrim shtatlarda fan-texnika va innovatsiyalarga ajratilgan jami mablag'ning 60% ini hududiy mablag'lar tashkil etadi. Qisman davlat tomonidan nazorat qilinsa-da, mablag'larni qay bir sohaga yo'naltirishni shtatlarning o'zi belgilaydi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda agrar sohadagi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlanmalari davlat tomonidan to'liq moliyalashtirilmaydi. Aksincha, ishlab chiqaruvchilarining ilmiy-amaliy tadqiqot ishlanmalarini moliyalashtirish orqali ularni jalb etishga e'tibor qaratiladi. Agar fermerlar uyushmasi ilmiy ishlanma xarajatlarining eng kamida  $\frac{1}{4}$  qismini o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirgan va uni amalga oshirish uchun davlat grantini qo'lga kiritgan bo'lsa, olingan

natijalarning to‘la huquqli mulkdori bo‘ladi. Shu bilan birga olingan natijalarga ilmiy jamoa bilan birgalikda ham egalik qilish mumkin. Albatta, bunda jamoa tadqiqotga ulush qo‘shtgan bo‘lishi lozim (masalan, intellektual mulk shaklida). Davlat esa ilmiy yoki boshqa amaliy ishlanmalarga grant ajratar ekan, mulkdor sifatida da’vogarlik qilmaydi. Muhimi, barcha rivojlangan mamlakatlarda agrar sohadagi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlanmalarini moliyalashtirish masalasini hal qilish barobarida uni ishlab chiqarishga keng jalg etishga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Daniyadagi fermerlar uyushmasi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirishda faol ishtirot etadi. Ular shu maqsadda o‘z jamg‘armalari hisobidan amaliy tadqiqotlarni qisman moliyalashtiradilar. Fermerlar vakili mamlakatning ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat strategiyasini tanlash va davlat grantlari bo‘yicha qaror qabul qilishda qatnashadi. Uyushma, shuningdek, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha konsultativ xizmat ko‘rsatuvchi jahondagi eng rivojlangan muassasalardan birining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Kanada va AQShda davlat mahalliy hukumat bilan hamkorlikda har bir shtatdagi oliy ta’lim muassasalarida fan, ta’lim va ekstenshn-servis rivojini ta’minlaydi, ya’ni moliyalashtiradi. Oliy ta’lim maskanining vasiylik kengashi sifatida fermerlar uyushmasi ekstenshn-servis faoliyatiga ta’sir o‘tkazib boradi. Shu bilan olingan innovatsiyalar amaliyotga joriy etilishi va bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga asosiy e’tibor qaratiladi. Bundan tashqari, fan-texnika yutuqlari hamda innovatsiyalarni amaliyotga joriy etuvchi va fermerlarning bilimi, malakasini oshirish bilan shug‘ullanuvchi ekstenshn-servis kooperativ tizimiga kiruvchi ko‘plab qishloq-maslahat markazlari vasiylik kengashlariga ham ega. Yiliga 1 mlrd. AQSh dollaridan ortiq mablag‘ ekstenshn-servis faoliyatiga sarflanadi va u taxminan quyidagi tartibda moliyalashtiriladi: 18% – federal byudjetdan, 66% – shtat byudjeti va 16% – mahalliy byudjet mablag‘lari. Bundan tashqari, shtat byudjetidan mablag‘lar shunchaki ekstenshn xizmatlarga emas, balki fermerlar va ularning oilalari ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlovchi aniq dasturlarni moliyalashtirishga sarflanadi. Hozirgi kunda «Ekstenshn servis» markazlari

nafaqat AQSh, balki Polsha, Buyuk Britaniya, Fransiya va Gollandiyada ham rivojlangan. Rossiyada esa ushbu markaz 1990 yillardan e'tiboran, tajriba sifatida qo'llanmoqda.

Amerikaliklar o'z innovasion bazasini shakllantirish uchun 20 yildan ziyod vaqt sarflagan. Innovasion rivojlanishga to'siq bo'luvchi barcha omil qat'iyan yo'q qilinar edi. XXI asr boshida mamlakat Nobel mukofoti laureatlari orasida so'rovnoma o'tkazdi: AQShda XX asrda ilm-fan bo'yicha erishilgan yuksak natija aynan nima? Javob esa quyidagicha bo'ldi: «Milliy innovasion tizim shakllanishi Amerikaning texnologik liderligini ta'minlab berdi».

Yevroittifoq mamlakatlarida fan va texnologiyalar infratuzilmasida innovasion markazlar (IM) muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina mamlakatlarda innovasion markazlar ilmiy-texnik soha va bozor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur markazlar ilmiy-texnik faoliyatni moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirish maqsadida XX asming 80-yillarida tashkil etilgan.

Innovasion markazlar olingan ilmiy natijalarni targ'ib qilish va keng joriy etishni ta'minlaydigan eng muhim va eng muvaffaqiyatli instrumentlardan biridir. Innovasion markazlarning tashkiliy va moliyaviy tuzilishi quyidagi suratda aks ettirilgan (1-rasm):

Buyuk Britaniyada boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan istisno tariqasida innovasion faoliyat to'liq xususiy manbalar hisobidan moliyalashtiriladi. Shuning uchun mazkur markazlar, asosan, transfer texnologiyalar (bilimlarni sotish, almashtirish jarayoni)ga e'tibor qaratadi. Ularga a'zo bo'lib, badallarni to'lagach, kompaniyalar ushbu markazlar erishgan natijalardan bahramand bo'lishi mumkin.

Yevropa Ittifoqidagi innovasion siyosatning asosiy yo'nalishlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moliyaviy manbalar bilan ta'minlash hamda rag'batlantirish xarakteriga ega bo'lib, quyidagilardan iborat:

yagona antimonopol qonuniyatni ishlab chiqish;

jihozlarga tezkor amortizatsiya tizimini qo'llash;

ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalariga imtiyozli soliqlarni qo'llash;

tadbirkorlik va kichik biznes sohasida innovasion faoliyatni rag'batlantirish;

yangi texnologiyalar sohasida innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun tashkilotlarni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish;

OTM, ITI va boshqa ilmiy muassasalarning innovasion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan hamkorligini rag'batlantirish.

Rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma sohasini innovasion rivojlantirishda yangi texnologik park (texnopolis, innovasion markazlar, inkubator va boshqalar) tuzilmalarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashda hududiy davlat organlarining roli kattadir. Shtat va boshqa davlat organlari, odatda, infratuzilmani moliyalashtiradi, yer uchastkalarini imtiyozli shartlar asosida taqdim etadi va loyihalarga subsidiyalar ajratadi (Germaniya, Shveysariya, Avstriya tajribalari).

Texnologik parkka tashkiliy jihatdan biznes-inkubatorlar yaqin hisoblanadi. Bu sof tijoriy tuzilma bo'lib, asosan, davlat tomonidan uni rivojlantirish uchun subsidiyalar ajratiladi (AQSh, Finlyandiya, Shvesiya va boshqalar). Biznes-inkubatorlar texnoparklardan farqli ravishda faqatgina yuqori texnologiyalarga asoslanmay (hi-tech), turli loyihalarni amalga oshirishi ham mumkin. Texnologik parklarning mijozlari, odatda, tadbirkor bo'lmaydi. Ya'ni ular loyihani bajarib, amaliyotga tatbiq etgach, yana ilmiy laboratoriya qaytishadi. Biznes-inkubatorlar esa, aksincha, aynan tadbirkorlarni tayyorlaydi.

Texnoparklarni rivojlantirishning Yevropa tajribasidan ko'rish mumkinki, ular davlat tomonidan moliyalashtirilishi katta ahamiyatga ega. Markaziy va mahalliy byudjetlardan infratuzilma tarmog'ini rivojlantirish hamda texnoparklar qurishni moliyalashtirish rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quyidagicha: Fransiyada – 74%, Germaniyada – 78%, Belgiyada – 100%, Niderlandiyada – 70%, Buyuk Britaniyada – 62%.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar klaster tizimlari orqali innovatsiyalar joriy etishni keng qo'llamoqda. Ma'lumki, ilgari ilmga asoslanib klasterlar yaratish faqat industrial mamlakatlarga xos edi. Hozirgi kunda esa boshqa rivojlanayotgan

davlatlarda, shu jumladan, agrar-industrial mamlakatlarda ham bu tizim mavjud.

Jahon tajribasida hudud innovation muhitini takomillashtirishning turli usullari bor:

hududda innovation infratuzilma rivojlanishini shakllantirish (texnoparklar, biznes-inkubatorlar, hududiy innovation jamg'armalar);

transfer texnologiyalar tizimini tashkil etish (innovation faoliyat natijalarini targ'ib qilish va ularni joriy etish);

innovation loyihalarni bevosita va bilvosita moliyalashtirish;

innovation siyosatni amalga oshirish uchun klasterli yondashuv.

Ma'lumki, har bir tarmoq rivoji uning uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bevosita bog'liqdir. Jumladan, agrar soha taraqqiyoti ham aynan qishloq infratuzilmasi qay darajada rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Infratuzilma tarmog'i rivojiga esa o'z navbatida, mamlakatning ilm-fan taraqqiyoti ta'sir etadi.

Yurtimizda innovation faoliyatni tartibga solish borasida qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Bu innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashdagi ahamiyati va o'rni katta ekanligidan dalolatdir. O'z navbatida, shuni ham qayd etish joizki, bu yo'nalishda yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud.

Innovation faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy-me'yoriy omillari sifatida ushbu tizimda o'zaro huquqiy munosabatlarni o'rnatish, huquq va innovation faoliyat sub'ektlarining manfaatlarini kafolatli himoya qilish tushuniladi.

Respublikada texnopolislarni tashkil etish siyosati hududlarning ichki imkoniyatlaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Qolaversa, ular manfaatlarini hisobga olgan holda mamlakat va uning hududlari alohida mustaqil ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga e'tibor qaratilishi kerak.

Innovation rivojlanish yo'liga o'tishdagi muammolar:

iqtisodiyotning jadal o'sishini ta'minlab beruvchi innovation-texnologik iqtisodiyotning universal modeli mavjud emas;

taraqqiyotning innovation yo'liga o'tishga sharoit yaratuvchi omillarni

aniqlab olish murakkab jarayon. Zero, ushbu yo'nalishda fundamental tadqiqotlar va shakllangan nazariyalar juda ham oz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 iyuldagি Farmoyishida 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvorliklari Dasturini ishlab chiqish ko'zda tutilgan edi. Dasturning asosiy vazifasi fan sig'imi yuqori innovasion texnologiyalarni korxonalardagi an'anaviy texnologiyalarda ham, fan sig'imi yuqori ishlab bo'lgan yangi ishlab chiqarishlarni joriy etish yo'li bilan ham sanoat tarmoqlarida zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy etishdan iboratdir. «Fan sig'imi yuqori» ko'rsatkichining mohiyati shundaki, unda ilm-fan resurs sifatida qaraladi va texnik-texnologik yangiliklar manbai hisoblanadi. Yuqori texnologiyalar shunday texnologiyalarki, bunda ishlab chiqarishdagi fan sig'imi 3,5 foizdan kam bo'lmasligi talab etiladi (tadqiqot va ishlanmalarga ketadigan sarf-xarajatlarning ishlab chiqarish natijalariga nisbati). Umuman, yuqori texnologiyali tarmoqlarni tasniflashning bir qator tizimlari mavjud. Ularning eng nufuzlilari sifatida AQShdagi Fan milliy fondi va BMT klassifikatsiyasi tan olingan bo'lib, ular fan sig'imi yuqori ilg'or texnologiyalar bo'yicha tasniflashni amalga oshiradilar.

#### **4-mavzu. Fuqarolik jamiyat qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi.**

##### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyatni instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari yana shundan iboratki, davlat boshqaruvidan fuqarolik boshqaruvgiga o'tishda hokimiyat tuzilmalari o'z funksiyalarining bir qismini o'z tashabbusi bilan

amalda xalq qo‘liga, fuqarolik jamiyati institutlariga o‘tkazib bormoqda. Ayniqsa, ushbu jarayon mahalliy davlat hokimiyati funksiyalarini fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazishda yaqqol sezilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’kidlanganidek, “Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq atvorning andozalarini o‘zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir”<sup>36</sup>.

Respublikamiz ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarni o‘qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Avvalo fandagi yangilik, innovatsiya nima? Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so‘zları o‘rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so‘nggi yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo‘llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

“Fuqarolik jamiyati” o‘quv kursining “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari” mavzusini o‘qitishda bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quyidagi innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda: kichik guruhlarda ishlash, aqliy xujum, yechimlar daraxti, rolli o‘yinlar, matbuot anjumani, o‘z pozisiyasini egallah, diskussiya, debatlar va hokazolar. Innovasion texnologiyalar talabalarning faol xayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Innovasion ta’lim esa yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim

---

<sup>36</sup>

„11-12- , 295- ;  
2013 ., 41- , 543- .

//

, 1997  
, 2007 ., 15- , 150- ;

xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagи ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovation faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innofasion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovation yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovation faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovation yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovation yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

Hozirgi kunda innovation pedagogik faoliyat har qanday ta'lim muassasi o'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu tasodif emas albatta. Aynan innovation faoliyat ta'lim xizmatlari bozorida u yoki bu o'quv muassasining raqobatbardoshligi uchun asos bo'la oladi, pedagoglarning professional o'sishi, uning ijodiy izlanishini belgilab beradi hamda ta'lim oluvchilarning shaxs sifatida o'sishiga imkon beradi. Shuning uchun ham innovation faoliyat pedagoglarning ilmiy-uslubiy va ta'lim oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, innovatsiya tizimning o'zida mavjud bo'lgan resurslar hisobiga amalga oshiriladi va an'anaviy, umume'tirof etilgan ta'lim usullarini ham inkor etmaydi, ularni mazmunan boyitishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu ma'noda, xozirgi kunda, yuridik kadrlarni tayyorlashda ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalari ("case study" uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o'qitish, "amaliy o'yin", interfaol ta'lim uslubi va boshqalar), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish vazifalari belgilangan. Ma'lumki, amaliy yo'naltirilgan, ko'nikma va malakalarni

mustahkamlovchi uslublar o‘z xususiyatlariga ko‘ra innovation hisoblanadi. Yuridik fanlarni o‘qitishda, quyidagi innovation metodlarni qo‘llash mumkin: portfolio uslubi; case-study (aniq vaziyat uslubi, vaziyatli tahlil uslubi); informasiyoning (kompyuter, tarmoqli, multimedia, masofaviy) texnologiyalar; loyihamalar uslubi; kreativ texnologiyalar; amaliy o‘yinli texnologiyalar: rol ijro etish; treninglar; press-konferensiyalar shaklidagi ma’ruzalar va boshqalar.

Bugungi kunda yuridik ta’lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 28 iyundagi “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining qabul qilinishi va unda “keys-stadi” asosida dars mashg‘ulotlari o‘tishga alohida e’tibor qaratilishi fikrimizning dalilidir.

Shu bois masalalar (“keys-stadi”) asosida dars o‘tish fanni talabalar tomonidan o‘zlashtirishda, ularni aniq muammoli vaziyatni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, masalalarni tahlil qilish yo‘li bilan dars o‘tish talabalarning mustaqil fikrashlari, nizoli taraflarning vajlari, raddiyalari, e’tirozlari va talablarini qonun normalaridan kelib chiqib baholashlari hamda tegishli masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko‘nikmalalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ham masalalar an’naviy ko‘rinishda, odatdagи qoliplarga solingan qarorlar ko‘rinishida emas, turli huquqiy nizolar, muammoli vaziyatlar hamda huquqiy xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish tarzida tuzilishi zarur. Bunda talabalari muayyan vaziyatlarga standart usulda emas, balki turli xildagi pozisiyalardan kelib chiqib yondashish, qonun talablarni har tomonlama talqin etish orqali eng to‘g‘ri maqbul huquqiy tartibga solish usulini qo‘llash kabi uslublarni egallashi mumkin.

Ma’lumki, keyingi paytlarda tayyorlanayotgan mutaxassislarining aksariyatida kuzatilayotgan kamchilik bu “tahliliy fikrash”ning yetishmasligi sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa yuridik kadrlarni tayyorlash borasidagi eng muhim masalalardan biri sanaladi. Mazkur masalada esa darslarni “keys stadi” asosida o‘tish huquq fanlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o‘qitish usuli

sifatida xorijiy ta'lilda avval boshda huquq sohasida qo'llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Ta'kidlash lozimki, **keys-stadi** (inglizcha sase – to'plam, aniq vaziyat, stadi – ta'lil) keysda bayon qilingan va ta'lil oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lil uslubidir<sup>37</sup>. "Keys-stadi" asosida dars o'tishda talaba o'qituvchining bevosita ishtiroki va rahbarligida muayyan masala, huquqiy nizo, muammoli huquqiy vaziyatni qonun normalari asosida yechishga, uning to'g'ri va asosli javobini topishga harakat qiladi.

Bu jarayonda o'qituvchi bevosita talabalarni masalani yechishga to'g'ri yo'lidan borishlari va tegishli normani qo'llay olishlariga yo'naltirib turadi va talabalarning ish bo'yicha yakuniy, asoslantirilgan xulosaga kelishlarini ta'minlaydi. Dars o'tishning bunday usuli zamonaviy huquqiy ta'lildagi eng samarali usullardan biri bo'lib, bu orqali talabalarni qonun normalarini amaliyotga to'g'ri qo'llay olish, nostandard vaziyatlarda qonun talablarini o'rinni tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga va yakunda malakali huquqshunos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Masalalarni hal etishda talaba bir qator muhim bo'lgan holatlar va qoidalarni esda tutishi va masalani hal etishning usullarini o'zlashtirib olishi zarur. Bular quyidagilardir:

Birinchidan, masalani tahlil etish, uni yechishga kirishish va tegishli vaziyatga nisbatan qonun normalarini qo'llashni boshlashdan oldin talaba masalani diqqat bilan o'qib chiqishi lozim. Bunda talaba masaladagi nizo nimadan kelib chiqqanligini, gap qaysi huquqiy munosabat yuzasidan borayotganligini aniqlashi

<sup>37</sup>

– : . . . , 2012. – . 4-5.

. . . "Case-study"

: . . .

lozim. Gap shundaki, talabalarga tarqatilgan masalalarni hal etishda ayrim talabalar nizoli huquqiy munosabat aynan qaysi turga mansubligini noto‘g‘ri aniqlashlari oqibati uni yechishni mutlaqo noto‘g‘ri yo‘ldan borganligini kuzatish mumkin. Hal etilishi va tahlil etilishi talab etilayotgan munosabatlarni aniqlab olishgina taqdim etilayotgan keys nisbatan huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llash eng asosiy va dastlabki sharti bo‘lib, shu orqali to‘g‘ri yechimga kelish mumkin.

Ikkinchidan, masalani diqqat bilan o‘qib chiqqan uning yechimini topishga, masalani asoslantirishi, tahlil etishi lozim.

Uchinchidan, talaba masalani yechishning so‘nggi bosqichiga kirishadi, ya’ni ish bo‘yicha qonuniy va asoslantirilgan xulosani shakllatiradi. Bunda talaba o‘zining nazariy bilimlariga tayangan holda qonun talablaridan kelib chiqib, masala bo‘yicha qaysi taraf haq ekanligi, qaysi qonun normasiga ko‘ra uning talablari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi, tegishli talabni qondirish yoki uni qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risida xulosasini bildiradi.

“Keys-stadi” usulida dars o‘tish talabalarning mustaqil fikrlar va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda xorijiy mamlakatlarda qo‘llaniladigan keyslarning guruhi taqdim etilmoqda.

1.	Asosiy manbalari	1. Tabiiy sharoitdagi 2. Kabinetdagi 3. Ilmiy-tadqiqotchilik
2.	Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
3.	Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	1. O‘tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys 2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira 3. Prognostik keys
4.	Keys ob’ekti	1. Shaxsiy 2. Tashkiliy-institusional 3. Ko‘p sub’ektli
5.	Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma

		4. Jurnalist tergovi 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmu 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmu
6.	Hajmi	1. Qisqa (lo'nda) 2. O'rtacha miqdordagi 3. Katta (uzun)
7.	Tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari	1. Tuzilmalangan 2. Tuzilmalanmagan
8.	O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli	1. Savolli 2. Keys-topshiriq
9.	Didaktik maqsadlari	1. Muammo, yechim yoki konsepsiyanı izohlash 2. Treningli, o'quv mavzui/predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan 3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi 5. Vaziyat sub'ekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi
10.	Rasmiylashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-keys 4. Audio-keys 5. Multimedia-keys

Aytish joizki, innovasion metodlar talabalarning ijodkorligi va mustaqilligini takomillashtirish yo'li bilan kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan. Hozirgi vaqtga kelib, yuqorida keltirilgan metodlar yuridik fanlarni o'qitishda professor-o'qituvchilar tomonidan qo'llanilib kelinmoqda. Ammo, ushbu usullar orasida, portfolio metodi yuridik fanlarni o'qitishda yangi, xali yetarlicha o'r ganilmagan metod hisoblanadi.

**Portfolio metodi** – talabaning o'quv va mustaqil faoliyati natijasini baholashni o'z ichiga olgan zamonaviy ta'lif texnologiyasidir. Portfolio – bu semestr yoki o'quv yili davridagi talaba mustaqil ishlarining to'plami bo'lib, talaba haqidagi ma'lumotni, uning loyihalari, uy vazifalari, nazorat ishlar va testlar natijalari hamda talabaning o'ziga bergen bahosini o'z ichiga olishi mumkin<sup>38</sup>.

Aytish joizki, fanlarni o'qitishda portfolio usulidan nafaqat talabaning o'quv va mustaqil faoliyati natijasini baholash metodi sifatida, balki ta'lif olish yoki nazorat usuli sifatida ham foydalanish mumkin. Yuridik ta'lif yo'nalishida portfolio usuli ta'limga oid va professional amaliy-samarali faoliyat turlari bo'yicha qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, portfolio usulining quyidagi turlaridan foydalansa bo'ladi: erishilgan yutuqlar portfoliosi; shaxsiy o'sish portfoliosi; taqdimot portfoliosi; talabaning kasbiy ko'tarilish portfoliosi; qo'shimcha mutaxassislik portfoliosi; o'quv jarayoni natijalarini baholash portfoliosi (bakalavriat va magistratura). Bundan tashqari, ta'lif bosqichlariga ko'ra, portfolioning modul, semestr, kurs ishi va loyiha uchun portfolio kabi turlarini ham tatbiq qilsa bo'ladi. Portfolioning tuzilishiga qarab, elektron va qog'oz variantlaridan yosh huquqshunoslarda guruhda ishlash ko'nikmalarini hosil qilish maqsadida birgalikda yaratilgan kollektiv portfoliolar yuridik fanlarni o'qitish tizimida o'zining ijobiy samarasini berishi tabiiydir.

Portfolio usulini qo'llashning o'ziga xosligi shundaki, bu usul talabalar va professor – o'qituvchilar, ilmiy rahbarlar, kurs rahbarlari, shuningdek, bo'lajak ish beruvchilar o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shubhasiz, yuridik ta'lif tizimida portfolio usulining qo'llanilishi, talabalarni amaliyotga tayyorlaydi. Misol tariqasida talabaning ishga joylashishida (talabaning kasbiy ko'tarilish portfoliosi, o'quv jarayoni natijalarini baholash portfoliosi) yoki attestatsiya (professional muvaffaqiyatlar portfoliosi) kabi portfoliolari qo'l kelishi mumkin.

<sup>38</sup>

( . . . ) // - -

. – .. , 2015.– .189-190.

Zamonaviy jamiyat va bugungi ta'lif tizimiga innovasion kompetentli pedagoglar zarur. Nega deganda, innovasion tafakkurli va kreativ pedagoglar ta'lif jarayonini yangi mazmun bilan boyitib, uni yuqori sifat bosqichiga ko'tarilishining muhim omili ham bo'lib xizmat qiladi. Innovasion faoliyatning maqsadi, ta'lif sifatini oshirishdir. Mamlakatning intellektual salohiyatini ishlab chiqaradigan sotsial institut bo'lgan ta'lif sohasi taraqqiyotdan doimo oldinda yuruvchi xususiyatga ega bo'lishi, jamiyat, konkret shaxs va potensial ish beruvchi manfaatlariga javob berishi darkor. Yuqorida zikr etilganidek, innovasion iqtisodiyotga innovasion fikrlaydigan yuridik kadrlar zarur. Bunday kadrlarni esa innovasion kompetentli pedagoglar tarbiyalaydi. Shu jihatdan olganda, mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti va strategik salohiyati aynan innovasion pedagoglarning kasbiy mahorati, professionalligi va yuridik fanlarni o'qitishda zamonaviy innovasion metodlarni qo'llash bilan belgilanadi.

Shu o'rinda ta'lifning innovasion xarakterga ega ushbu shakllari to'g'risida so'z yuritiladi.

**I. Trening** – (ingliz tilidan training-train –o'qitmoq, tarbiyalamoq) interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning asosiy shakli bo'lib, u o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar davomida o'zlashtirish, muloqot almashish imkonini beruvchi tashkiliy tadbir hisoblanadi. Davlat-huquq fanlarning o'qitish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagи o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish istiqqbollari mavzusini o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalarga)ga tavsifnomalar berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tafsifnomalar keltirib o'tamiz:

- 1) "intervyu" texnikasi –talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan;

- 2) klaster metodi – o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiyl fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan;
- 3) “3x4” metodi – o‘quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta’rif bera olishiga qaratilgan;
- 4) “blis-o‘yin” metodi – harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan;
- 5) “ierarxiya” texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o‘tish usullarini qo‘llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan;
- 6) “talaba” treningi – talabalar bilan individual holda ishlash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi to‘sinqi yo‘l bilish, hamkorlikda ishlash yo‘llarini o‘rgatishga qaratilgan;
- 7) “muloqot” texnikasi – o‘qituvchilarни auditoriya diqqatini o‘ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan;
- 8) “boshqaruv” texnikasi – o‘qituvchilarни auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o‘quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan.

Quyida ularning ayrimlariga izoh keltirib o‘tamiz: Xususan, **Klaster metodi**.

Bu usulning ma’nosi – fikrlarning tarmoqlanishi. “Klaster” texnologiyasi – pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchi-talabalarni biron bir mavzuni chuqr o‘rganishlariga yordam beradi. O‘quvchi-talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmog‘lashlariga o‘rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqr o‘rganishdan avval o‘quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o‘quvchi-talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini

chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Samarali “aqliy hujum” metodidan foydalanish quyidagilarni taqozo etadi: qatnashchilar bemalol o'tiradigan qilib joylashtiriladi; g'oyalarni yozish uchun doska, marker yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi; muammo aniqlanadi; ish qoidalari belgilanadi; fikrlarga to'liq erkinlik beriladi; miqdorga intilish; o'qish, qayta o'zgartirish va boshqalar; g'oyalar haqida so'rash va aytilishi bilan yozib olish; qog'oz varaqlari to'lganda, ularni devorlarga osib qo'yish; o'zidan qo'shib yangi g'oyalarni rag'batlantirish; ishni davom ettirish va o'zgalar g'oyasiga aralashmaslik<sup>39</sup>.

### **“Assesment” metodi.**

Mazkur metod ta'lif oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptom (belgi)larni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi. Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin. Namuna: “Fuqarolik jamiyatini va uning tarkibiy institutlari” mavzusidan assesment. Har bir katakdagi to'g'ri javob shartli 0-1 balgacha baholanishi mumkin.


<b>TEST 0-1 bal</b>	<b>MUAMMOLI VAZIYAT</b>	<b>TA'RIF BERING</b>
	0 yoki 1 bal	
<b>SIMPTOM (belgilarini ko'rsating)</b>	<b>AMALIY KO'NIKMA</b>	<b>0 yoki 1 bal</b>
	0 yoki 1 bal	

0 yoki 1 bal		
--------------	--	--

### **“Kichik guruhlarda ishlash” metodi**

**Kichik guruhlarda ishlash** – ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan ma’ruzadagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, mashg‘ulotda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtning tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



Mazkur qayd etilgan texnologiyalarni ma'ruza va seminar mashg'ulotlarni o'tkazishda samarali foydalanish lozim. Xususan:

**Venn** diagrammasi (ingliz faylasufi Djon Venna nomi bilan atalgan).

Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Jamiyat va fuqarolik jamiyatini o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni **Venn** diagrammasi orqali ko'rsatib bering.

Xulosa qilib aytganda, "Fuqarolik jamiyati" o'quv kursining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari" mavzusi bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'lif metodlaridan foydalaniib o'tish talabalarda mashg'ulotga bo'lgan qiziqish va intilishni yanada faollashtiradi hamda ushbu darsni yaxshi o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

**5-mavzu. Ko'ppartiyaviylik - fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti.**

### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlarikengashlaridagi faoliyatini takomillashtirish.

### **Mavzu yuzasidan keyslar to'plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar**

#### **Pedagogik annotatsiyasi**

**O'quv predmeti:** Fuqarolik jamiyat.

**Mavzu:** O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari

**Keysning asosiy maqsadi:** Talabalar fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari, tuzilishi va uning institutlarini turli asoslarga ko'ra tasniflash kabilarni bayon qilib berish, *keysning asosiy maqsadidir*.

*Keysni (muammoli masalani) tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar:*

Muammoli masalani hal qilish bo'yicha talabalarni kichik guruhlarda bajaradigan ishlari bu – yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar; vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlaydi; muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq dasturini ishlab chiqadilar; taqdimotga tayyorланадилар.

Muammoli masalani hal qilish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ishda talaba bajaradigan ishlari bu – keys materiallari bilan tanishadi; berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi; taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

*Talabaga uslubiy ko'rsatmalar*

Keys (muammoli masala) uslubiy pasportining mazkur komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

muammo va kichik muammolar ifodasi (agar keys muammoni izlash va hal etishga o'rgatadigan keyslar toifasiga kirmaydigan bo'lsa);

muammo yechimi algoritmi (ushbu elementning bo'lishini o'qituvchi – keysolog

belgilaydi);

muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilish varag'i yoki muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishga doir yo'riqnomalar;

keys bilan individual va guruh bo'lib ishlashni baholash mezonlari va ko'rsatichlari;

o'quv-uslubiy materiallar: hisob-kitoblar qoidalari va formulalari, uslublar va rusumlar bayoni va boshqalar (keysologning fikriga qarab).

**Ushbu muammoli masalani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqlari zarur:**

*Tinglovchi bilishi kerak:*

Fuqarolik jamiyati tushunchasini, tarkibiy qismlari va uning asoslarini.

*Tinglovchi amalga oshirishi kerak:*

- mavzuni mustaqil o'rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi; o'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o'quv ma'lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma'lumotlarni taqqoslaysidi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

*Tinglovchi ega bo'lmos'i kerak:*

- hamkorlikdagi ishlar ko'nikmalariga; muammoli holatlar tahlil qilish ko'nikmalariga; kommunikativ ko'nikmalarga; taqdimot ko'nikmalariga.

## **O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari mavzusi bo'yicha keyslar (muammoli masalalar)**

### **Amaliy topshiriqlar**

#### **1-topshiriq**

*Fuqarolik jamiyati* – davlatdan mustaqil va undan holi munosabatlar va vositalar tizimi bo'lib, u shaxs hamda jamoalarning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi. Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari

sohasi tarzida ta'riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko'pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro'yobga chiqariladi.

## **2- topshiriq**

Fuqarolik jamiyati xususiy mulkchilikka keng yo'l beruvchi va unga asoslanuvchi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, erkin iqtisodiy faoliyatga zamin yaratuvchi shart-sharoitga tayanadi. Aynan xususiy mulkchilik muhiti va munosabatlari qaror topgan jamiyatda shaxsning mulkiy mustaqilligi, iqtisodiy faoliyat yuritishdagi erkinligi ta'minla-

nadi. Xuddi shu asnoda shaxs davlat hokimiyatiga nisbatan mustaqil mavqeni egallaydi. Davlat xususiy hayot sohasiga, shaxs va tashkilotlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashmasligi lozim.

*Davlat xususiy sohaga kirib borishi oqibatlarini muhokama eting, xususiy mulkchilikning ahamiyatini ko'rsatib bering hamda misollar keltiring.*

## **3- topshiriq**

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yaratishga katta hissa qo'shgan nemis faylasufi Gegel, bu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan. U ikki asosiy prinsipni ajratib ko'rsatgan:

**birinchidan**, shaxslar o'z xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar;  
**ikkinchidan**, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa kimsaga bog'liq bo'ladi.

*Hozirda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda paydo bo'lgan yangi asoslarni atroflicha muhokama qiling hamda rivojlangan davlatlardan misollar keltiring.*

## **4- topshiriq**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishishini xususiy mulkning qat'iy mavqega ega bo'lishi bilan bog'laydi. Shu asosda hozirgi paytda jamiyatda keng qo'lamma fuqarolik jamiyatining birinchi asosi bo'lgan xususiy lashtirish (aksiyalashtirish) jarayonlari amalga oshirilmoqda.

*Nima sababdan islohotchi-davlat O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini jadal shakllantirib borishdan manfaatdor ekanligini muhokama qiling hamda qonunchilikdan xususiy lashtirish bilan bog'liq misollar keltiring.*

**5- topshiriq**

Ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar jamiyatning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar – nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat tuzilmalari va harakatlar hozirgi zamon siyosiy jarayonining asosiy ishtirokchilaridir. Bugungi kunda jamiyatning siyosiy sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning o'rni va ahamiyati borgan sayin ortib bormoqda.

*Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning o'rni va ahamiyatini atroflicha muhokama qiling hamda qonunchilikdan misollar keltirish orqali izohlang.*

**6- topshiriq**

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi nodavlat tashkilotlar va jamoat tuzilmalari Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, davlat idoralariga ijtimoiy hayot sohalaridagi muammolarni hal etish yuzasidan takliflar kiritish, jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish orqali demokratik huquqiy davlat barpo etish vaadolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoniga hissa qo'shib kelmoqda.

*O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi nodavlat tashkilotlar va jamoat tuzilmalarini o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilgan holda misollar yordamida ularning fuqarolik jamiyatidagi o'rnnini yoritib bering.*

**7- topshiriq**

Zamonaviy demokratik jamiyatda siyosiy partiyalar faoliyatining eng muhim maqsadi – jamiyat va davlat o'rtasida ikki tomonlama aloqani ta'minlash hisoblanadi. Bunday o'zaro aloqa u yoki bu masala, siyosiy harakatlar amaliyoti hamda bir qator muhim jihatlarning mushtarakligiga asoslangan, jamiyat va davlat manfaatlarini ifodalovchi uzoq muddatli siyosiy dasturlarni amalga oshirish yuzasidan yagona nuqtai nazarni yaratishdan iborat. Fuqarolik jamiyatining boshqa sub'ektlaridan farqli o'laroq, siyosiy partiyalar davlat hokimiyati organlarini

shakllantirish, mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga amalda ega bo'ladi.

*Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda siyosiy partiyalarining o'rni va rolini nimalarda namoyon bo'ladi. Fikringizni misollar yordamida asoslang.*

### **8- topshiriq**

Mamlakatimizda qabul qilingan qonun hujjatlari fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishda, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishda hal qiluvchi omil sifatida nodavlat notijorat tashkilotlar tizimini keng rivojlantirish, ularni tashkil etish hamda faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy mexanizmlar hamda tartib-taomillarni takomillashtirish va soddalashtirishga qaratilgan qulay shart-sharoit, imtiyoz va imkoniyatlar shakllanishi uchun muhim zamin yaratdi.

*O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslarini muhokama qiling va ularning amaliy hayotda qo'llanilishini yoritib bering.*

### **9- topshiriq**

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari yana shundan iboratki, davlat boshqaruvidan fuqarolik boshqaruviga o'tishda hokimiyat tuzilmalari o'z funksiyalarining bir qismini o'z tashabbusi bilan amalda xalq qo'liga o'tkazib bormoqda. Ayniqsa, bu jarayon mahalliy davlat hokimiyyati funksiyalarini fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazishda yaqqol sezilmoqda.

*O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rmini atroflicha yoritib bering. Uning tarkibiy qismlari ahamiyatini ko'rsatib, qonunchilikdan misollar keltiring.*

### **10- topshiriq**

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi inson hayotini saqlash, uning maqsadlarini, hayotiy orzu-niyatlarini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Bu tashkilotlar, institutlar va guruhlar alohida shaxsga

uning hokimiyat manbai ekanligini, uning layoqati va harakati, obro'si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilotlar va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar.

*Inson huquq va erkinlarini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnnini atroflicha muhokama qiling.*

## **6-mashg'ulot.“Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasi.**

### **Reja:**

1. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining mazmun va mohiyati
2. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining ahamiyati.

### **Keyslarni (muammoli masalalarini) bosqichma – bosqich tahlil qilish va hal etish bo'yicha talabalarga uslubiy ko'rsatmalar (talabalarga yo'riqnomalar)**

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
<b>Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish</b>	Avvalo keys bilan tanishing. Fuqarolik jamiyati haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
<b>Berilgan vaziyat bilan tanishish</b>	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir xatboshidan ikkinchi xatboshiga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling.
<b>Muammoli vaziyatni tahlil qilish</b>	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor

	qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.
<b>Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash</b>	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to‘ldiring. Keys bilan ishslash natijalarini yozma shaklda ilova eting

## TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYaSINING MODELI

<b>Mashg‘ulot vaqtি-2 soat</b>	
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Axborot berish asosidagi kirish ma’ruzasi</b>
<i>Ma’ruza rejasi</i>	<p>1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari.</p> <p>2. Fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari.</p> <p>3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari huquqiy asoslari.</p>

*O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:* Fuqarolik jamiyati bo‘yicha ma’lumotlar berish.

<i>Pedagogik vazifalar:</i> fuqarolik jamiyati tushunchasi, ilarini tushuntirib berish; fuqarolik jamiyatining tarkibiy tutlari haqida ma’lumotlar berish; O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati tutlarini rivojlantirish istiqbollari ‘risida boshlang‘ich huquqiy asoslarini irish.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> fuqarolik jamiyati tushunchasi, ilarini tushunib olishi; fuqarolik jamiyatining tarkibiy tutlari haqida atroflicha ma’lumotlar olishi; O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati tutlarini rivojlantirish istiqbollari ‘risida boshlang‘ich huquqiy asoslarini olishi.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Ko‘rgazmali ma’ruza, aqliy hujum, suhbat, taqdimot, multimedia, tushuntirish
<i>Ta’lim berish shakllari</i>	Ommaviy

<i>Ta’lim berish vositalari</i>	O‘quv qo‘llanma, proektor, grafik organayzerlar: klaster, idrok xaritasi
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat: savol-javob

**“O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari”  
mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
<b>1-Mavzuga kirish (15 daqiqa)</b>	<p>1.1. Mavzuning nomini aytadi va ekranga mavzuning tuzilmaviy mantiqiy rejasini chiqaradi va ularga qisqacha ta’rif beradi</p> <p>1.2. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Asosiy mavzu mazmuni bo‘yicha ma’lumotlar bayon qilishga o‘tadi.</p>	Tinglaydi.
<b>2-Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	<p>2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol beradi: “fuqarolik jamiyati deganda nimani tushunasiz?”</p> <p>2.2. Javoblarni umumlashtirib, norma nima ekanligini yoritib beruvchi slaydlar yoki multamediada namoyishi orqali ma’lumotlarni kengroq yoritib beradi.</p> <p>2.3. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, belgilari bo‘yicha talabalar bilan birgalikda klaster tuzadi.</p> <p>2.4. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari</p>	Aqliy hujum asosida savol - javob. Tinglaydi, yozadi. Klaster tuzadi, fikr almashadi. Aqliy hujum asosida savol - javob.

	<p>to‘g‘risida talabalar qanday ma’lumotlarga ega ekanliklarini bilish maqsadida savol beradi: “fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlarining ayting!” berilgan savolni juftlikda, so‘ngra mustaqil o‘ylashga va juftlikda muhokama qilishni taklif qiladi.</p> <p>2.5. Berilgan javoblarni umumlashtirib, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari ahamiyatini multimedia vositasida kengroq tushuntirib beradi.</p> <p>2.6. Talabalarga “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollarining huquqiy asoslari bayon eting?” degan savol beradi.</p> <p>2.7. Javoblarni to‘ldirish maqsadida normativ-huquqiy asoslari to‘g‘risida kengroq ma’lumot beradi.</p>	Idrok xaritasi tuzadi.
<b>3-Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mavzuni to‘liq o‘rganish bo‘yicha qo‘sishimcha adabiyot va materiallar haqida ma’lumot beriladi.</p>	Savollar beradi. Vazifani yozib oladi.

## V. GLOSSARY

<b>Termin</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Avtokratiya</b>	Davlat boshlig'i cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan boshqaruv. Ushbu tushuncha hozirgi davr lug'atlarida hokimiyatga da'vogarlik qiluvchi shaxs, guruhning cheklanmagan siyosiy hukmronlikka intilishi sifatida ifodalanadi.	An autocracy is a government in which the head of state has unlimited power. In modern dictionaries, this concept is expressed as a person claiming power, a group's desire for unlimited political dominance.
<b>Avtoritarizm</b>	Davlatni boshqarish usullaridan biri. Yakka shaxsning davlatning o'z ta'siri, obro'si, tashkilotchiligi, shijoati, jamiyatni yaxshi bilimi asosida boshqarishi. Avtoritarizm, odatda, jamiyat o'z taraqqiyotining murakkab, qaltis va mas'uliyatli davrlarini boshidan kechirayotgan pallalarda saxniga chiqadi. XXasrda avtoritarizm asosan salbiy ma'noda namoyon bo'ldi. Hozirgi darv avtoritarizmiga harbiy-polisiya fashistik tartibotlar "kazarmali kommunizm" shuningdek stalinizm kiradi.	One of the ways of governing the state. The individual is the one who governs the state based on his influence, prestige, organization, enthusiasm, and good knowledge. Authoritarianism usually emerges at a time when society is going through difficult, dangerous and responsible periods of its development. In the twentieth century, authoritarianism has been largely negative. Today's Darwinist authoritarianism includes military-police fascist regimes, "barracks communism," as well as Stalinism.
<b>Agressiya</b>	Bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga nisbatan territoriyani qo'lga kiritish, uning mustaqilligini yo'q qilish yoki cheklash, aholisini bo'ysundirish maqsadida har qanday kuch ishlatish, to'g'ridan-to'g'ri qurolni	Acquisition of territory by one state in relation to another, the destruction or restriction of its independence, the use of any force to subjugate its population, direct

	agressiya	aggression
<b>Bozor iqtisodiyoti</b>	Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.	A set of economic relations that accelerates the development of society. The essence of a market economy is that it turns all members of society into regular participants through production and consumption. Therefore, a market economy allows production to improve day by day, product quality to increase, and quantity to increase.
<b>Vijdon erkinligi</b>	Bu fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. "Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasi" – BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy xujjatdir. Bu xujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta'minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan.	This is the right of citizens to believe in any religion or not to believe in any religion. The Universal Declaration of Human Rights is an international legal instrument adopted by the United Nations in 1948. This document defines the rights and freedoms of the people, the rights and freedoms that ensure their livelihood
<b>Global muammolar</b>	Ushbu muammolar o'zining daxshatli oqibatlari, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bu muammolarni jamiyat hayotida ro'y beradigan birdan – bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi. Ular o'zining ko'lami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar	These problems are somewhat different from any other problem in that they have dire consequences and damage to crime. These problems cannot be compared to a single problem that occurs in the life of a society. They are spread over a large part of the world due

	hayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.	to their scale and scale, and have a strong negative impact on the lives of many countries and peoples. 'shows
<b>Fedarativ (murakkab)</b>	Davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari kabi qisimlardan tuzilgan.	States are made up of parts of the state, such as autonomous states, territorial units of state.
<b>Demokratiya</b>	Demokrratiyaning muhim xususiyati shundaki unda xalq hokimiysi ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e'tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a'zolari hayotining asosiy qonuniushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi.	An important feature of democracy is that it officially declares the rule of the people, that is, the subordination of the minority to the majority, and recognizes the freedom and equality of citizens. These conditions are reflected in the basic law of society and the life of its members - the constitution of the state.
<b>Integratsiya</b>	Milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatdan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy ravishda birlashishi, bir-biriga o'zaro ta'sir etishi jarayonining kuchayishi. Iqtisodiy integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustivor yo'nalish deb ishlab chiqarish rivojlanishni belgilangan mamlakatlar o'rtasida, asosan ishlab chiqarish alohida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora tadbirlarni qo'llaydilar	The process of economic integration and integration of national economies in order to have qualitatively new conditions and expand the country's development potential. Economic integration cooperation is a priority in economic policy between the countries of production development, mainly production occurs separately, and in order to implement this process, countries take a number of measures depending on the

	integratsiya jarayoni rivojlanishi darajasiga bog'liq hamda besh pog'onaga ajratiladi.	level of development of the integration process and five gardens allocated to the mother.
<b>Impichment</b>	Davlat jinoyatchilarini mansabdar shaxslarni hattoki davlat boshlig'i– Prezidentini konstitutsiyasida ko'rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo'li bilan mustahkamlangan. Ma'suliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko'rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan.	Prosecution of state criminals and officials, even the head of state, for violating the provisions of the constitution is enshrined in law. The legislature is difficult to account for, and the upper house is left to decide.
<b>Inaguratsiya</b>	Davlat boshlig'i lavozimiga kirishish oldidan o'tkaziladigan tantanali marosim. Yangi Prezident va vitse Prezident hokimiyatini tantanali qabul qilish marosimi. Shuningdek haykallarni ko'rgazmalari ochilishida ham inagurayiyani ifodalaydi.	Ceremony before the inauguration of the President. Ceremony of inauguration of the new President and Vice President. It also symbolizes inauguration at the opening of sculpture exhibitions.
<b>Korrupsiya</b>	Korrupsiya – (lotincha "corruptio"- poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdar shaxsning boyish maqsadida o'z mansabi bilan bog'liq huquqlarni suiste'mol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya eng qadimiy jamiyatlardan biri: Qaerda davlat bo'lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha, korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biridir.	A crime of abuse of office rights by an official for the purpose of enrichment. Corruption is one of the oldest societies: Wherever there is a state, corruption is one of the most widespread crimes in various sectors of the state apparatus, from the bottom up.
<b>Lobbizm</b>	Lobbizm – Qonuniyat organida faoliyat ko'rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki	Lobbying - a large monopoly agency or organizational group

	tashkiliy guruh bo'lib ular manfatlarni ifoda etgan qonunlarni, zakazlarini, yordamga beriladigan mablag'ni (subsidiyani) olish yo'lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo'lsa sotib olishi) yo'lini tutuvchi tushuncha.	operating in the legislature, which does not force lawmakers to buy (if necessary) laws, orders, aid (subsidies) that represent their interests. the concept that holds the line.
<b>Mentalitet</b>	Mentalitet – (lotincha "mens" – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muhim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti uning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.	Mentality - (Latin "mens" - mind, perception) - the level of thinking of a society, nation, unit or individual, the spiritual potential of the individual, their ability to analyze the laws of life, mental ability formed in important social conditions, mental strength , the mentality of a society, nation, or individual also includes its specific traditions, customs, traditions, religious beliefs, and superstitions.

## **VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oly bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini

- tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
  14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
  15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
  16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
  17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qarori.

### **Sh. Maxsus adabiyotlar**

18. Sharifxo‘jaev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.
19. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
20. Jalilov A boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
21. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Zyonet.uz. Mualliflar jamoasi.
22. O‘tamurodov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.
23. Avesto. Tarixiy –adabiy yodgorlik. – T.: Sharq, 2001.
24. Aristotel. Politika. – M.: AST, 2006.

25. Aflatun. Qonunlar. Urfon Otajon tarjimasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. - 458 bet.
26. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari. –T.: Akademiya, 2008.
27. G'ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. – T.: Adolat, 2003.
28. Berk E. Pravlenie, politika i ob estvo / per. s angl. – Kanon-Press-Sentr, 2001.
29. Beruniy Abu Rayhon. 100 hikmat: ibratli so'zlar. – T.: Fan, 1993.
30. Gegel G.V.F. Filosofiya prava / Per. B.G. Stolpnera, M.I. Levinoy; Sost. D.A. Kerimov, V.S. Nersesians. – M.: Misl, 1990.
31. Gobbs T. Leviafan ili materiya, forma i vlast gosudarstva serkovnogo i grajdanskogo. – M.: Sotseskiz «Obrazsovaya», 1936.
32. Jalilov Sh. Fuqarolik jamiyatining poydevori. – T.: O'zbekiston, 2003.
33. Ibn Sina. Izbrannie filosofskie proizvedeniya / Otv. red. Asimov M.S. – M.: Nauka, 1980.
34. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
35. Koen Dj., Arato E. Grajdanskoe ob estvo i politicheskaya teoriya. Per. s angl. – M.: 2003.
36. Nishanbayeva E.Z. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik tamoyillari. – T.: Sharq, 2015.
37. Mavlonov J.Yo. Grajdanskoe ob estvo: ot konsepta k konsepsiym i paradigmam (sotsialno-filosofskiy analiz). Monografiya. – T.: Istiqlol nuri, 2014.
38. Malikova G.R. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – milliy demokratik institut / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009.

#### **IV. Internet saytlar**

39. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
40. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
41. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik

markazi

42. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Ta'lim portali